

# *Tarannum*

*2025-yil 1-son*



**TEXNIKA / FALSAFA / PEDAGOGIKA / FILOLOGIYA / QISHLOQ XO'JALIGI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**“IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI” ILMIY-  
TADQIQOT INSTITUTI**

**“TARANNUM”**

**ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy,  
publitsistik jurnal**

**2025/1 (№1)**

*Jurnal ikki oyda bir marta nashr qilinadi.*

**Bosh muharrir:**

**Zuxra Ismailova – p.f.d., professor**

**Tahrir hay’ati:**

Professor O.Musurmonova, professor J.Shermuxammedova,  
F.Kadirxodjayeva, professor M.Qaxxorova, D.Solixo‘jayeva,  
professor M.Shaumarova, professor R.Gaziyeva,  
professor Sh.Uljayeva, Sh.Ismailova, professor O.Jamolidinova,  
p.f.d. D.Mustafayeva, I.Seytnazarova, G. Eshchanova

**Nashrga tayyorlovchilar:**

M.Tursunova, Q.Kidirbayev

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2023-yil 31-martda ro‘yxatga olingan,  
guvohnoma raqami 071832

**Toshkent-2025**

## MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	3
----------------	---

## INTERVYU

Muhayyo Shaumarova bilan suhbat.....	6
--------------------------------------	---

## ILMIY TADQIQOTLAR NATIJALARI

## 05.00.00 - TEXNIKA FANLARI

<b>Oxunboboyeva Charos Zuxriddin qizi, Abdullayeva Dilbar Amanbayevna, Abduganiyev Aziz Abduvohid o‘g‘li, AXBOROT XAVFSIZLIGI TIZIMLARINI INTELLEKTUALLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....</b>	<b>13</b>
<b>Nasritdinova Umida Axmadjonovna, Ezoza Zoxidjonova, BINO INSHOOTLARINI KOMPYUTERDA UCH O‘LCHAMLI MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINI VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....</b>	<b>16</b>
<b>Qosimov Jakhongir Avloqulovich, DEVELOPMENT OF GRAPHIC MODELS AND ALGORITHMS IN BUILDING CONSTRUCTION DESIGN.....</b>	<b>20</b>
<b>Xafizova Zulfiya Xolmuratovna, BOG‘DORCHILIKDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING HUDUDIY TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....</b>	<b>24</b>

## 09.00.00 - FALSAFA FANLARI

<b>Ismailova Zuxra Karabayevna, Ismaylova Ra‘no, OILAVIY QADRIYATLAR MUSTAHKAM OILA GAROVIDIR.....</b>	<b>27</b>
<b>N.Y.Alimuxamedova, MADANIYATLAR XILMA-XILLIGINI SAQLASH MASALALARI.....</b>	<b>35</b>
<b>R.K.Choriyev, Z.Ismailova, YOSHLARNI IJTIMOYIY FAOLLIGI VA TASHABBUSKORLIGI ASOSIDA MA‘NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....</b>	<b>39</b>
<b>Musurmanova Aynisa, Abduraximova Farida Yuldashevna, XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASH MASALASI.....</b>	<b>46</b>

## 13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

<b>D.Mustafayeva, BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ETNOMADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI.....</b>	<b>52</b>
<b>Beknazarova Zamira Farmanovna, TA‘LIM KLASTERI ASOSIDAGI MASHG‘ULOTLARDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....</b>	<b>59</b>
<b>Xakimova Maxruxa Abdulhayevna, Mamadaminova Baxtigul Abdupattayevna, MA‘NAVIY MEROS – MILLIY TA‘LIM VA TARBIYA UZVIYLIGINING ASOSI.....</b>	<b>63</b>
<b>Madaminova Sabina Alisher Qizi, BO‘LAJAK PROFESSIONAL TA‘LIM O‘QITUVCHISINING TASHKILIY-BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI.....</b>	<b>67</b>
<b>Mamataliyeva Moxinur Ilxom qizi, KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA O‘QITISH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....</b>	<b>71</b>

## IJODIY ISHLAR

<b>Ahmatova Gulshoda G‘ulomjon qizi - Korrupsiyaga qo‘l urgan shaxslar, Onajon.....</b>	<b>77</b>
<b>Shohida Sattorova Muzaffarovna – Tajriba.....</b>	<b>78</b>
<b>Bazarbayeva Uljan Sholibayevna – Askar.....</b>	<b>78</b>
<b>Ismoilova Umida Vohidjonovna - Sevaman vatan, She‘riyat peshvosi.....</b>	<b>79</b>
<b>Avliyakulova Sanobar Nodirovna - O‘zbek Sultoni, Hijron bobida sarsonaman.....</b>	<b>80</b>
<b>Otamirzayeva Sadoqat Ilxomjon qizi – Ona, O‘zbekistonim.....</b>	<b>81</b>
<b>Shavkatova Asila Farxod qizi - Farishtam onam.....</b>	<b>82</b>
<b>Mirzaliyev Alisher - Ranjima Ko‘nglim, Tangrim Ayirmasin Sening ishqingdan, Sevgi.....</b>	<b>82</b>
<b>Xo‘jamiyarova Iroda - Samarqand.....</b>	<b>83</b>
<b>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna, Vatanim, Kitob, Qadr yig‘laydi, Farzandlarim.....</b>	<b>84</b>

## SO‘ZBOSHI

*«Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning  
madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan  
munosabati bilan belgilanadi»*

**Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sharqda oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e‘zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan. va shunday bo‘lib qoladi. Ilm-fan markazi, tamaddun beshigi hisoblanmish jannatmakon diyorumizda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimiz ham qadimdan ayollarni izzat-ikrom qilib, oilada, farzand tarbiyasi ularning o‘rni va hurmati naqadar yuksak ekanini kelajak avlodga uqdirib kelishgan. Boisi, ayollarimiz borki hayotimiz go‘zal va mazmunli, xonadonlarimiz saranjom-sarishta, obod va nurafshondir.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan barcha islohotlarning mazmuni, jamiyatda “Inson qadri uchun” tamoyilini qaror toptirishga yo‘naltirilgan. Munis va mo‘‘tabar ayollarimizning og‘irini yengil qilish, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Muhtaram Prezidentimizning “Agar biz xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak” – degan fikrlarida bugungi kunning haqiqati mujassam.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanishi bejizga emas.

Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ilm-fan sohasida izlanayotgan xotin-qizlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, olim ayollar tajribasini ommalashtirish, ularning ilmiy-tadqiqot va izlanishlar olib borishi uchun sharoit yaratish, innovatsion ishlanmalarini hayotga tatbiq etish va ilmiy to‘plamlarini nashr qilishga ko‘maklashish borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Universitetimizda bugungi kunda xotin-qizlar jamoasi jami 415 nafarni tashkil etib, shundan 170 nafari professor-o‘qituvchilarni tashkil etadi. Ularning orasida 11 nafar fan doktori va professor, 33 nafar fan nomzodi (PhD) va dotsentlarning borligi biz uchun katta sharaf. Shu bilan barga, 11 nafar ayollarimizning rahbarlik lavozimida olib borayotgan ishlari ham o‘rnak olsa arzigulikdir.

So‘nggi yillarda universitetimiz xotin-qizlari jamoasi barcha jabhalarda o‘z iqtidorlarini namoyon etib kelmoqdalar. Ular tomonidan tashkil etilayotgan turli tadbirlar, ko‘rik tanlovlar, xalqaro konferensiyalar jonajon ta‘lim maskanimiz obro‘-e‘tiborini respublika, qolaversa xalqaro miqyosda ham oshirmoqda.

“Yosh olim ayollar”, “Olima-qizlar”, “Lider qizlar” klublari va uning qoshida “Oqila ayollar” jamoatchilik guruhi bugungi kunda universitetimizning barcha fakultetlaridan barcha sohalarida shaxsiy namuna bo‘la oladigan, ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan va doimiy ravishda o‘z ustida ilmiy izlanishlar va tajribali,

salohiyatli faol ayol professor- o‘qituvchilar, tayanch doktorantlar va iqtidorli talaba-qizlarni o‘zida jamlagan. Ushbu jurnal-almanaxida nomlari zikr etilgan ko‘plab ayollarimiz ilmiy unvon va darajalarga erishganliklari va tayanch doktorantlarimiz, iqtidorli va ijodkor talaba-qizlar jamoamizning faxri va yutug‘idir. Ayollari jamoasi tomonidan bugungi kunda qariyb oxirgi yillarda 200 nomda darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, monografiyalar, ilmiy ishlanmalar chop etilgan. Shu bilan birga tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar tomonidan ilmiy ishlarini vaqtida himoyasi bo‘layotganligi va ilmiy darajalarga erishib, universitet salohiyatini ko‘tarib kelmoqdalar. Bu albatta ularning samarali mehnati natijasi hisoblanib xotin-qizlarimiz ham salohiyat jihatdan erkaklarimizdan kam emasligi isbotidir!!!

Universitetimiz xotin-qizlarimi orasida o‘z halol mehnati, fan yo‘lidagi fidoiyligi, shogirdparvarligi bilan mamlakatimizning yuksak mukofotlari, jumladan, “Mehnat shuhrati” “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi”, “Suv xo‘jaligi a‘lochisi”, “Oliy ta‘lim a‘lochisi”, “Ma‘naviyat targ‘ibotchisi”, “Mo‘‘tabar ayol” ko‘krak nishonlariga loyiq topilganligini alohida qayd etishni lozim deb hisoblayman. Albatta, bu kabi ayollarimiz barchamiz uchun o‘rnak namunasi.

Mazkur ilmiy-ommabop, ma‘naviy-ma‘rifiy va publitsistik jurnal universitetda mehnat qilayotgan xotin-qizlarimiz, jumladan professorlar, dotsentlar, fan doktorlari (DSe), fan nomzodlari (PhD), xodimlar va tyuterlar (murabbiy), ilmiy ish bilan shug‘ullanuvchi tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli talaba-qizlarning faoliyatlari va ilmiy maqolalari, ijod namunalari to‘g‘risida ma‘lumotni o‘zida jamlagan bo‘lib ularning har biri faoliyati bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Boshlagan ishimiz kattadan katta rejalarimizning debochasi hisoblanib, yaqin kelajakda jurnalning keyingi sonlarini ham chop etish maqsadlarimizdan biridir. Ushbu jurnal barcha o‘quvchi auditoriyasiga mo‘ljallangan.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ilm yo‘li barcha uchun keng ochildi. Ana shunday zalvorli, qolaversa mashaqqatli yo‘lda muhtarama ayollarimiz, ularning davomchilari bo‘lgan iste‘dodli qizlarimizning munosib vakillari ilm mayog‘ini boshi uzra baland ko‘targanicha oldinga intilmoqda. Bu yo‘lda ularga ulkan zafarlar tilayman.



# INTERVYU



**O'TIRIB DARS O'TGAN KUNIM**

**ISHDAN KETAMAN**

To'liq suhbatni ushbu manzildan tomosha qilishingiz mumkin.





**«Ilm va fidoiylık»  
Professor MUHAYYO  
SHAUMAROVA  
bilan samimiy suhbat**

Jurnalimizning bugungi mehmoni – o‘zbek ilm-fanining fidoyi vakili, mexanik olim, texnika fanlari nomzodi, professor va shu bilan birga mahoratli va sevimli ustoz Shaumarova Muhayyo opa.

Assalomu alaykum ustoz bugungi uchrashuvimizga vaqt ajratganingiz uchun sizga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Sizning texnika fanlari bo‘yicha chuqur bilim va yutuqlaringiz nafaqat bizni, balki ushbu sohada faoliyat yuritayotgan ko‘plab kishilarni ham ilhomlantiradi. Suhbatimiz davomida ilmiy faoliyatingiz, izlanishlaringiz va kelajakdagi maqsadlaringiz haqida bilib olishni niyat qilganmiz. Sizning qimmatli fikrlaringiz va tajribangiz ko‘pchilik uchun yol- yoriq bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Assalomu alaykum, taklif uchun Sizlarga ham rahmat!

**1. Sizni ilm- fan yo‘liga boshlagan asosiy sabab nima edi? Ilmga bo‘lgan qiziqishingiz qaysi davrda uyg‘ongan?**

- Meni ilm- fanga bo‘lgan qiziqishim o‘rta maktabda uyg‘ongan. Bunga maktabdagi fizika fani ustozimiz Tojiyev Axror aka sababchi bo‘lganlar. Ular doimo fizika darsida nazariyadan tashqari, laboratoriya darslarini ko‘rgazmalar orqali olib borganlar. Maktabda o‘qigan davrimdan matematika fizika fanlarini juda yaxshi ko‘rganman. Fundamental fanlarga mani qiziqishim katta bo‘lgan. Ana shu davrdan boshlangan desam xato bo‘lmaydi. Shuningdek, otam bolaligimdan ilm-fanga qiziqishim kuchli bo‘lishiga katta sababchi bo‘lganlar. Ular haydovchi bo‘lganlar, shu sababli, avtomobillarini ta‘mirlash jarayonini menga ko‘rsatib, natijasini tushuntirar edilar.

**2. Ilmiy faoliyatingiz davomida duch kelgan to‘siqlar qaysilar va uni qanday yengdingiz?**

- Ilmiy faoliyat davrida albatta eng birinchi to‘siq bizni texnika sohasida iqtisodiy to‘siq bo‘lgan va bundan tashqari nazariya va amaliyotni doimo bir-biri bilan bog‘lash qiyinchilik tug‘diradi. Ma‘lumki, texnika sohasi doimo amaliyot orqali ish ko‘radigan soha. Qilingan yangilikni albatta tajriba bilan o‘tkazishingiz kerak. Tajribalar laboratoriya sharoitida qilinadi, laboratoriyada muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng yana uni mashinada sinab ko‘riladi. Bu jarayon esa ko‘p vaqt va mablag‘ talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Lekin har qanday sohada ham o‘ziga xos qiyinchiliklar uchrab turishini tabiiy hol deb qabul qilishimiz kerak deb hisoblayman.

**3. Ilmiy faoliyatingiz davomida sizni ilhomlantirgan insonlar yoki voqealar bormi?**



- Albatta bunda eng avvalgi o'ringda ustozlarimiz turadi. Eng birinchi ilm sohasiga ilhomlantirgan ustozlardan biri Xalil Axmedovich Raxmatulindir. Ustoz Moskvada edilar, institutlarga ma'ruza qilish uchun chaqirishardi. Halim Haydarovich Usmonxo'jaev, Orazboy Magament Tosheyivich bilan texnologik jarayonlarini paxta terish mashinalari konstruksiyalarini mukammallashtirish ya'ni, ularni yaxshilash to'g'risida laboratoriyada ish olib borganman. Ustozlarim haqiqatparvar, mehnatsevar va shogirdlarga kuchini, mehnat va e'tiborini ayamaydigan insonlar bo'lishgan. Men har doim ulardan kuch olganman, shunday ustozlarning shogirdi ekanimdan faxrlanaman, ulardek ustoz bo'lib, yoshlarga ilm berishga harakat qilaman.

#### **4. Oilaviy hayot va ilmiy faoliyatni muvaffaqiyatli tarzda qanday muvozanatga keltirdingiz?**

- Ayol ilm bilan shug'ullanishni

tanlasa, ko'pincha shaxsiy istaklaridan, ortiqcha mashg'ulotlardan voz kechishga to'g'ri keladi. Do'stlar bilan uchrashuvlar, mehmondorchiliklar – bularning barchasi cheklanadi. Biroq ilmga bo'lgan muhabbat va maqsad sari intilish bu qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi. Men ilmiy darajaga erishgan vaqtimda ikki farzandim bor edi. Ularning tarbiyasiga alohida e'tibor berganman. Ilmiy ishlarimning asosiy qismini kechasi bajarganman, chunki kunduzi oila, mehmonlarni kutish, farzandlarimga g'amxo'rlik qilish kabi mas'uliyatlar bor edi. Ularning kiyim-kechaklari, ta'limi, sog'lig'i – barchasi mening nazoratimda bo'lishi kerak edi. Shu sababli, barcha uy yumushlarini ado etgach, bolalarim uxlagandan keyin ilmiy faoliyat bilan shug'ullanganman. Ayol ilm yo'lini tanlaganida, eng avvalo, ortiqcha istaklardan voz kechishi kerak. U jamiyatdagi ortiqcha gap-so'zlarga e'tibor bermasdan, o'z farzandlari tarbiyasiga e'tibor qaratishi lozim. Bola



hali maktabga chiqmasidan avval ham uni o‘qitish, boshlang‘ich bilimlarni berish – bu onaning zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir. Chunki maktab bolaning ta‘lim olish jarayonida muhim rol o‘ynasa-da, dastlabki bilimni ota-onadan olgan bola o‘qishda qiynalib qolmaydi. Ilmiy faoliyatim davomida turmush o‘rtog‘im menga katta ko‘mak berganlar. Tajriba o‘tkazish jarayonlarida, ayniqsa, erkaklar bilan ishlash talab etiladigan vaziyatlarda, menga har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi bo‘ldilar. Shuningdek, bolalarni bog‘chaga olib borish va olib kelish, uy yumushlariga yordam berish kabi ishlarda ham ularning hissasi katta bo‘ldi. Ilmiy faoliyat va oilaviy hayotni muvozanatga keltirish oson emas. Tong otguncha izlanish, tajribalar o‘tkazish, ilmiy maqolalar yozish – bularning barchasi uyqu hisobiga amalga oshirildi. Men kuniga atigi uch-to‘rt soatgina uxlaganman. Biroq mehnatim o‘z samarasini berdi.

Ilm yo‘lida muvaffaqiyatga erishish uchun uch asosiy tamoyilga rioya qilish lozim:

1. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash.

Vaqtni samarali boshqarish muvaffaqiyat kalitidir.

2. O‘z ishini sevish. Agar inson o‘z faoliyatiga muhabbat bilan yondashmasa, natijaga erishishi qiyin bo‘ladi.

3. Doimiy o‘rganish va izlanish. Katta olimlarning ishlarini o‘rganish, bilim va tajribani oshirish ilmiy faoliyatning ajralmas qismi bo‘lishi lozim.


Ilmiy faoliyat va shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanatni topish oson emas. Biroq inson o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ysa, fidoyilik va mehnat bilan har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tishi mumkin.

**5. Ilmiy ishlaringiz orasida eng faxrlanadigan loyihangiz yoki eng katta yutug‘ingiz qaysi biri?**

Ilmiy faoliyatim davomida muhim tadqiqotlardan biri paxta terish mashinasi konstruksiyasini takomillashtirish bo‘ldi. Ayniqsa, shpinderni yuklamalar ta‘sirida mustahkamligini o‘rganish va dinamik hisob-kitoblarini bajarish natijasida ushbu ishlanmalar hisobotga qabul qilindi.

Shuningdek,

noan’anaviy



ekin – topinamer yetishtirish va uni mexanizatsiyalash bo'yicha grant loyahasiga rahbarlik qildim. Ekish va yig'ib-terish texnologiyasini ishlab chiqib, maxsus mashinalarni loyihalashtirdik. Ushbu yo'nalishda ikki aspirant ilmiy tadqiqot olib bordi.

1973-yilda Mexanizatsiyalash institutiga chaqirilib, o'qituvchilik faoliyatini boshladim. Professor Salim Po'latovich tavsiyasi bilan o'zbek tilida texnik adabiyot yaratish ustida ish olib bordim. Chunki o'sha davrda darsliklar faqat rus tilida bo'lib, qishloqdan kelgan talabalar uchun tushunish qiyin edi. Dastlab lug'at va qo'llanma yaratildi, so'ng 2002-yilda birinchi o'zbekcha «Qishloq xo'jaligi mashinalari» darsligi nashr qilindi. Keyingi nashrlari tanlovlarda birinchi o'rinlarni egalladi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi kollejlari uchun darsliklar yaratishga ham rahbarlik qildim. Pillachilik, asalchilik, issiqxona xo'jaligi va qishloq xo'jaligi texnikalarini mexanizatsiyalash bo'yicha qo'llanmalar tayyorlanib, ular texnika universitetlari va ilmiy tadqiqot institutlarida foydalanilmoqda.

Hozirda «Qishloq xo'jaligi mashinalari» darsligining to'rtinchi nashri ustida ishlayapman. Yangilangan texnologiyalar asosida 30% yangi ma'lumotlar qo'shib, eskirgan qism yangilanmoqda. Bu kitob nafaqat talabalar, balki ilmiy tadqiqotchilar uchun ham asosiy manbaga aylangan.

Ilmiy faoliyatim davomida doimiy izlanish va amaliy tadqiqotlarga asoslangan yondashuvni ustuvor qilib oldim. Texnologiya taraqqiyoti bilan hamnafas bo'lish – ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishning muhim shartidir.

#### **6. Dunyo ilm- fan sohasida amalga oshirilgan qaysi eng katta yutuq sizni hayratda qoldirdi?**

- Dunyo ilm-fan sohasida juda ko'p

yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Ayniqsa, texnika sohasida amalga oshirilayotgan ishlar orasida meni hayratga solganlari qatorida Germaniyadan olib kelingan «Lemken» teskari aylanuvchi plugi bor. Ushbu texnika yer haydashda mukammal natija beradi va unumdorlikni oshiradi. Shuningdek, «Safir» don ekish mashinasi ham yuqori hosildorlikka erishishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu ilg'or texnologiyalar qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish va hosildorlikni ko'paytirish imkonini bermoqda.

#### **7. Sizningcha, texnika fanlari bo'yicha O'zbekiston global ilm-fan maydonida qanday o'ringa ega?**

- O'zbekiston texnika fanlari bo'yicha global maydonda o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda. Yurtimizda ham ilg'or texnologiyalar asosida texnika va mashinasozlik sohasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Chirchiqdagi «Selmash» zavodi ochilib, qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu texnikalar qishloq xo'jaligini rivojlantirish va unumdorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, tekstil mashinalari, temir yo'l transporti uchun teplovoz va elektropoyezdlar, kimyo sanoati uchun kimyoviy mashinalarning rekonstruksiyasi kabi yo'nalishlarda ham faol ishlar olib borilmoqda. Paxta sanoati uchun ishlab chiqilgan mashinalar esa jahon bozoriga eksport qilinmoqda.

#### **8. Sizningcha, ilmiy kashfiyotlar jamiyat hayotini qanday o'zgartirishi kerak? O'z sohangizda shunday natijalarni kuzatdingizmi?**

Ilmiy ishlarning asosiy maqsadi – ularning amaliyotda qo'llanilishi. Agar ilmiy natijalar faqat qog'ozda qolsa, ularning samarasi yo'qoladi. Shuning uchun har bir tadqiqot, xoh kichik, xoh katta bo'lsin, iqtisodiyotga real foyda keltirishi kerak. Agar iqtisodiy

samaradorlik ta'minlanmasa, bunday ishlardan voz kechish maqsadga muvofiq. Masalan, gumos ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash bo'yicha olib borilgan tadqiqot bunga misol bo'la oladi. Oldin bu jarayon og'ir qo'l mehnati talab etadigan, uzoq vaqt talab qiladigan ish edi. Shuning uchun men to'rt yil oldin bu jarayonni mexanizatsiyalash kerakligi haqida o'ylay boshladim. G'arb davlatlarida bunday texnologiyalar allaqachon mavjud, lekin ularni olib kelish juda qimmatga tushadi. Shuning uchun o'zimizda samaraliroq va arzonroq texnologiyani ishlab chiqish maqsad qilib qo'yildi. Agar bu uskuna yaratilsa, fermerlarning ishini ancha yengillashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi. Bu esa nafaqat ilmiy yutuq, balki iqtisodiy jihatdan ham katta foyda keltiradigan loyiha bo'ladi.

### **9. Yosh olimalar qizlar ilm-fanga kirib kelishlari hamda o'z sohalarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun qanday tavsiyalar berasiz?**

Yosh olimalar qizlarga tavsiyalarim sifatida quyidagilarni keltirishim mumkin:

#### **1. Soha tanlovi va qiziqish**

Kirib kelayotgan sohangizni chin dildan sevishingiz kerak. Agar inson o'z yo'nalishiga muhabbat bilan yondashmasa, u muvaffaqiyatli olimalar bo'la olmaydi.

#### **2. Ilmiy izlanish va tahlil**

Tanlagan sohangiz bo'yicha avvalgi tadqiqotlarni va hozirda olib borilayotgan ishlarni o'rganing. O'z izlanishlaringizni aniq maqsad asosida yo'naltiring.

#### **3. Oilaviy qo'llab-quvvatlash**

Ayol kishining ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishida oilaning yordami muhim. Oilaviy hayot va ilm-fanni muvozanatda ushlab ko'nikmasini shakllantirish zarur.

#### **4. Sharoitga moslashish**

Ilmiy faoliyat sharoit talab qiladi – qishda sovuq, yozda issiq laboratoriya sharoitlariga chidamli bo'lish, tadqiqot uchun qulay muhit yaratish muhim.

#### **5. Mehnatsevarlik va fidoyilik**

Ilm-fan mashaqqatli mehnat talab qiladi. Orzu-havaslardan voz kechib, ishga mehr bilan yondashish lozim.

#### **6. Maslahat va hamkorlik**

Tajribali olimlarning ishlari bilan tanishib, ulardan maslahat olishdan cho'chimang. Ilmiy hamjamiyat bilan aloqani mustahkamlang.

#### **7. Izlanish va innovatsiya**

Ilm-fanga kirib kelishdan oldin, avvalgi tadqiqotlarni tahlil qilib, yangi yo'nalishlar ochish ustida ishlang.

Yosh olimalar qizlar o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, izlanishda davom etishlari, qiyinchiliklardan cho'chimasliklari va o'z sohalariga sodiq bo'lishlari kerak. Faqat shunda ular ilm-fanda muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

### **10. Hayotingiz va ilmiy faoliyatingizdagi qiziq voqealardan gapirib bering.**

Hayotim davomida juda ko'p qiziqarli voqealar bo'lgan. Eng katta baxtli damlarim – har bir farzandim dunyoga kelganida, ularning maktabni bitirgani va oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirganlarida bo'lgan. Ilmiy faoliyatimdagi unutilmas voqealardan biri – talabalar bilan o'quv amaliyotiga chiqqan vaqtim. Birinchi marta 1982-yilda paxta terish mashinasi bilan amaliyotga borganman. O'shanda ikkita katta o'g'lim ham yonimda edi. Mashinani ancha vaqt haydamagan edim va dalada amaliyot o'tayotgan talabalar oldida haydamoqchi bo'ldim. Shu payt katta o'g'lim (o'sha paytda 8-sinfda edi) to'satdan: «Oyi, to'xtating!» – deb qoldi. Nega desam, «Siz paxtani bosib ketdingiz!» – dedi. Bu gap meni o'ylantirib qo'ydi: talabalardan bilim talab qilishdan oldin o'zim ham mukammal o'rganishim

kerak edi. O‘shandan so‘ng har kuni talabalar tushlikdan keyin dam olayotgan paytda poligonga borib, mashinani qayta-qayta haydab, uning ish mexanizmini chuqur o‘rganishga harakat qilardim. Shu tajribam menga keyinchalik juda asqatdi va amaliyot darslarini yanada samarali o‘tishimga yordam berdi. Bu voqea menga har qanday sohada o‘z ishini mukammal bilish kerakligini yana bir bor isbotladi.

### **11. Ilmiy - pedagogik faoliyatingiz davomida davlatimiz tomonidan berilgan unvon va ordenlaringiz haqida gapirib bering.**

- Ilmiy-pedagogik faoliyatim davomida davlatimiz tomonidan bir necha bor munosib taqdirlanganman. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligining “Faxriy yorliq”lari;

- “Mustaqillikning 20 yilligi” va “Mustaqillikning 25 yilligi” ko‘krak nishonlari;

- 2020 yilda “Mehnat shuhrati” ordeni;

- 2024 yilda “Mehnat faxriysi”, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim va innovatsiya vazirligi a‘lochisi ko‘krak nishonlari;

- O‘zbekiston Respublikasining 33 yilligi munosabati bilan “Ma‘naviyat fidoiysi” ko‘krak nishoni.

Bu mukofotlar mening ilm-fan va ta‘lim yo‘lidagi mehnatimning e‘tirofidir. Bunday sharafli mukofotlarga loyiq ko‘rilganimdan faxrlanaman va bundan keyin ham ilm-fan rivojiga hissa qo‘shishda davom etaman.

Mening hayot yo‘lim shuni ko‘rsatdiki, fidokorona mehnat va ilm-u tajribani boshqalar bilan baham ko‘rish insonni haqiqiy baxtga yetaklaydi. Davlatimiz tomonidan berilgan e‘tibor va e‘tirof esa yanada ko‘proq izlanish va yangi avlod uchun xizmat qilishga ruh bag‘ishlaydi.

**Intervyuni Iqboloy Sobirova tayyorladi.**



# ILMIY TADQIQOTLAR NATIJALARI

## AXBOROT XAVFSIZLIGI TIZIMLARINI INTELLEKTUALLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**Oxunboboyeva Charos Zuxriddin qizi** - TIQXMMI MTU, «Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish» kafedrasida katta o'qituvchisi, t.f.f.d. (PhD),

**Abdullayeva Dilbar Amanbayevna, Abduganiyev Aziz Abduvohid o'g'li** - TIQXMMI MTU, «Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish» kafedrasida assistentlari

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot xavfsizligi tizimlarini intellektuallashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Zamonaviy dunyodagi axborot tizimlarining murakkabligi va xavflarning ko'p qirrali bo'lishi, shuningdek, intellektuallashtirish orqali yangi imkoniyatlar va muammolar paydo bo'lishi yoritilgan. Intellektuallashtirishning imkoniyatlari, xususan, tahdidlarni aniqlash, tizimlarni samaraliroq qilish, avtomatlashtirilgan va shaxsiylashtirilgan himoya kabilarni aniqlaydi. Shu bilan birga, intellektuallashtirishning muammolari, jumladan, ma'lumotlar sifati, algoritmlarning tushunarliqligi, xakerlarning hujumlari va mutaxassislar yetishmovchiligi kabilarni ham ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** axborot xavfsizligi, intellektuallashtirish, sun'iy intellekt (si), mashina o'rganish (mo), avtomatlashtirish, shaxsiylashtirilgan xavfsizlik, ma'lumotlar sifati, tushunarli emaslik, xakerlarning hujumlari.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы интеллектуализации систем информационной безопасности. Выделены сложность информационных систем в современном мире и многогранность рисков, а также возникновение новых возможностей и проблем посредством интеллектуализации. Возможности интеллектуализации, в частности, выявляют угрозы, делают системы более эффективными и определяют автоматизированную и персонализированную защиту. При этом рассматриваются и проблемы интеллектуализации, включая качество данных, понимание алгоритмов, хакерские атаки и нехватку специалистов.*

***Ключевые слова:** информационная безопасность, интеллектуализация, искусственный интеллект (ИИ), машинное обучение (МО), автоматизация, персонализированная безопасность, качество данных, непонятность, хакерские атаки.*

***Abstract.** This article covers issues of intellectualization of information security systems. The complexity of Information Systems in the modern world and the versatility of risks are covered, as well as the emergence of new opportunities and problems through intellectualization. The possibilities of intellectualization, in particular, identify threats, make systems more efficient, identify automated and personalized protection. At the same time, the challenges of intellectualization have also been addressed, including data quality, comprehensiveness of algorithms, hacker attacks, and expert shortages.*

***Keywords:** information security, intellectualization, artificial intelligence (si), machine learning (mo), automation, personalized security, data quality, lack of understanding, hacker attacks.*

XXI asrda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib, jamiyatning barcha sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi muammolari ham murakkablashib bormoqda. Zamonaviy tahdidlarning dinamikligi va kengayishi an'anaviy xavfsizlik tizimlarining cheklanganligini ochib berdi. Shuning uchun axborot xavfsizligi tizimlarini sun'iy intellekt (SI) va mashina o'rganish (MO) kabi intellektual texnologiyalar yordamida mustahkamlash dolzarb vazifadir. Biroq, bu jarayon o'ziga xos imkoniyatlar va muammolarni o'z ichiga oladi.

### **Masalaning qo'yilishi.**

- Tahdidlarni aniqlash va oldini olish: MO algoritmlari katta miqdordagi ma'lumotlardan naqshlarni aniqlab, noma'lum tahdidlarni va noqonuniy faoliyatlarni o'z vaqtida aniqlashi mumkin. Bu an'anaviy filtrlarning cheklangan qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

- Xavfsizlik tizimlarining samaradorligi: SIga asoslangan tizimlar axborot oqimini real vaqtda kuzatib borib, xavfli faoliyatni darhol aniqlash va to'xtatish imkonini beradi.

- Avtomatlashtirish: SI va MO orqali xavfsizlik tizimlari ko'plab takrorlanadigan vazifalarni avtomatlashtiradi. Bu xodimlar va resurslarni samarali ishlatishga yordam beradi.

- Shaxsiylashtirilgan xavfsizlik: Foydalanuvchining turli xulq-atvorlarini hisobga olgan holda, SIga asoslangan tizimlar shaxsiylashtirilgan xavfsizlik darajalarini taklif qilishi va zaruratga qarab xavfsizlik choralarini avtomatik ravishda moslashtirishi mumkin.

### **Intellektuallashtirishdagi muammolar:**

- Ma'lumotlarning sifati va hajmi: MO algoritmlarining aniqligiga ma'lumotlarning sifati va hajmidan bevosita bog'liq. Noaniq va sifati past ma'lumotlar noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

- Tushunarli emaslik (black box effect): Ba'zi MO algoritmlari qaror qabul qilish jarayonini tushuntirishga qodir emas, bu ishonchsizlik va muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

- Adolatlilik va xavfsiz ishlash: Algoritmlarning qarorlarida gender, irq yoki boshqa omillarga asoslangan tasniflanishlarning cheklanganligi va hatto adolatsizlik bo'lishi mumkin.

- Xakerlarning hujumlari: SI va MO texnologiyalari ham xakerlarning yangi hujum usullariga o'zgarishiga imkon yaratadi. Masalan, algoritmlarni yo'naltirilgan hujumlar orqali o'rgatish orqali ularni noto'g'ri xatti-harakatlarga olib kelish mumkin.

- Malakali kadrlarning cheklanganligi: SI va MOga asoslangan xavfsizlik tizimlarini loyihalash va boshqarish uchun malakali kadrlarning yetarli emasligi.

### **Yechimlar va yo'nalishlar:**

- Ma'lumotlarni himoya qilish va xavfsizlik: Maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun qat'iy protokollar va xavfsizlik choralarini ta'minlash.

- Algoritmlarni sharhlash va tushunarli qilish: Algoritmlarning qarorlarini sharhlash va tushunarli qilish usullarini ishlab chiqish.

- Adolatli va xavfsiz algoritmlarni ishlab chiqish: Algoritmlarni xilma-xil ma'lumotlar to'plamlarida o'rgatish va adolatlilik va xavfsizlik standartlarini aniqlash.

- Malakali kadrlarni tayyorlash: Axborot xavfsizligi, SI va MO bo'yicha

malakali kadrlarni tayyorlash va ularga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish.

**XULOSA.** Axborot xavfsizligi tizimlarini intellektuallashtirish uzoq muddatli istiqbolga ega, bu rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qoladi. Yechimlarni topish va intellektual texnologiyalarni xavfsizlikda samarali qo‘llashga yo‘naltirish ushbu rivojlanishni yanada muvaffaqiyatli qilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-sentabrdagi “Butunjahon internet tarmog‘ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 707-sonli qarori

2. Oxunboboeva Ch.Z., Kabildjanov A.S., Ismailov S.Yo. Robastnaya identifikatsiya orositelnix sistem v selskom xozyaystve// Jurnal «Problemi informatiki i energetiki», Tashkent, №3, 2022. - C. 11-15.

3. Kabildjanov A.S. Boshqarish tizimlarini kompyuter modellashtirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2024.

4. Сборник лабораторных работ по курсу: «Основы надежности и безопасности информационных систем».



## BINO INSHOOTLARINI KOMPYUTERDA UCH O‘LCHAMLI MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINI VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

**Nasritdinova Umida Axmadjonovna** - Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti, dotsent.

**Ezoza Zoxidjonova** - Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti, magistr

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada BIM texnologiyasi asosida bino inshootini grafik loyihalashning mazmuni va mohiyati yoritilgan. Bugungi kunda zamonaviy uy joy qurilishi tizimini takomillashtirish jarayoni butun dunyoda jadal ravishda rivojlanib bormoqda.

**Kalit so‘zlar:** muammolar, o‘qitish metodlari, yangi pedagogik texnologiyalar, masalalar yechish, mantiqiy g‘oyalar.

### KIRISH

Hozirda turli binolar qanchalik tez qurilayotgani ilg‘or texnologiyalar va eng yangi materiallarning samarasidir. Hozirda qurilishda 3D panellar, yechilmas qoliplar (opalubka), sozlanuvchi modulli qoliplar, ramka o‘rnatish kabi texnologiyalar zamonaviy qurilishda allaqachon keng qo‘llaniladi. Oxir oqibat, axborot modelidan foydalanish qurilish davomiyligini, natijada ish narxini kamaytirishga imkon beradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ko‘rinib turibdiki, BIM texnologiyasidan foydalanish natijasida qurilish xarajatlarining pasayishi taxminan 25% dan 30% gacha o‘zgarib turadi. Bundan tashqari, vaqt xarajatlari kamida 40% ga kamayadi.

Adabiyotlar tahlili.

Bino va inshootlarni zamonaviy modellashtirishda asosi bo‘lmish muhandislik grafikasi fanlarini kompyuter grafikasi asosida o‘qitishni rivojlantirish va takomillashtirishning nazariy-metodologik, uslubiy asoslari D.F.Kuchkarova, Sh.K.Murodov, R.Q.Ismatullayev, J.Y.Yodgorov, E.I.Ruziyev, S.S.Saydaliyev, U.A.Nasridinova, M.M.Xamrakulova, K.Xamraqulov, S.I.Qulmamatov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Bizga ma‘lumki Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi oliy ta‘lim tizimida muhandislik kompyuter grafikasi fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish va o‘qitishning metodik tizimini loyihalash bo‘yicha O.Arefeva, M.X.Baybayeva, L.P.Bobrik, K.Grebennikov, V.N.Guznenkov, J.J.Djanabayev, S.V.Jilich, Ye.Yu.Joxova, V.V.Knyazikov, V.V.Koreshkov, A.M.Leybov, M.Matveyeva, L.Nodelman, L.V.Pavlova, Yu.I.Pritula, A.B.Puzankova, A.I.Storofilov, M.B.Talanova, Ye.M.Tretyakova, L.M.Turanova, T.V.Chemadanova, T.V.Chernyakova va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorij davlatlarida muhandislik kompyuter grafikasi fanini o‘qitish mazmunini loyihalash, o‘qitishni amalga oshirishning innovatsion texnologiyasini ishlab chiqish muammolariga Z.Zuo, H.A.Gerbekov, F.Liarokapis, B.Neda, T.J.Sexton, S.A.Sorby, H.Stachel kabi olimlarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Bino va inshootni loyihalashda quyidagi algoritm bo‘yicha loyihalangan model texnologiyasi tadqiqot metodi o‘rganib chiqilib, tavsiya etiladi. Ushbu algoritm asosida loyihalangan model kichik loyihalar uchun qulay va shu bilan birga mijozga loyihani 3D model loyihagini ko‘rishi uchun AR va VR texnologiyalari orqali taqdim etiladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanib mazkur namunaviy


turar joy loyihasi muhandislik dasturlaridan optimal loyihalash uslublari yechim va bosqichlari keltiriladi:

Namunaviy turar joy loyihasini AutoCAD dasturi orqali 2D loyihasini tayyorlash;

- AutoCAD dasturida loyihalangan namunaviy turar joy loyihasini 3DsMax dasturiga import qilish; 3DsMax dasturida bino inshootning 3D modeli yaratish;
- Loyihalangan 3D modelini Lumion dasturiga import qilish va inter'er dizayn, landshaftini modellashtirish; Lumion dasturida 3D modelni render qilish.
- Lumion dasturida 360 ponoramali tasvirni yaratish; Unity dasturi yordamida andorid uchun AR va VR dasturini yaratish
- Mijoz uchun loyihalangan namunaviy turar joy axborot modelini vizual kompyuter va AR,VR texnologiyalari orqali taqdim etish

Birinchi bosqichda arxitektor-muhandis ichki xonalar qanday bo'lishi kerakligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak. Xonadon yoki uyda ishlayotganda, u oilaning turmush tarzini, uning a'zolarining didini, odatlarini, sevimli mashg'ulotlarini tushunishi kerak. Bundan tashqari, dizayn uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladigan ish uchun batafsil texnik topshiriqni olish maqsadga muvofiqdir.


Ushbu bosqichda 1,2 – qavat tarxi va tom tarxi AutoCAD dasturida loyihasi yaratildi (1-rasm).



**1-rasm. AutoCad dasturida namunaviy turar joy loyihasini 2D ko'rinishi.**

Loyihani loyihalashning ikkinchi bosqichi: 3DsMax dasturida loyihalash.

Ushbu bosqichda takliflar muhokama qilinadi, uchrashuvlar davomida loyihaning asosiga aylanadigan ma'lum bir yo'nalish shakllana boshlaydi. 3DsMax dasturida bino inshootning 3D modeli yaratiladi. Namunaviy uy – joy loyihasining devor, fasad, tom qismi ko'tariladi. 3DsMax dasturi imkoniyatlaridan foydalanib zamin va shiftlar yaratildi, shuningdek, eshik va derazalarning zarur o'lchamlari asosida loyihalangani. Xonalar uchun rang sxemasi va tashqi fasad rangi va material tanlanadi (2-rasm).



**2-rasm. 3DsMax dasturida bino inshootning rangi va materialini tanlash.**

VR raqamli texnologiyalarni qoʻllagan holda loyihalash istiqbolli. Biroq, bugungi kunda ular koʻproq oʻqitish yoki namoyish qilish bilan shugʻullanmoqdalar, ammo yaqin kelajakda ular dizaynerlarga koʻproq narsalarga imkon berishlari mumkin. Bundan tashqari, VR simulyatsiyalari va biznesning interaktiv yechimlari yana-da aniqroq va qulay boʻlib, bu texnologiyani ommalashtirishga yordam beradi. Bino va inshootlarni loyihalashda raqamli texnologiyalardan virtual reallik simulyatorlardan foydalanish yuqori samarani beradi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni berish maqsadga muvofiqdir.

#### **Xulosalar.**

1. Respublikamiz shahar va qishloqlarida bunyod etilgan turli mohiyatga ega boʻlgan binolar va inshootlarni davlat yoki qurilish tashkilotlari tomonidan loyihalashda ularni yuritish, qiymatini aniqlash maqsadlarida binolar va inshootlar davlat kadastri yuritiladi. Shu kadastr bazaga hozirda bino va inshootlarning zamonaviy qurilish loyahasini barcha qism va strukturasi oʻz ichiga olgan modelni xam joylash yoki integrallash kelajakda bino yoki inshootning texnik koʻrsatkichlari va tuzilmalaridagi kamchiliklarni, tez bartaraf etish uchun xizmat qiladi.

2. Binolar va inshootlar loyihalashda binonig maʼlumot modeli (BIM) alohida ahamiyatga ega boʻladi. Bu tizim binolar va inshootlarning yaxlit tarzda ishlab chiqilgan qurilish obʼektining har qanday parametrlarini oʻzgartirish u bilan bogʻliq barcha narsa: chizmalar, vizualizatsiya, spetsifikatsiyalash va hattoki, taqvim jadvali avtomatik ravishda oʻzgarishiga olib keladi. Aynan ushbu tizimdan foydalangan holda bino va inshootlarni loyihalash qurilish sifatini oshiradi.

3. Bino va inshootlarni loyihalashda BIMdan va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda mamlakatning yirik shahri – Toshkent shahri alohida oʻrin tutadi. Respublikaning poytaxti, yirik megapolis sifatida bu yerda turli – tuman mohiyatga ega boʻlgan, turli xuquqlar asosida foydalanilayotgan, rang – barang arxitekturaviy va qurilish yechimlariga ega boʻlgan binolar hamda inshootlar mavjud. Ushbu binolar va inshootlardan foydalanishni tartibga solish, koʻchmas mulklar bozorini yanada rivojlantirish uchun ham ularning yagona tizimga keltirilgan binoning axborotli modelini yaratish zarur. Aynan shu holat ham bunday yirik shaharda binolar va inshootlar bazasini yaratishni talab qiladi.

4. Loyihalangan bino va inshoot modelini yuqoridagi algoritm va dasturiy mahsulotlardan foydalanib loyihalanganda, ularni zamonaviy AR va VR texnologiyalar orqali mijozga taqdim etish mumkin. BIM texnologiyalarda samarali dastur sifatida maxsus Autodesk Revit orqali bajarganda barchasini oʻz ichiga olgan xolda modellashtirish va vizuallashtirish imkonini beradi.

Bu kabi bino va inshootlarni uch oʻlchovli modellashtirish nafaqat dizayn bosqichida, balki qurilish va xavfsizlikni nazorat qilish uchun xam xizmat qiladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, rivojlanayotgan zamonimizning har bir jabhasida uch oʻlchovli modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda va oʻzining

zarurligini bildirmoqda. Jumladan, arxitektura-qurilish ishlarida ham real borliqni vizuallashtirish uch o'lovli grafik axborotlarni paydo bo'lishiga va ularni qayta ishlash texnologiyalarining takomillashuviga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu kabi axborotlar jamiyat rivojiga, ilm-fanning yangi qirralarini ochilishiga, muhandislik tadqiqotlaridan tortib to ekspluatatsiyagacha bo'lgan loyihaning barcha bosqichlarini optimallashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U.A. Nasritdinova, Methodology of using a 3D modeling tool in teaching computer graphics (Tashkent, 2018)
2. U.A. Nasritdinova, M. Satimkhojaev, Modern education 9, 38-41 (2013) [https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_2004\\_2021006.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_2004_2021006.pdf)
3. J.A. Qosimov, U.A. Nasritdinova, A. Nasritdinov, IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 1030, 012118 (2021) <https://doi.org/10.1088/1757899X/1030/1/012118>
4. U.A. Nasritdinova, M. Satimkhojaev, Modern education 9, 38-41 (2013) [https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl\\_2004\\_2021006.pdf](https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_2004_2021006.pdf)
5. J.A. Qosimov and others "The Role of Software in the Development of Modeling in Education" AIP Conference Proceedings [this link is disabled](#), 2022, 2432, 060013
6. J.A. Qosimov and others "Development of Methods for Improving the Lessons of Information Technology on The Basis of Graphic Programs" AIP Conference Proceedings [this link is disabled](#), 2022, 2432, 060012

## DEVELOPMENT OF GRAPHIC MODELS AND ALGORITHMS IN BUILDING CONSTRUCTION DESIGN

**Qosimov Jakhongir Avloqulovich**

Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, National Research University, associate professor

**Abstract.** *This article describes the content and essence of graphic design of a building structure based on BIM technology. Today, the process of improving the system of modern home construction is rapidly developing all over the world.*

**Key words:** *problems, teaching methods, new pedagogical technologies, problem solving, logical ideas.*

### **Introduction.**

The current goals of training future engineers, hydraulic engineers, architects in higher educational institutions imply a significant change in the content and structure of graphic education of graduates. These goals are aimed at implementing the social order of society, training personnel who meet the requirements that today's engineers and hydraulic engineers have. CAD or CAD (English Computer-Aided Design - «Computer-aided design») is a program in which models are defined not by polygons, but by formulas.

### **Literature analysis.**

The theoretical, methodological, and methodological foundations of the development and improvement of teaching engineering graphics, which is the basis for modern modeling of buildings and structures, based on computer graphics, were studied in the scientific works of D.F. Kuchkarova, Sh.K. Murodov, R.Q. Ismatullayev, J.Y. Yodgorov, E.I. Ruziyev, S.S. Saydaliyev, U.A. Nasriddinova, M.M. Khamrakulova, K. Khamrakulov, S.I. Kulmamatov, and others. We know that scientific research has been conducted by O. Arefeva, M. Kh. Baybayeva, L. P. Bobrik, K. Grebennikov, V. N. Guznenkov, J. J. Dzhanabayev, S. V. Zhilich, Ye. Yu. Jokhova, V. V. Knyazikov, V. V. Koreshkov, A. M. Leybov, M. Matveyeva, L. Nodelman, L. V. Pavlova, Yu. I. Pritula, A. B. Puzankova, A. I. Storozhilov, M. B. Talanova, Ye. M. Tretyakova, L. M. Turanova, T. V. Chemadanova, T. V. Chernyakova and others on improving the methodology of teaching engineering computer graphics in the higher education system of the Commonwealth of Independent States. The scientific works of such scientists as Z. Zuo, H. A. Gerbekov, F. Liarokapis, B. Neda, T. J. Sexton, S. A. Sorby, H. Stachel are devoted to the problems of designing the content of teaching engineering computer graphics in foreign countries, and developing innovative technologies for implementing training. Modern methods of three-dimensional modeling on a computer, the possibilities of designing building structures using computer graphics programs, and foreign experiences in three-dimensional modeling of building structures on a computer are covered.

### **Research methodology.**

It allows for high-precision, even fractions of a millimeter, so this method is widely used not only for display on the screen, but also for designing models that are intended for mass production. For example, it is used in industry, in creating models of cast parts for cars, engines, buildings, furniture, and aircraft [2].

Analysis and results.

In order to create the necessary conditions for training competitive personnel

in our country, the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-2909 dated April 20, 2017 “On measures for the further development of the higher education system” was adopted. The “Resolution” provides for the improvement of higher education, a fundamental revision of the meaning and content of training highly educated engineering and technical personnel. The following principles underlie the training of future engineers in higher educational institutions: humanization; a systematic and professional approach to the formation and development of the personality of a future engineer-hydraulic technician in the conditions of the rapid development of science and technology; equipping future engineers with methodological knowledge along with industry-related knowledge; improving the content and methodology of training future engineers [3]. From the above, it follows that today, in the training of future engineers, it is necessary to systematically improve their professional skills, using modern BIM technologies and the practice of their application in the educational process, and to master and implement effective innovative methods in this regard. Over the past 10 years, based on the needs of economic sectors, effective work has been carried out in Uzbekistan to develop higher education, introduce modern teaching technologies, and improve educational areas and specialties. Based on the results of our research, we can conclude that a new model of sustainable development of society has emerged in the 21st century, in which the law of progressive development of human quality, the quality of social intelligence in society, and the quality of the education system apply. In the context of the development of educational mechanisms, the application of the law of progressive development leads to the principles of primary, secondary and tertiary advancement, including through the materialized knowledge of living knowledge, techniques and technologies transmitted in the educational system. Therefore, the role of the principle of qualitative improvement of university graduates in the pace of changes taking place in the socio-economic, scientific-technical and cultural spheres of water management is extremely important. Designing using VR digital technologies is promising. However, today they are more engaged in training or demonstration, but in the near future they can allow designers to do much more. In addition, VR simulations and interactive business solutions are becoming more accurate and convenient, which will help popularize this technology. The use of digital technologies in the design of buildings and structures, including virtual reality simulators, is highly effective. Based on the results of the scientific research, it is appropriate to make the following suggestions and recommendations.

The implementation of this principle of «primary advancement» (according to A.I. Subetto) in engineering education ensures the creation of a mechanism for training engineering personnel for society. The problem of fundamentalizing the content of education is a leading one in the problem of the quality of educational content, in particular, the problem of the quality of educational content of higher educational institutions. Addressing the problems of fundamentalizing the content of education, A.I. Subetto believes that the fundamentalization of education is the process of forming the fundamental-knowledge sphere of a person (the core of the personality system).

By developing a model of a graduate of a technical higher educational institution - an engineer, we implement a systemic-activity approach and connect educational and professional standards. Thus, it can be concluded that the conceptual scheme of the object - the specialist model - defines it constructively. This scheme

defines a holistic object in accordance with the research goal and problem statement.

In our study, when developing a model of a specialist - a water management engineer, we proceeded from the fact that professional activity can be presented as something existing independently of the subject due to the requirements of technology and the structure of production, as a certain form that is objectively necessary for the functioning of social systems.

In the specialist model, we have identified two areas: the first is the sphere of higher education - the professional activity of the HEI and the educational subsystem and responsibility for professional activity. Both of them have a blind component, are passive, and their functioning is based on the mechanisms of transition from the past to the future. It is explained by the social norms of the HEI, as well as the presence of a new management component in the development of the higher education system. The second is the specialist model, which takes into account professional activity, as well as the professorial program of the future water management engineer.

The main point of our research work is the «separation» of activity and training models, which are associated with the fact that they have different goals, objects and problems. So, in conclusion, we can say that the main goals of training competitive personnel who meet modern requirements are determined by the activity model, reflecting the demand of society for specific specialists. The training model should take into account the development of the personality of a modern specialist, the organization of extracurricular activities of the student.

The acquisition of professional competence of future hydraulic engineers in higher education institutions is one of the important factors in satisfying the above-mentioned need. The process of developing professional ethics in future engineers is an important component of the activities of graphic educational programs of higher education institutions. «Therefore, it is advisable to create opportunities that serve to form BIM technology in students studying in the graphic educational program in these educational institutions.» This web application was created with the aim of digitizing the learning process. The technologies used in the web application are HTML, CSS, JavaScript. I wrote the structure of the web application using HTML, created animations using CSS, and wrote the logic of how it should behave when we execute the logic using JavaScript.

### **Conclusions.**

In conclusion, we can say that at present, the use of modeling methods, automation, the use of modern computer graphics programs and the creation of new algorithms of computer technology significantly increase the efficiency of the design process. Also, the design process can be carried out on the basis of the requirements set forth in the “Hydrotechnical structures. Basic regulations for design” adopted in our country, these regulations were developed taking into account the economic, political, and environmental conditions of our country. Algorithms for drawing several variants of design drawings of hydraulic structures are presented in this dissertation, i.e., a 3D model of the design drawing of structures such as dams, reservoirs, canals, etc.

### **REFERENCES**

1. Nasritdinova U.A., Xodjayev A.M. Bino inshootlarini loyihalashda zamonaviy modellashtirish texnologiyalarini qo‘llash. / Qishloq va suv xo‘jaligining zamonaviy muammolari maqolalar to‘plami. III tom. – Toshkent, 2021, -№3. 613-617 b.

2. J.A. Qosimov, U.A. Nasritdinova, A. Nasritdinov, IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 1030, 012118 (2021) <https://doi.org/10.1088/1757899X/1030/1/012118>
3. J.A. Qosimov and others “The Role of Software in the Development of Modeling in Education” AIP Conference Proceedingsthis link is disabled, 2022, 2432, 060013
4. J.A. Qosimov and others “Development of Methods for Improving the Lessons of Information Technology on The Basis of Graphic Programs” AIP Conference Proceedingsthis link is disabled, 2022, 2432, 060012
5. <https://lex.uz/docs/3171590>
6. <https://uz.designhouserom.com/17295371-designing-residential-buildings-features-stages-and-recommendations>



## BOG'DORCHILIKDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING HUDUDIY TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Xafizova Zulfiya Xolmuratovna  
TIQXMMI MTU

***Annotatsiya.** Maqolada bog'dorchilikda yer resurslaridan foydalanishning hududiy tizimlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Zamonaviy bog'dorchilik texnologiyalari, jumladan intensiv bog'dorchilik, tomchilatib sug'orish tizimlari va raqamli texnologiyalarning samaradorligi tahlil qilingan. Tuproq unumdorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Sohani rivojlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalari baholangan. Bog'dorchilikni innovatsion rivojlantirish istiqbollari belgilangan.*

***Kalit so'zlar:** bog'dorchilik, yer resurslari, intensiv bog'lar, tomchilatib sug'orish, tuproq unumdorligi, innovatsion texnologiyalar.*

***Abstract.** The article examines the issues of improving regional systems of land resource use in horticulture. The effectiveness of modern horticultural technologies, including intensive horticulture, drip irrigation systems, and digital technologies, has been analyzed. Recommendations are given on improving soil fertility, rational use of water resources, and ensuring environmental safety. The economic, social, and environmental results of industry development have been evaluated. The prospects for innovative development of horticulture have been determined.*

***Keywords:** horticulture, land resources, intensive orchards, drip irrigation, soil fertility, innovative technologies.*

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik sohasi qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizning qulay iqlim sharoiti, serquyosh kunlarning ko'pligi va tuproq unumdorligi yuqori bo'lgan yerlarning mavjudligi bog'dorchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

#### **Asosiy qism.**

Bog'dorchilikning hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyalari.

O'zbekiston bog'dorchiligi so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 570 ming gektardan ortiq maydonda turli xil mevasabzavot ekinlari yetishtirilmoqda. Bog'dorchilik xo'jaliklarida asosan olma, o'rik, shaftoli, nok, olcha, gilos kabi meva daraxtlari yetishtiriladi.

Tog' va tog'oldi hududlarida joylashgan bog'lar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu hududlarda o'sgan mevalarning ta'm xususiyatlari, saqlanish muddati va transportabelligi yuqori bo'ladi. Tog' yon bag'irlarida joylashgan bog'larda yetishtirilgan mevalar o'zining yuqori sifati bilan ajralib turadi.

#### **Zamonaviy bog'dorchilik texnologiyalari.**

Hozirgi kunda intensiv bog'dorchilik texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Intensiv bog'larning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Past bo'yli payvandtag asosida barpo etilgan intensiv bog'larda daraxtlar 2-3 yilda hosilga kiradi. An'anaviy bog'larda esa bu ko'rsatkich 5-7 yilni tashkil etadi. Intensiv bog'larda bir gektar maydondan 40-50 tonna hosil olish mumkin, bu esa an'anaviy bog'larga nisbatan 3-4 barobar ko'pdir.

Tomchilatib sug'orish tizimi bog'dorchilikda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiya orqali suv sarfi 50-60 foizga kamayadi, o'g'itlardan foydalanish samaradorligi esa 25-30 foizga oshadi. Bundan tashqari, tomchilatib sug'orish tizimi yordamida begona o'tlarning o'sishi kamayadi va tuproq strukturasi yaxshilanadi.

#### **Tuproq unumdorligini oshirish texnologiyalari.**

Bog'dorchilikda tuproq unumdorligini saqlash va oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tuproq unumdorligini oshirishning zamonaviy usullari qo'llanilmoqda. Organik o'g'itlardan foydalanish tuproqning fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilaydi, mikroorganizmlar faoliyatini kuchaytiradi va natijada o'simliklarning oziqlanishi yaxshilanadi.

Iloji boricha qator oralariga mavsumiy hosildor ekinlarni joylashtirish Sideratlarni ekish orqali tuproq unumdorligini oshirish samarali usul hisoblanadi. Dukkakli o'simliklarni siderat sifatida qo'llash tuproqni azot bilan boyitadi, tuproq strukturasi yaxshilaydi va eroziyaga qarshi himoya vazifasini bajaradi.

#### **Kasalliklarga qarshi kurash va profilaktika.**

Bog'dorchilikda o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy fungitsidlar va insektitsidlardan foydalanish bilan birga, biologik kurash usullari ham qo'llanilmoqda. Foydali hasharotlarni ko'paytirish, feromon tutqichlardan foydalanish, kasalliklarga chidamli navlarni ekish orqali zararkunandalarga qarshi samarali kurashish mumkin.

#### **Hosilni saqlash va qayta ishlash texnologiyalari.**

Zamonaviy sovtish kameralari va saqlash omborlari meva-sabzavot mahsulotlarini uzoq muddat saqlash imkonini beradi. Controlled Atmosphere texnologiyasi yordamida olma va noklarni 9-10 oy davomida saqlash mumkin. Bu texnologiya yordamida mevalarning tabiiy xususiyatlari, ta'mi va vitaminlari saqlanib qoladi.

#### **Innovatsion rivojlanish istiqbollari.**

Bog'dorchilikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar, GPS navigatsiya tizimlari, dronlardan foydalanish orqali bog'dorchilikni yanada rivojlantirish mumkin. Sug'orish jarayonlarini avtomatlashtirish, tuproq namligi va ozuqa moddalar miqdorini nazorat qilish uchun sensorlardan foydalanish imkoniyatlari o'rganilmoqda.

#### **Rivojlantirish istiqbollari.**

Bog'dorchilikda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Zamonaviy geoaxborot tizimlarini joriy etish orqali yer resurslarining holatini doimiy monitoring qilish

2. Tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish:

- Organik o'g'itlardan foydalanishni kengaytirish
- Tuproq eroziyasiga qarshi kurashish

3. Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish:

- Tomchilatib sug'orish tizimlarini keng joriy etish
- Suv tejevchi texnologiyalarni qo'llash
- Sug'orish tarmoqlarini rekonstruktsiya qilish

**Kutilayotgan natijalar.** Bog'dorchilikda yer resurslaridan foydalanishning hududiy tizimlarini takomillashtirish natijasida quyidagi muhim o'zgarishlarga erishish ko'zda tutilmoqda:

-Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sishi;  
-Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish natijasida hosildorlik sezilarli darajada oshadi:

- Intensiv bog'larda meva hosildorligi gektariga 45-50 tonnagacha yetishi kutilmoqda. Bu esa hozirgi ko'rsatkichlardan 2-2,5 barobar yuqoridir.

Mahsulot sifati ham yaxshilanadi. Eksportbop mahsulotlar ulushi umumiy ishlab chiqarish hajmining 60-65 foizigacha yetishi kutilmoqda. Bu esa valyuta tushumining oshishiga olib keladi.

### **XULOSA**

Bog'dorchilikda yer resurslaridan foydalanishning hududiy tizimlarini takomillashtirish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sohani yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi «Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4357-son qarori
2. Umurzoqov O'.P., Toshboev A.J. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti». Darslik. - T.: «Iqtisod-moliya», 2018.
3. Salimov B.T., Yusupov M.S. «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari». Monografiya. - T.: «Fan», 2019.
4. Abdurazzoqov, M. SH., Raxmonov, S. M. (2020). Bog'dorchilikda yer resurslarini boshqarish. Toshkent: Agroiinternashnl nashriyoti.
5. Karimova, L. S. (2018). Geografik axborot tizimlari va ularni yer resurslarini boshqarishdagi ahamiyati. «Er va ekologik tahlil» jurnali, 12(3), 22-30.
6. Mamadaliev, SH. S. (2021). Agroekologik monitoringda zamonaviy usullar. Toshkent: Ekologik tadqiqotlar markazi.
7. Kenjabaev, X. A. (2019). Bog'dorchilikda barqaror rivojlanish va yer resurslari. «Iqtisodiyot va agroindustriya» jurnali, 8(5), 45-51.
8. Ismatova, F. M. (2022). Yer resurslari va ulardan foydalanishning yangi yo'nalishlari. Toshkent: Zarafshon nashriyoti.

**OILAVIY QADRIYATLAR – MUSTAHKAM OILA GAROVIDIR**

**Ismailova Zuxra Karabayevna**- Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti-milliy tadqiqot universiteti professori, p.f.d.

**Ismailova Ra'no** - Toshkent Davlat pedagogika universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan oila masalalariga qaratilgan jiddiy e'tibor oilaning jamiyat va shaxsning barqaror rivojlanishi uchun tutgan o'rni bilan bog'liq. Global nuqtai nazardan oilani qo'llab-quvvatlashga barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlarga erishish, jumladan, qashshoqlikka barham berish, sog'liq va farovonlikni ta'minlash, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularning huquqlarini himoya qilish, tengsizlikni kamaytirish mexanizmi sifatida qaralmoqda. Maqolada muallif oilani mustahkamlash, sog'lom va baxtli onalik va bolalik uchun zarur shart-sharoitlar oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlari fikrlari, qarashlari, munosabatlarini o'rganishga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar haqida so'z yuritadi.

**Kalit so'zlar:** mahalla, oila, gender tengligi, qadriyatlar, huquq normalari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiylashuv.

**Аннотация.** Огромное внимание к семейным вопросам со стороны государств и международных организаций связано с ролью семьи в устойчивом развитии общества и личности. С глобальной точки зрения поддержка семьи рассматривается как механизм достижения целей устойчивого развития, включая искоренение нищеты, обеспечение здоровья и благополучия, расширение возможностей для женщин и защиту их прав, сокращение неравенства. В статье автор рассказывает о социологических исследованиях, направленных на изучение взглядов, представлений, отношений населения о семейных ценностях, необходимых условиях для укрепления семьи, здорового и счастливого материнства и детства.

**Ключевые слова:** махалля, семья, гендерное равенство, ценности, правовые нормы, семейные отношения, социализация.

**Abstract.** Great attention to family issues on the part of States and international organizations is associated with the role of the family in the sustainable development of society and the individual. From a global perspective, family support is seen as a mechanism for achieving sustainable development goals, including poverty eradication, ensuring health and well-being, expanding opportunities for women and protecting their rights, and reducing inequality. In the article, the author talks about sociological research aimed at studying the views, perceptions, attitudes of the population about family values, the necessary conditions for strengthening the family, healthy and happy motherhood and childhood.

**Keywords:** neighborhood, family, gender equality, values, legal norms, family relations, socialization.

**KIRISH**

Ko'p olimlar o'z tadqiqotlarida ma'naviy tanazzulning asosiy omillari bo'yicha qator izlanishlar olib borishdi, har xil qiziqarli tahliliy ma'lumotlar asoslandi, lekin bularning ichida odamni tashvishga soladigan bir qaraganda e'tiborsizdek tuyiladigan, lekin oqibati tanazzulga, johillikka olib boradigan bir

omil, ya'ni oilada farzand tarbiyasi va oilaviy qadriyatlarga e'tiborsizlik illati millatning ma'naviy tannazzulining asosi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Nega bugun ota-onalar o'rtasida farzand tarbiyasi borasida e'tiborsizlikka yo'l qo'yilmoqda? Farzandi tarbiyasi bilan shug'ullanishiga qanday omillar to'sqinlik qilyapti? Ota-onalar tarbiyaviy yondashuvlarini biladimi? Mazkur savollar bizning masala yuzasidan hamma uchun birdek ahamiyatga ega optimal yechim topish vazifasini oldimizga qo'yimoqda. Bugun butun dunyoda inson kapitali uchun kurash, eng katta sarmoya farzandni yaxshi bilimli bo'lishiga, tarbiyasiga tikilayotgan bir vaqtda farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik illati kuchayib borayotganligi hammamizni tashvishlantiradi. Bu borada barcha ta'lim muassasalarida ilmiy sohalarga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mana shunday tadqiqotlardan biri bugungi mavzu doirasidagi asosiy olib borilayotgani bizni quvontiradi albatta. BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda oilalarning ko'plab muammolariga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish, ularni hal qilish uchun resurslarni safarbar qilish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida e'lon qilingan rezolyutsiyasi asosida O'zbekistonda har yili 15 may kuni Xalqaro oila kuni nishonlanadi. Zamonaviy oila duch keladigan ko'plab muammolar ko'lami gender omili, mehnat faoliyati bilan oilaviy hayot o'rtasidagi muvozanatni hisobga olgan holda oilalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash zarurati bilan bog'liq.

2022-2026 yillarda yangi O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi doirasida Oila institutini, ma'naviy-axloqiy asoslar va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni nikoh va oilaviy hayotga tayyorlash, oilalardagi nizoli vaziyatlar va ajrimlarning oldini olish borasida yagona davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oilani mustahkamlash, sog'lom va baxtli onalik va bolalik uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish haqida g'amxo'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Oila-nikoh munosabatlari va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, milliy qadriyatlarga asoslangan, xalqaro huquq normalari va talablariga javob beradigan qonunchilik bazasi uzluksiz takomillashtirilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan davlat dasturlari oilani mustahkamlashga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan xalqaro va davlat strategiyalari hamda oilani mustahkamlash chora-tadbirlari zamirida fuqarolarning oila va oilaviy o'zaro munosabatlarga bo'lgan munosabatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega [1].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Jamoatchilik fikrini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy tadqiqotlarning natijalari fuqarolarning oila institutining zamonaviy jamiyatdagi roli va o'rni, oilaga zamonaviy inson, ayniqsa, yoshlar nigohi bilan qarash, oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini aniqlash imkonini beradi.

Fuqarolarning oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlari fikrlari, qarashlari, munosabatlarini o'rganishga qaratilgan ijtimoiy tadqiqot onlayn so'rovi usuli yordamida o'tkazildi. So'rovlarda respublikamizning barcha hududlarida, shahar va qishloq joylarida yashovchi 18 va undan katta yoshdagi fuqarolar, turli soha va tarmoqlarda band bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar vakillari ishtirok etishdi [2].


Oilaviy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni o'rganishda tadqiqot doirasida o'zbekistonliklar oilada nikohning o'ziga xos xususiyatlarini (uning qadriyati, oilaviy hayotning boshlanishi, oilaviy qadriyatlarning yuzaga kelishi va farzandlar hayotiga singdirish usullari) va oilaning mavjud bo'lishini tavsiflovchi ehtimoliy

qiyinchiliklar (oilaviy ajrimlar) va oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish tendensiyalari hisobga olingan holda o'rganildi. Onlayn so'rovnomalar o'zbekistonliklar tomonidan oilaviy qadriyatlarning inson hayotidagi roliga berilgan bahoni aniqlab berdi, bunda oilaning naslni davom ettirish uchun zarurligi va inson ruhiy-ijtimoiy farovonligining resursi sifatida oila haqidagi tasavvurlar asosiy hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O'tkazilgan tadqiqotda fuqarolarning rasmiy nikohga bo'lgan munosabatini aniqlash bilan birga respondentlarning oila, farzand, ota-ona namunasi va ularning ma'naviy axloqiy qarashlarini ko'rish mumkin. Umuman olganda, respondentlar rasmiy nikoh, moliyaviy mustaqillik, oilada er-xotinning vafodorligi, oila mustahkamligi oilaning asosiy sharti hisoblashadi. Oila qurishda bir xil dinga e'tiqod qilish muhimligi, oilaviy munosabatlarda patriarxal ya'ni oilada otaning ustunligi, bosh bo'lishi va oilani moliyaviy ta'minlash uning zimmasida ekanligini tadqiqot natijalarida ko'rishimiz mumkin.

1- jadval

#### Oila qurish uchun rasmiy nikohdan (FHDYO)dan o'tmoqchimisiz?



Tadqiqotda yoshlarni nikohga va oila qurishda rasmiy nikohni (FXDYO) qo'llab-quvvatlanishining yaqqol tendensiyasi aniqlandi. Aksariyat respondentlar (62,90%) rasmiy nikohdan o'tish istagi borligini ko'rishimiz mumkin. Rasmiy nikohga kirishishning asosiy sabablari sifatida oila qurish istagi 49,3%, farzandli bo'lish istagi 26,9%, sevgi esa 13,4 % ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, o'zbekistonliklar uchun oilali va farzandli bo'lish muhim o'rinda turadi.


Ajrashish uchun xiyonat 60,3%, er-xotin o'rtasida mehr va o'zaro bir-birlarini tushunmaslik 45,6%, farzandsizlik 48,5% ni tashkil etgan. Oilada munosabatlarning pokligi, er va xotinning bir biriga munosabatidagi ishonch, hurmat, bir-birini tushunishi oila mustahkamligining asosi, deb hisoblashlarini ko'rishimiz mumkin.

O‘zbek oilasi uchun farzandsizlik – bu oila uchun jiddiy muammo va farzand ko‘rishga intilayotgan turmush o‘rtog‘i, erkak va ayol, agar oilada uzoq vaqt mobaynida farzand bo‘lmasa, ajrashish uchun ariza berishi mumkinligi aniqlandi [3].

47,7% so‘rovnoma ishtirokchilari oilani tashkil etishning patriarxal shaklini (oila boshlig‘i erkak, u asosiy qarorlarni qabul qiladi) tanlaganlar, 44,6% esa, barcha qarorlar birgalikda qabul qilinishi, oila boshqaruvining demokratik shakli (er-xotinlar oilaning teng huquqli a‘zosi sifatida boshqarishi)ni tanlaganlar, bu aholining tafakkurida ham diniy va milliy xususiyatlar saqlanib qolishi bilan birga, yangi tafakkur, er va xotinning teng huquqligi, demokratik g‘oyalarning ham shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval

Ota-onangizning oilaviy hayoti siz uchun namunami?




Tadqiqot natijalari fuqarolarning ko‘pchiligi ya‘ni 85,8% ota-onalarining oilaviy hayoti ular uchun namuna ekanligini ta‘kidlaganlar. Shu bilan birga 86,6% respondentlar o‘z farzandlari ham oilaviy an‘analarni kelajakda o‘z oilalarida davom ettirishni xohlashlarini ko‘rsatganlar.

Shu bilan birga 64,20% respondentlar o‘z ota-onalarining oilaviy munosabatlari modelidan qoniqishlari va 14,20% esa oilam uchun men oilaviy munosabatlarning boshqa modelini afzal ko‘raman, deya javob berganlar.

3-jadval


Ota-onangizning oilaviy munosabatlari modeli sizni qoniqtiradimi?



Oila qurish uchun ish va doimiy daromadga ega bo'lish 44,8% ni, 23,9% ota-onaning roziligi va 22,4% oila qurish istagini, aksariyat respondentlarning oila oldidagi mas'uliyatni oilani moddiy ta'minlash bilan ko'rsatdilar.

4-jadval


**Oila qurish uchun qanday shart-sharoit yetarli deb o'ylaysiz?**



Sizingcha, kim oilani moddiy jihatdan ta'minlashi kerak, degan savolga 50% respondent er-xotin teng holda ishtirok etishi, 47,10% er ta'minlashi kerak deb javob berilgan. Demak bugun jamiyatda oilani moddiy ta'minoti er va xotin zimmasida bo'lishi normal holat hisoblanadi.

5-jadval

**Sizingcha, kim oilani moddiy jihatdan ta'minlashi kerak?**




Siz uchun hayotda qimmatli va eng muhimi nimada, degan savolga 67,6% oila va shunga mantiqiy bog'langan holda farzandlar javobi belgilangan hamda 39,7% sog'liqni belgilaganlar. Bu juda muhim, demak aholi ongida o'z salomatligiga bo'lgan e'tibori kuchayganidan dalolat beradi.

Respondentlarning 80,6 % bolalarni islom dini qadriyatlariga o'rgatish va 9% esa dunyoviy me'yor va qoidalar muhim deb hisoblaganlar [4].



6-jadval

### Бола қандай қилиб oilaviy қадриятларни ўзлаштиради?




So'rovnomada ishtirokchilarning 38,60% bola bilan tarbiyaviy suhbatlar, bu qadriyatlarning nima uchun bu muhimligini tushuntirish, 31,40% shaxsiy namuna va qadriyatlarni bola hayotiga faol kiritib borish orqali orqali bolalarga oilaviy qadriyatlarni o'zlashtirishlariga ko'mak berishlari 65,7% farzand tarbiyasida va oilaviy muammolarni hal qilishda bolaning fikrini hisobga olgan holda, oilada bolaning tenglik huquqini ta'minlashlari ko'rsatilgan.

Respondentlarning 37,3% oilaning shajaraviy daraxti mavjudligi, 25,4% qisman, bu haqida ma'lumot to'playotganliklari, 20,9% oilaning shajaraviy daraxti yo'qligi va 14,9% rejalashtirayotganliklari haqida ma'lumot berganlar.

7-jadval

### Oilangizning shajaraviy daraxti, sizda bormi?




Oilaviy qadriyatlar sifatida 53,2% oiladagi sog'lom muhit, 14,9% sog'lom oila va mustahkam jamiyat, shu bilan birga kattalarni hurmat qilish, har bir oilaning o'z tarixini bilish, milliy urf-odat va an'analar, o'tganlarni yod etish, ota-onani xizmatini qilish, farzandlar ta'limiga investitsiya kiritish, ya'ni o'qitish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish kabilarni ham oilaviy qadriyatlar tarkibiga kiritganlar. Shuningdek, bayram kunlari, tug'ilgan kunlarni nishonlash, dam olish kunlari oilaviy

tushliklarni tashkil etish, farzandlarni hayotda erishgan yutuqlarini (birinchi qadam, 1-sinfga borish, maktab yoki oliy o'quv yurtini tugatish, diplom olish va b.) oilaviy an'analar sifatida ko'rsatilgan [5].


53,8% respondentlar oilaviy qadriyatlarni shakllanish yo'llarini quyidagicha ko'rsatganlar, oila hayotiga urf-odatlarini maqsadli ravishda kiritib borish, 30,8% avloddan- avlodga o'tib kelayotganligi, 1,5% oilaviy an'analar yo'qligini ta'kidlaganlar. 52,9% respondentlar bir-biriga g'amxo'rlik, o'zaro hurmat, qo'llab-quvvatlash, 16,2% yaqin qarindoshlar (aka-uka, opa-singillar va boshqalar) bilan muloqot qilish, oilaviy bayramlar, yubileylar va boshqalar, 13,2% oilada ishonch, qarashlarning o'xshashligi, o'zaro tushunish kabi qadriyatlarni eng muhim qadriyat sifatida belgilaganlar. Shuningdek, 66,2% ishtirokchi oila a'zolari bo'sh vaqtlarini birgalikda va oilaviy tadbirlarni ham birgalikda o'tkazishlari muhimligini ta'kidlaganlar.

### 8-jadval



Respondentlarni 91,40% katta avlod (bobo, buvi va yaqin qarindoshlar holidan xabar olib turishlari), ular bilan yaqin munosabatda ekanliklarini ko'rsatganlar [6].

## Farzandingiz uchun qaysi tarbiya uslubini tanlaysiz?



**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Umuman olganda, tadqiqot natijalari orqali, oila aholi uchun asosiy hayotiy qadriyat bo'lib qolmoqda. Fuqarolarning tasavvurida mamlakatimizda oilaning o'ziga xos fazilatlarini – nikohning muqaddasligi bolalarga muhabbat, katta avlodning yuqori nufuzi, oila a'zolari o'rtasidagi muhabbat va ma'naviy yaqinlik, o'zaro hurmat va o'zaro tushunish, o'zaro ishonch tuyg'usiga qurilgan munosabatlar ekanligini ko'rishimiz mumkin.

So'rov natijalariga ko'ra, oilalarda qulay va monand munosabatlar o'rnatilishi, oilalar farovonligini mustahkamlash va yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga, degan fikrga qo'shiladilar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. T.2010 . 459-бет.
3. Ismailova Z.K. Tarbiyaviy ish metodikasi. T.: Фан.2003.
4. Andreeva I.N. Emosionalniy intellekt kak fenomen sovremennoy psixologii. Ново-полцк ПГУ. 2011-21с.
5. Oila psixologiyasi prof. G'.B. Shoumarov tahriri ostida. T.: Sharq, 2001. O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari (Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalarining bayonnomasi)
6. Qurbonova G.A. Oiladagi shaxslararo munosabatlarning farzand ijtimoiy persepsiyasiga ta'siri: Avtoref. dis. ... psixol. fan. nomzodi. – T., 2009. - 188 б.

## MADANIYATLAR XILMA-XILLIGINI SAQLASH MASALALARI

Alimuxammedova Nodira Yadgarovna

«TIQXMMU» MTU falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada globallashuv insoniyatning sayyoraviy birlikka intilishini madaniyatlar xilma-xilligini saqlagan holda yo'naltirish zarurligi, bu jarayonni inson taraqqiyotining umumiy madaniy va sivilizatsion paradigmasini o'zgartirmasdan, milliy madaniyatlarning barcha qadriyatlar tizimini sifat jihatidan qayta ko'rib chiqmasdan amalga oshirib bo'lmazligi masalasi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, millat, milliy yuksalish, milliy identifikatsiya, identiklik, etnik madaniyat.

**Аннотация.** В статье рассматривается необходимость сохранения разнообразия культур в процессах глобализации, этот процесс не может быть реализован без изменения общекультурной и цивилизационной парадигмы развития, без качественного переосмысления всей ценностной системы национальных культур.

**Ключевые слова:** глобализация, нация, национальный прогресс, идентификация, идентичность, национальная идентичность, этническая культура.

**Abstract.** The article examines the need to preserve the diversity of cultures in the processes of globalization; this process cannot be implemented without changing the general cultural and civilizational development paradigm, without a qualitative rethinking of the entire value system of national cultures.

**Keywords:** globalization, nation, national pride, national identity, identity, ethnic culture.

Davrimizning paradoksal xususiyati shundan iboratki, globallashuv davlatlar, xalqlar va madaniyatlarni yaqinlashuvi, zamonaviy texnologiyalar rivoji, ommaviy madaniyatni, turli qadriyatlarning tarqalishi va milliy madaniyatlarga singishi, madaniy unifikatsiya jarayonlarini jadallashuviga olib kelmoqda, ammo shu bilan birga turli mamlakatlarda iqtisodiyot va ma'naviy hayotda globallashuvning namoyon bo'lishiga qarshi etnomadaniy jamoalar doimiy tarzda norozilik bildirib kelmoqdalar. Albatta bu noroziliklar ortida milliy va madaniy o'ziga xoslikni yo'qotish qo'rquvi, «o'zlik»ning yo'qotilishi xavfi yotadi, hatto davlat darajasida integratsion jarayonlarga millatning mavjudligiga tahdid sifatida qaralmoqda va milliy identiklikni, milliy manfaatlarni himoya qilmoqdalar.

Globallashuv jarayonlari tashqi ijtimoiy makon integratsiyalashuviga olib keldi, lekin ichki farqlanishlarni kuchaytirdi. Global integratsiya insoniyatning sayyoraviy birlikka intilishini madaniyatlar xilma-xilligini saqlagan holda yo'naltirish zarur, bu jarayonni inson taraqqiyotining umumiy madaniy va sivilizatsion paradigmasini o'zgartirmasdan, milliy madaniyatlarning barcha qadriyatlar tizimini sifat jihatidan qayta ko'rib chiqmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Milliy o'zlikni anglashni o'sishi, milliy identiklik masalalarini dolzarblashuvi aynan yangi global gomogen madaniyatning o'rnatilishi mumkinligi va ushbu holatga nisbatan himoya vositasi sifatida bugungi kunda eng muhim masalaga aylangan. O'zbekiston mustaqillik yillarida ijtimoiy-gumanitar fanlar oldidagi dolzarb vazifalardan biri – bu jamiyatning transformatsiyalashuvida kechayotgan islohotlarning milliy qadriyatlar qayta o'zgarishiga ta'siri, o'zlikni anglash masalalarida xalqning millat sifatida yangidan

namoyon bo‘lish jarayonlaridagi ilmiy nazariy asoslarni tadqiq etish asosiy vazifa edi. Yangi O‘zbekistonda milliy rivojlanishdan milliy taraqqiyot sari yuz tutayotgan jamiyatimizning yangilanishida milliy identifikatsiya jarayonini optimallashtirish yo‘llari va imkoniyatlarini aniqlash muhimdir. «Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim»<sup>1</sup> ligi ushbu masalaning ahamiyatini belgilaydi.

Millatning taraqqiyoti milliy birlikni vujudga keltiruvchi mental xususiyatlar va «o‘zlikni anglash tuyg‘usi»ning rivojlanganligiga borib taqaladi, milliy identiklikni bu ikki komponentning ijtimoiy-ma‘naviy jihatlarini anglashga asos bo‘ladi, bu borada millat manfaatlarini himoya qilgan milliy g‘oya fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. Milliy identiklik mentalitet va o‘zlikni anglashni nazarda tutganligi sababli, milliy xususiyatlarni belgilashda biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydi. Davlat hujjatlarida milliy identiklik tushunchasi mavjud emas, lekin barchaga ma‘lumki milliy identiklik milliy davlat legitimligining asosi hisoblanadi. Milliy davlatchilik rivoji nuqtai nazaridan qaralganda, o‘z taqdirini o‘zi belgilash masalalari milliy xavfsizlik prizmasi orqali talqin etiladi, ammo aynan milliy identiklik uning muhim jihatidir. Milliy identiklik milliy davlatlar legitimligining asosini tashkil etar ekan, millatning umumiy o‘tmishi, tarixiy taqdirning birligi haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi, toki birlik hissi mavjud ekan, xalqlar o‘z milliy o‘ziga xosligini saqlab qolishga intilib, milliy identiklikni sinfiy, diniy, mahalliy farqlardan yuqori qo‘yar ekan, millat ham mavjud bo‘ladi. Zero, «ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, jamiyatda vatanparvarlik va o‘z xalqi bilan g‘ururlanish tuyg‘usini shakllantirish milliy o‘zlikni anglash hissini mustahkamlash va vatandoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi»<sup>2</sup>.

Globalashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotgani, keskin kurash va raqobat hukm surayotgan bir davrda manfaatlar to‘qnashuvi kuchayib borar ekan, milliy o‘zlik va ma‘naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar ham tobora ortib bormoqda. Globalashuv obyektiv jarayon sifatida «foydalanish», «moddiy manfaatlar ustunligi» tamoyillariga asoslanganligi ushbu jarayonning «ma‘naviy qashshoq»ligining mezonidir. Axborot globalashuvining sezilarli ta‘siri – telekommunikatsiyalarning rivoji, internetni yer yuzini «zabt» etganini hisobga olgan holda, odamlarning, ayniqsa yoshlarning o‘z-o‘zini anglashiga ijtimoiy-psixologik bosim nihoyatda kuchaygani hammamizga ma‘lum. Bugun «ma‘naviy qashshoqlik» xavfi yoshlar orasida ayniqsa yuqori bo‘lib, millat taraqqiyotining asoslarini, milliy-ma‘naviy merosni, ma‘naviy qadriyatlarni barbod qilishi bilan millatni borliq sifatida mavjud bo‘lishiga rahna solmoqda. Bunday sharoitlarda yoshlarning milliy o‘ziga xosligini, milliy identiklikni saqlash masalasi o‘ta dolzarbdir.

Tadqiqotimizning yana bir muhim tushunchalaridan biri «milliy identiklik»dir. Milliy identiklik identiklikning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Identiklik (lotincha (identus) – aynanlik, mansublik, o‘xshashlik) atamasi insonni ma‘lum bir ijtimoiy guruhga mansubligini anglashi va tan olishi, ushbu guruhga xos bo‘lgan maishiy va nomaishiy xulq-atvor stereotiplarini o‘zlashtirishi va ularga amal qilishidir. Identiklik identifikatsiya jarayonida shakllanadi. Insonda identifikatsiya muammosi insonning mavjudligi, ekzistensiya muammosi bo‘lib, o‘zini o‘zi

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // «Xalq so‘zi», 2018 yil 29-dekabr.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi № PQ-4390-sonli «O‘zbekiston tarixi» telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori // <https://lex.uz/docs/4414474>

anglash, mentalitet, o‘zini boshqalardan farqlash, o‘zi kim ekanligini tushunish istagi bilan birga namoyon bo‘ladi va bu istak ontologik ehtiyojdir. Inson ijtimoiylashuv jarayonida jamiyatning a‘zosi sifatida shakllanar ekan, u ulkan tizimni bir qismi, ma‘lum bir madaniyatni tashuvchisi ekanini anglaydi, unda daxldorlik, aynanlik, mansublik hissi shakllanadi.

Zamonaviy G‘arb ilmiy tafakkurida identiklik va xususan milliy identiklik muammosiga e‘tibor 1970 yillarda kuchaydi, shu davrda «identiklik» atamasi ijtimoiy-gumanitar fanlar lug‘atiga kiritilgan edi<sup>3</sup>. Identiklik va o‘zlikni anglash inqirozi muammosi aynan shu davrgacha birinchi bo‘lib psixologiya fani tomonidan kun tartibiga qo‘yilgan va psixoanaliz yo‘nalishining asoschilari Z.Freyd, E.Erikson va E.Fromm nomlari bilan bog‘liq edi. Ushbu muammo falsafa, shu jumladan postmodernizm tomonidan qabul qilingan va inson ongi va faoliyatining markazi sifatida «Men resurslari»ning intihosi bashorat qilingan edi. Umuman olganda identiklik, Sh.Madaeva ta’kidlashicha, «....falsafaning abadiy predmeti bo‘lgan borliq va tafakkur munosabati masalasi o‘tgan asrda aynan identiklik vositasi orqali hal etildi. Aniqrog‘i borliqning o‘xshashlik va farqlilik, aynanlik ya’ni identiklik atributlari tafakkur vositasida turkumlashishi, shuningdek, borliqqa bo‘lgan munosabat identiklik orqali ijtimoiylashuvni tashkil etishi muammolari XX asr falsafasi diqqat markazida turdi»<sup>4</sup>.

Insonda o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqalardan farqlash, o‘zi kim ekanligini tushunish, nasl-nasabini bilishga ehtiyoji doim mavjud bo‘lgan. Ushbu ehtiyoj individ uchun asosiy hisoblanadi, o‘zini muayyan madaniyat bilan identifikatsiya qilish inson mentalligini, uning hayotiy qadriyatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, milliy identiklik – madaniy tajribani saqlash va davom ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Shunday qilib, milliy identiklik tufayli, birinchidan, individ o‘zini boshqalar bilan qiyoslash orqali o‘z etnik Menini mustahkamlashga qodir bo‘ladi, ikkinchidan, etnik jamoalar o‘z madaniy an‘analari, qadriyatlari, odatlarini saqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Identiklik bu dissepaktiv tizim, u nochiziqilik, beqarorlik holatiga o‘tar ekan, bu muammo inson borlig‘i mohiyatining asoslarini dolzarblashtirib, bifurkatsiyaning bir ehtimoliy varianti sifatida global identiklik masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Bu holat nafaqat har bir inson va har bir madaniyat uchun aynanlik va farqlilik nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan «Biz kimmiz?», «Bizning boshqalardan farqimiz nima?» savollari, balki «Inson nima?» degan, inson borlig‘i bilan bog‘liq eng chuqur metafizik savol ushbu masalaning yakuniy asosi sifatida eng muhim masalaga aylangan. Shu munosabat bilan murakkablashib, dissipativ tizim sifatida ko‘pvariantlilik darajasiga o‘tgan insonlar, ijtimoiy guruhlarining mansublik va aynanlik masalalari ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, psixologiya, politologiya fanlarining kun tartibiga qo‘yilgan dolzarb muammoga aylandi. Nima uchun bugungi kunda identiklik murakkablashib bormoqda? Nima uchun «identiklik inqirozi» yuzaga kelmoqda? E.Erikson «identiklik inqirozi» jamiyatning ijtimoiy–madaniy transformatsiyasi va etnik mansublikni saqlab qolishga intilishlar natijasida vujudga kelishini tahlil qilgan edi. Jamiyat taraqqiyotidagi nochiziqilik, noaniqliklar, ertangi kunga ishonchsizlik hissini kuchayishi, ijtimoiy bo‘xronlar, jamiyat transformatsiyaci identiklikni o‘zgaruvchanligiga olib keldi. Identiklik ijtimoiy-madaniy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida ijtimoiy tuzilmadagi o‘zgarishlarga sezuvchan

3 Балибар Э., Валлерстайн И. Раса, нация, класс. Двусмысленные идентичности. М., 2003; Бауман З. Индивидуализированное общество. М., 2002; Бергер & П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. М., 1995;

4 Madaeva Sh.O. Identiklik antropologiyasi. Toshkent, “NOSHIR”, 2015. – B.25

bo‘lib, fluktuatsiyalar ta‘sirida uzluksiz transformatsiyaga uchramoqda. Minglab insonlar murakkab ijtimoiy jarayonlarda, jamiyat tuzilmasidagi o‘zgarishlarga bog‘liq holda indentiklikni yo‘qotib va yana qaytadan tiklashga urinmoqdalar, chunki ijtimoiy transformatsiyalar yangi identiklikni taqozo qilmoqda, «foйда olish», «moddiy manfaatlar ustunligi» tamoyillari hukm surayotgan davrimizda turli identiklar orasidagi tanlov individning manfaatlarini, intilishlari va maqsadlariga qarab amalga oshirilmoqda.

Globalashuv obyektiv jarayon sifatida «foйда olish», «moddiy manfaatlar ustunligi» tamoyillariga asoslanganligi ushbu jarayonning «ma‘naviy qashshoq»ligining mezonidir. Bugun «ma‘naviy qashshoqlik» xavfi yoshlar orasida ayniqsa yuqori bo‘lib, millat taraqqiyotining asoslarini, milliy-ma‘naviy merosni, ma‘naviy qadriyatlarni barbod qilishi bilan millatni borliq sifatida mavjud bo‘lishiga rahna solmoqda. Identiklikning xarakteri, ko‘lami, jadalligi, kishilarni yo‘naltirish va safarbar qilish qobiliyati jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy manba bo‘lib, fuqarolar identikligini shakllantirish davlat yaxlitligi va jamiyat barqarorligini saqlash shartidir. Fuqarolar xulq-atvorini yo‘naltirish va tartibga solish uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladigan yangi qadriyat yo‘nalishlarini, milliy g‘ururni shakllantiruvchi, milliy identiklikni qayta va qayta yaratishga qodir milliy ideallar, milliy mafkurani rivojlantirish borasida alohida tadqiqotlar olib borilishini taqozo etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // «Xalq so‘zi», 2018 yil 29 dekabr.
2. Балибар Э., Валлерстайн И. Раса, нация, класс. Двусмысленные идентичности. М., 2003;
3. Бауман З. Индивидуализированное общество. М., 2002;
4. Бергер & П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. М., 1995;
5. Madaeva Sh.O. Identiklik antropologiyasi. Toshkent, “NOSHIR”, 2015. – Б.25
6. Alimuxamedova N.Y. Etnomilliy konsepsiyalarning tahlil etishda an‘anaviy yondashuvlar // “O‘z MU xabarlarini”. № 1/2/1 – Toshkent: 2022. 75-78 betlar.

## YOSHLARNI IJTIMOIIY FAOLLIGI VA TASHABBUSKORLIGI ASOSIDA MA'NAVIIY-AXLOQIIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Choriyev Ruzimurad Kungratovich** - Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti –milliy tadqiqot universiteti, Yoshlar masalalari va ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, p.f.d., professor

**Ismailova Zuxra Karabayevna** - Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti –milliy tadqiqot universiteti xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, p.f.d., professor

***Annotatsiya.** Maqolada axloqiy tarbiya, oliy ta'limda talabalarni tarbiyalash metod va shakllarini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, ta'lim-tarbiya sohasida tarixda ta'limiy-axloqiy yo'nalishda yozilgan ko'plab asarlar tahlili, ularning mazmun mohiyatini talabalarga singdirish, shu bilan birga talabalarni Vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash; mehnatni qadrlashga o'rgatish; tengdoshlariga bo'lgan madaniy munosabatlarni rivojlantirish; shaxs sifatidagi nuqtai nazarini qaror toptirish yo'nalishlari belgilab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, axloq, odob, ta'limiy-axloqiy yo'nalish, metod, shakl, tadqiqotlar, oila, oliy ta'lim muassasasi, madaniy munosabatlar, tarix zarchashmalari.*

***Аннотация.** Статья включает исследование нравственного воспитания, методов и форм воспитания студентов в высшей школе, анализ многих работ в области воспитания в области образования и этики, их содержания, а также воспитания у студентов любви к Родине; обучение ценить труд; развитие культурных отношений со сверстниками; определены направления принятия решений с точки зрения человека.*

***Ключевые слова:** образование, воспитание, этика, этикет, учебно-этическое направление, метод, форма, исследование, семья, вуз, культурные отношения, история.*

***Abstract.** The article includes research on moral education, methods and forms of educating students in higher education, analysis of many works in the field of education in the field of education and ethics, their content, as well as cultivating students' love for the motherland; teaching to appreciate work; developing cultural relationships with peers; the directions of decision-making from the point of view of the person are defined.*

***Keywords:** education, upbringing, ethics, etiquette, educational-ethical direction, method, form, research, family, higher education institution, cultural relations, history.*

### KIRISH

Jahon ta'lim tizimida yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikalari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmlari, talabalarining axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o'qitish modellari texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashtirilgan interfaol dasturlar ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning Oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi, YUNESKOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish" dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, modulli ta'limni tashkil etishga, o'qitishning zamonaviy



usullarini joriy etish orqali talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan.

Jahon oliy ta'lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talabalar tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta namoyon etish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o'qitish, blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinarlar, evristik metodlar keng qo'llanilmoqda.

Respublikamizda ko'plab olimlar tomonidan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining turli jihatlari o'rganilgan hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash imkoniyatlari tavsiya etilgan. Ushbu tadqiqotlarning ayrimlari ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining muayyan qirralarini tahlil etishga, boshqalari esa ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitish va turli o'quv kurslarida yangi usullarni qo'llashga yo'naltirilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari ham chuqur tadqiq etilgan.

**Ilmiy tahlil.** Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini rivojlantirish borasida milliy qadriyatlardan foydalanish yo'llari va milliy tarbiya asoslari, ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi, ayniqsa ta'lim muassasalarida Tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish va "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanidan o'qitish tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha V. Karimova [9], N. D. Mahmudova [8], O. Musurmonova [10], Sh. Sh. Olimov [11], M. Qurunov [12], N. X. Oripova [10], Z. Q. Ismoilova [9], N. A. Muslimov [7], N. M. Ochilova [13], Yu. P. Azarov [7], Z. E. Azimova [8] kabi olimlarning ilmiy ishlarida oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi tahlil qilingan<sup>5</sup>.

Binobarin, professor O. Musurmonova tomonidan ishlab chiqilgan hukm-xulosalar ilmiy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, ularni amalga oshirish metodlariga oid tavsiyalarida izchillikka e'tibor qaratish lozim. Talaba-yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga doir shakl va metodlar (konferensiya darslari, seminar darslari, munozara darslari, amaliy darslar, o'yin darslari, sayohat darslari, rolli darslar, Tarbiyaviy tadbirlar, ekskursiyalar, davra suhbatlari, kichik guruhlarda ishlash); ma'naviy madaniyatni shakllantirish metodlari (muammoli-munozarali vaziyat, qiyosiy-izohli tahlil, badiiy-ma'rifiy asarlar ustida ishlash, ijodiy ish, tushuncha tahlili, mantiqiy tahlil, timsollar tahlili, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni sharhlab o'rganish, mustaqil ish va h.k.) [10] tizimi ma'naviy-axloqiy tarbiya metodikasi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Shunisi e'tiborliki, ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishlarini ta'lim bosqichlari

<sup>5</sup> Ismoilova Z.Q. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). – Ped.fan.dok. ...dis. avtoref. – T.: O'zPFITI, 2006. – 46 b.

Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 1993. – 364 b, Qurunov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat, 2007. – 240 b. Olimov Sh.Sh. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti. – Ped.fan.dok. dis. – Buxoro: 2012. – 286 b.

bo'yicha tasniflash mustaqillik davridagi pedagogik tadqiqotlarning yetakchi xususiyatidir. Jumladan, Sh. Sh. Olimov tomonidan kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, shakl va metodlarini nazariy jihatdan takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan yangi tadqiqotda [11] muallifning kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda imkoniyati yuqori bo'lgan fanlarga e'tibor qaratish, har bir fan mazmuni va malaka talablariga asoslangan tarbiya usullarini tanlash, dars mashg'ulotlarida noan'anaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, darsdan tashqari ishlarda Tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalari ilmiy-metodik jihatdan ilm-fanning so'nggi yutuqlari asosida yoritilganligi bilan ajralib turadi.

Z. Ismoilovning ma'naviy-ma'rifiy ishlarida talaba-yoshlar shaxsini axloqiy tarbiyalash masalasi ga doir ilmiy ishida [9] Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi asosiy g'oyalar talaba shaxsini axloqiy shakllantirish mezoni sifatida belgilangan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asosiy xususiyatlari bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalari muqaddasligi, ota-ona, mahalla-ko'y, umuman, jamiyatga yuqori hurmat-e'tibor, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik kabi talaba-yoshlar shaxsini axloqiy shakllantirishning asosiy omillari ekanligi e'tirof etilgan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talaba-yoshlar shaxsini axloqiy shakllantirish modeli ishlab chiqilganligini mazkur dissertatsiyaning muhim jihatlaridan biri deyish mumkin.

Yosh avlod tarbiyasi, avvalo, pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq. Shu o'rinda yurt kelajagi va istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqligini qayd etish mumkin. O'qituvchi kasbiy axloq va adab normalarini mukammal egallasa, o'z kasbining fidoyisi bo'la oladi. Bugungi kunda ana shunday fidoyilik har qachongidan ham muhim ekanligi ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini yana-da oshiradi.

Talabalarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish alohida ob'ekt sifatida o'rganilgan N.M. Ochilovning dissertatsion ishida muammoning nazariy asoslari va xususiyatlari tahlil qilingan hamda bu borada qo'llangan samarali yondashuvlar taqdim etilgan. Tadqiqotda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, ishda talabalarining axloqiy tarbiyalanganligi joriy holati, pedagogik faoliyat uchun zarur axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishi masalalari o'rganilgan bo'lib, «O'qituvchi odobi» nomli maxsus kurs tashkil etib, unda «Jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati», «O'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati», «Vatanga munosabat», «O'z-o'ziga munosabat», «Mehnatga munosabat», «Insonlarga munosabat» mavzulari doirasida pedagog odobi xususiyatlari, munosabatlarda kasb odobi fazilatlarining aks etishi va uning o'ziga xosligi mavzusida ma'ruzalar tashkil etish g'oyasi ilgari surilgan.

Bu borada Z.Q. Ismoilovning «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy eksperimental metodik asoslariga doir ilmiy tadqiqot ishi alohida o'rin tutadi. Muallif tomonidan barkamol shaxsni tarbiyalash metodlarining xususiy axloqni tarbiyalash metodlari; jamoatchilik orqali xulq-atvorni shakllantirish metodlari; ijtimoiy ong va axloqni shakllantirish metodlari; o'z-o'zini boshqarish va tarbiyalash metodlari; rag'batlantirish

metodlariga bo‘linishi tarbiya metodikasining tub mohiyatini tashkil etish orqali talabalarining ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini alohida qayd qilish mumkin. [9; 31-b.].

O‘zaro fikr almashish. Tahlillar asosida talabalarini ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy bilimlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ma’naviy faoliyat kabi komponentlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi.<sup>6</sup>

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi sifatida ma’naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida talabalarda baxt, vijdon, burch, adolat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, shon-sharaf, e’tiqod, sadoqat kabi bir qancha axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma’naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtirgan talabada tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlarga ega talaba axloqiy me’yorlar talabalarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma’naviy meros, urf-odat va an’analarga nisbatan hurmatda bo‘ladi. Ammo ma’naviy-axloqiy me’yorlar haqida bilimga ega bo‘lish, uni tushunish, ezgu fazilatlarni tarkib toptirish hali talabaning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganini anglatmaydi. Insoniylik fazilatlari qachonki hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo‘lsa, bu uning tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma’naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e’tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur. Negaki ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma’naviyati ildizlariga e’tibor qaratish taqozo qilinadi. Turonzaminda azal-azaldan inson ma’naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar tarbiyasi ajdodlarimiz diqqat markazida bo‘lib kelganligini yoshlarning chuqur tasavvur qilishlariga erishish zarur.

Ta’lim metodlaridan foydalanish. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlillariga tayangan holda pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish bosqichlarini quyidagi ko‘rinishda izohlash lozim topildi rasmga qarang.

Yoshlarda ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish o‘ziga xos bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda, avvalo, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini to‘g‘ri qo‘ya bilish, ish mazmunini aniqlash, maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni tashkil etish zarur<sup>7</sup>.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi quyidagicha belgilandi: oliy ta’lim

6 Karabaevna, I. Z., Riskulova, K., Ubaydullaevich, A. M., Turaevna, I. Y., & Ravshanovna, P. N. (2020). The role of electronic pedagogical tools in higher education. *Journal of Critical Reviews. Innovare Academics Scienc* 9.


Ismoilova Z.Q. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). – Ped.fan.dok. ...dis. avtoref. – T.: O‘zPFITI, 2006. – 46 b. E. Pvt. Ltd. <https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.80>

Karabaevna, Z., & Raximovich, B. (2019). The use of innovation technologies in the formation of students’ professional competences. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 6898–6902. <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2996.109119>

7 Ismailova Z. va boshqalar. Pedagogika. –T.Chinor fayzi baland. 2021 y. -334 bet

Ismailova, Z., & Ergashev, B. (2019). New information and communication technologies in education system. In *E3S Web of Conferences (Vol.135).EDP Sciences*. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913504077>

Azimova N.E. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi (Pedagogik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitish misolida). Ped.fan.fal. dok. (PhD). ... dis. – T.: 2012. – 178 b.



muassasalarida izchillik asosida olib boriladigan ta'lim-tarbiya natijasida ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan kasbiy kompetentli mutaxassis tayyorlash.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

- 1) uzluksiz ta'lim-tarbiyaning har bir bo'g'inida ma'naviy-axloqiy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlab topish;
- 2) ta'lim-tarbiya jarayonida turli ta'sir vositalari orqali yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash;
- 3) ma'naviy-axloqiy tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan metod va vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- 4) yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so'rovlarini o'tkazib, natijalarini qayd etib borish;
- 5) ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, kompetentli ijtimoiy faol mutaxassis tayyorlashga erishish.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni, yoshlarda tashabbuskorlikni, faollikni tashkil etish uchun oliy ta'lim muassasalarida "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanini o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyalarini hamda hamkorlik ta'limini amalga oshirish muhim sanaladi. Mazkur ta'lim-tarbiya texnologiyalari orqali talaba shaxsini ijtimoiylashtirishga erishish imkoniyati yaratiladi.

### XULOSA

Demak, yoshlarda aynan ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy kategoriyalar, normalar, qadriyatlar tizimi haqida bilim hosil qilish hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko'nikmalari takomillashtirilishi muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanida ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari (suhbat, bahs-munozara, muammoli ta'lim)dan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy sifatlarning rivojlanganligini baholash namunali, yaxshi, qoniqarli mezonlar orqali aniqlab boriladi, past ko'rsatkich aniqlansa, korreksiyalash ishlari amalga oshiriladi, buning uchun talaba bilan individual-psixologik ishlar olib boriladi hamda natijaga erishish uchun harakat qilinadi.

Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning mantiqiy-tuzilmaviy modelini yaratishga imkon beradi. Bunday zamonaviy ta'lim modeli talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma'naviy-axloqiy kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Chunki, talaba-yoshlarda zarur

kompetensiyalarni shakllantirish uchun, avvalo, pedagogning o‘zida komponentlilik rivojlangan bo‘lishi lozim.

“Tayanch kompetensiyalar – inson kim va qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, shaxs hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun egallashi lozim bo‘lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy ko‘nikma va malakalar majmuidan iborat. Bunda har bir shaxs kommunikativ bo‘lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo‘lishi, umummadaniy xislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lishi nazarda tutiladi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – T.: O‘zbekiston. HMNY, 2017. 592 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. - 48 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O‘zbekiston. HMNY. 2016. - 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga quramiz. - Toshkent.: O‘zbekiston. 2017. - 488 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907 qarori.
6. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta‘lim muassasalari talabalarini ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi // Ta‘lim, fan va innovatsiya. 2019, №1. B. 77-81.
7. Azarov Yu.P. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 67 b.
8. Azimova N.E.Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisini ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi (Pedagogik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitish misolida). Ped.fan.fal. dok. (PhD). ... dis. – T.: 2012. – 178 b.
9. Ismoilova Z.Q. Ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). – Ped.fan.dok. ... dis. avtoref. – T.: O‘zPFITI, 2006. – 46 b.
10. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma‘naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 1993. – 364 b.
11. Olimov Sh.Sh. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti. – Ped.fan.dok. dis. – Buxoro: 2012. – 286 b.
12. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma‘naviyat, 2007. – 240 b.
13. Karabaevna, I. Z., Riskulova, K., Ubaydullaevich, A. M., Turaevna, I. Y., & Ravshanovna, P. N. (2020). The role of electronic pedagogical tools in higher education. Journal of Critical Reviews. Innovare Academics Sciences Pvt. Ltd. <https://doi.org/10.31838/jcr.07.05.80>
14. Ismailova, Z., & Ergashev, B. (2019). New information and communication technologies in education system. In E3S Web of Conferences (Vol.135).EDP

Sciences. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913504077>

15. Karabaevna, Z., & Raximovich, B. (2019). The use of innovation technologies in the formation of students' professional competences. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 6898–6902. <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2996.109119>

16. Karabaevna, Z., Musurmanova, A., & Xamroevich, R. (2019). Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 9(1), 6903–6906. <https://doi.org/10.35940/ijeat.A2997.109119>

17. Ismailova Z. va boshqalar. *Pedagogika*. –T.Chinor fayzi baland. 2021 y. -334 bet

## XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH MASALASI

**Musurmanova Aynisa** - Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy tadqiqot instituti direktor o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abduraximova Farida Yuldashevna** - "Oila va gender" ilmiy tadqiqot instituti oilaviy qadriyatlar va oila psixologiyasi bo'limi boshlig'i, p.f.n, dotsent

***Annotatsiya.** Maqolada XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar tizimida erkak va ayollar mavqeyiga nisbatan o'ziga xos, an'anani rad etadigan nazariy yondashuvlar paydo bo'la boshladi. Endilikda amaliyotda namoyon bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar tufayli "siyosat – erkaklarga, oila va farzandlar esa – ayollar uchun" kabi stereotiplar dolzarbligini yo'qotib borayotganligi, insoniyat oldida turgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy masalalar, tinchlik, barqarorlik, xavfsizlikni ta'minlash muammolari hammaga teng taalluqli va bu masalada ayollar erkaklar singari birdek daxldor ekanligi jahon maydonida tan olinganlik masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga bugungi kunda gender tengligi masalasi barqaror rivojlanishning ajralmas qismi deb hisoblanib kelinayotganligi kabi masalalarga xos fikrlar keltirib o'tilgan bo'lib, gender tenglikni ta'minlash borasida tadqiqotlar olib borish, erkak va ayollarning ijtimoiy va siyosiy sohada huquqlarini tenglashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etishi bu sohadagi faoliyatni rivojlantirish tuzilmasida keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** gender tenglik, xotin-qizlar, ayollar va erkaklar, stereotiplar, ijtimoiy va siyosiy soha, huquq, tinchlik, barqarorlik, xavfsizlik xalqaro, munosabat.*

***Аннотация.** Во второй половине XX-начале XXI веков в статье стали появляться теоретические подходы к статусу мужчины и женщины в системе международных отношений, которые отвергали традицию. Дело в том, что стереотипы типа «политика – для мужчин, а семья и дети – для женщин» теряют актуальность в связи с социальными изменениями, которые сейчас проявляются на практике, экономические, политические, социальные вопросы, стоящие перед человечеством, проблемы обеспечения мира, стабильности и безопасности равны для всех, а также то, что женщины в равной степени затронуты, как и мужчины, в этом вопросе, вопросы признания прав человека. В то же время сегодня обсуждаются такие взгляды на такие вопросы, как то, что вопрос гендерного равенства рассматривается как неотъемлемая часть устойчивого развития, и особое значение имеют исследования по обеспечению гендерного равенства, разработка научно обоснованных предложений и рекомендаций, направленных на уравнивание социальных и политических прав мужчин и женщин.*

***Ключевые слова:** gender equality, women, women and men, stereotypes, socio-political sphere, law, peace, stability, international security, attitude.*

***Abstract.** In the second half of the XX-early XXI centuries, theoretical approaches to the status of men and women in the system of international relations began to appear in the article, which rejected tradition. The fact that stereotypes of the «policy for men, and family and children – for women» lose their relevance in connection with the social changes that are manifested in practice, economic, political, social issues facing humanity, problems of ensuring peace, stability and equal security for all and that women are equally affected as men, in this matter, the*

*recognition of human rights. At the same time, views on issues such as the fact that gender equality is considered an integral part of sustainable development are being discussed today, and research on gender equality, the development of evidence-based proposals and recommendations aimed at equalizing the social and political rights of men and women are of particular importance.*

**Key words:** *reading, professional education, activity, mobility, academic mobility, logical structure, educational process, system, logical structure, transparency, professional mobility.*

XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida xalqaro munosabatlar tizimida erkak va ayollar mavqeyiga nisbatan o'ziga xos, an'anani rad etadigan nazariy yondashuvlar paydo bo'la boshladi. Endilikda amaliyotda namoyon bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar tufayli "siyosat – erkaklarga, oila va farzandlar esa – ayollar uchun" kabi stereotiplar dolzarbligini yo'qotib bormoqda. Insoniyat oldida turgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy masalalar, tinchlik, barqarorlik, xavfsizlikni ta'minlash muammolari hammaga teng taalluqli. Bu masalada ayollar erkaklar singari birdek daxldor ekanligi jahon maydonida tan olindi. Bugungi kunda gender tengligi masalasi barqaror rivojlanishning ajralmas qismi deb hisoblanmoqda. Tabiiyki, BMTning 2030 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibida gender tengligi masalasi 5-maqсад doirasida aks ettirilgan va unda «Gender tengligi nafaqat insonning asosiy huquqi, balki tinch va barqaror hayotning ham zarur shartidir» deb ta'kidlangan.

Dunyoda gender muvozanati masalasi barqaror ijtimoiy rivojlanishning muhim sharti deb tan olinishi o'z navbatida mazkur mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor amalga oshirilishini talab etmoqda. Bu borada xalqaro munosabatlar tizimida gender tengligini hamda uni jamiyat va davlat hayotining barcha sohalariga integratsiyalashuvini ta'minlash, gender masalalariga oid xalqaro institutlar tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ko'plab xalqaro hujjatlarga qo'shib, xalqaro huquq ustunligini e'tirof etgan holda, gender tengligi masalasiga doir davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati teng huquqlilik va erkinlik tamoyillarini amalga oshirishga, Konstitutsiya va unga tayangan normativ-huquqiy asosga muvofiq ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan.

“Xalq roziligi avvalo, muhtarama onalar, xotin-qizlarning roziligi bilan bog'liqligi, ularning sog'-salomat bo'lib, baxtli yashashini ta'minlash barcha islohotlarning asosiy maqsadi va mezon...”<sup>8</sup>

Shu nuqtai nazardan, gender tenglikni ta'minlash borasida tadqiqotlar olib borish, erkak va ayollarning ijtimoiy va siyosiy sohada huquqlarini tenglashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF 4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», 2018 yil 2 fevraldagi PF-5325-son «Xotin - qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2018 yil 29 maydagi PQ-3751 sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy

8 2019 yil 7 martdagi PQ-4235-son «Xotin- 1 Shavkat Mirziyoev xotin-qizlarni bayram bilan tabrikladi// <https://www.gazeta.uz/uz/2019/03/07/prezident-tabrik/> 7 mart 2019, 19:09



muhitni sogʻlomlashtirish, mahalla institutini yanada qoʻllab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni hamda “Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida” 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son qarori, Prezidentimizning 2020yil 12 iyundagi “2020/2021 oʻquv yilida Oʻzbekiston Respublikasining oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan, joriy oʻquv yilidan boshlab Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi tomonidan beriladigan tavsiyanomaga ega boʻlgan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi taʼlim shakli boʻyicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul koʻrsatkichlariga nisbatan qoʻshimcha toʻrt foizli davlat granti ajratilishi, 2019 yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4235-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 martdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida” 192-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 iyundagi “Oliy taʼlim muassasalariga qoʻshimcha davlat granti asosidagi qabul koʻrsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni oʻqishga qabul qilishni tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 402-sonli qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2020 yil 4 yanvardagi 4-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 noyabrdagi “Xotin-qizlarni ish bilan taʼminlash, ular oʻrtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 919-son qarori, 1 oktyabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi qarorgohida Xotin-qizlar ahvoli boʻyicha IV Butunjahon anjumanining 25 yilligiga bagʻishlangan yuqori darajadagi uchrashuvni tashkil etilganligi, Oʻzbekiston Respublikasi Gender tenglikni taʼminlash maqsadidagi 2019 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlis Senatida Oʻzbekiston Respublikasi Gender tenglikni taʼminlash masalalari boʻyicha komissiyasining majlis bayonni. hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish masalalari bevosita ayollarning manfaatiga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Xorijiy mualliflarning ushbu mavzu boʻyicha ishlarini bir necha guruhlariga boʻlish mumkin. Birinchi guruh – Z. Ayzenshteyn, S. Bovuar, V. Brayson, R.Xof, B. Xuks, C. Uest, D. Simmermann kabi bir guruh olimlar ishlarida gender tadqiqotlarining nazariy va uslubiy asoslari oʻz aksini topgan<sup>9</sup>. Demokratik mamlakatlarning pozitiv diskriminasiya<sup>10</sup> strategiyalari hamda ularning ayollar siyosiy vakilligiga taʼsiri

9 Eisentstein Z. Feminism and sexual equality. – New York: Monthly review press, 1984; Брайсон В. Политическая теория феминизма / Пер. с англ. – М., 2001; Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований // Пол, гендер, культура / Под ред. Э. Шойе и К. Хайдер. – М.: РГГУ, 1999; Hooks В. Feminist theory: from margin to center. – Boston: South end press, 1984; Уэст К.,Циммерман Д. Создание гендера: Пер. сангл. Е. Здравомысловой // Гендерные тетради: Труды Санкт-Петербургского филиала Института социологии РАН. Вып. 1. – СПб., 1997. – С. 94-120.

10 Позитив дискриминация -(ингл. affirmative action) – aholining turli guruhlari vakillarini lavozimi, maʼlumot darajasi, daromadi boʻyicha statistik jihatdan tenglashtirish uchun qoʻllaniladigan muayyan guruhga ustunlik yoki imtiyozlar berish choralaridir.... // Qarang: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Позитивная дискриминация](https://ru.wikipedia.org/wiki/Позитивная_дискриминация)

P.Norris va J. Lovenduski<sup>11</sup> tomonidan tahlil etilgan. R. Moser tomonida esa saylov tizimlarining ayollar vakilligiga ta'siri o'rganilgan<sup>12</sup>. Siyosiy tenglikni milliy darajada ilgari surishning ilg'or modeli sifatida Skandinaviya mamlakatlarining tajribasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot natijalari Yanneke van der Ros, F.Gardiner va S.Salmenieme kabi tadqiqotchilarning ishlarida o'z aksini topgan

Tadqiqotchilar ayollar siyosiy faolligi darajasi pastligining turli sabablarini ko'rib chiqqanlar. Masalan, buning eng ko'p tarqalgan sabablardan biri – siyosiy ijtimoiylashuv erkaklar va ayollarni turli vazifalarga, siyosatga va umuman aktiv faoliyatga turlicha munosabatda bo'lishga yo'naltirishi. Siyosat ayollarning hayotiy kuchlarini sarflash uchun noqulay soha hisoblanadi. Siyosatda ishtirok etishning tarkibiy omillari, ya'ni jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liq omillari ajratib ko'rsatiladi. Ular orasida erkak va ayollar siyosatda foydalanishi mumkin bo'lgan resurslarning notekis taqsimlanishi ajratib ko'rsatiladi. Gender siyosati tufayli belgilangan ta'lim, daromad darajasi, ish tajribasidagi tengsizlik siyosatga kadrlar olinadigan jamiyat qatlamlarida ayollarning kam bo'lishiga olib keladi, shu bois ularning siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari ancha kam.

Ayollar siyosatga ko'pincha ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidan keladilar, shu bois ular erkaklarga qaraganda kamroq siyosiy tajribaga ega bo'ladilar. Biroq, so'nggi yillarda vaziyat o'zgarimoqda, boy siyosiy tajribaga ega huquqshunos va tadbirkor ayollar ko'payib bormoqda. Shuningdek, vaziyat va tarjimai holga oid omillar ko'rib chiqilgan. Ular hozirgi jamiyatda ayollar hayotiy yo'lining xususiyatlari bilan bog'liq. Ayollarning aksariyati hamon uy xo'jaligining yuritilishi va bolalar tarbiyasi uchun mas'uldirlar, shu bois ular siyosiy faoliyat uchun yetarli vaqt yoki quvvatga ega emaslar. Ayollar siyosatga odatda erkaklarga qaraganda kattaroq yoshda kirib kelishlari, «ayollardan iborat siyosiy elita» orasida esa yolg'iz, ajrashgan, beva yoki farzandsiz odamlar uchrashi bejiz emas.

Gender tengligi prinsipini dunyo davlatlari siyosiy institutlarida amalga oshirish tajribasini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu bobda davlat organlari tizimini shakllantirishda va siyosiy partiyalar faoliyatida gender tengligi prinsipining amalga oshirilishi bo'yicha jahon tajribasi o'rganilib, dunyoda mavjud kvotalar turlari, shuningdek ma'lum kvotalardan samarali foydalanish amaliyoti ko'rib chiqilgan. Unda ta'kidlanishicha, hozirgi kunda ijro hokimiyati organlarida ikkala jinsning teng vakilligi sohasida dunyo mamlakatlari orasida katta farq mavjud.

Har bir mintaqada aniq vaziyat har xil asoslantirilishi mumkin. Masalan, Shimoliy Yevropa davlatlari hukumatlari tarkibida eng ko'p ayollar borligi kuzatiladi. Bu hol, avvalo, bu mamlakatlarda ayollarning o'zlari nihoyatda faol ekanligi bilan bog'liq. Shu bois ayollarni hokimiyatning turli darajalarida qo'llab-quvvatlash choralari joriy etilgan. Masalan, parlament saylovlarida ijobiy diskriminatsiyaning joriy etilishi unga, binobarin mamlakat hukumatiga ham ko'plab ayollarning nomzodlari ko'rsatilishiga imkon yaratdi. Rossiyada, tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, ayollarning siyosiy lavozimlarga tayinlanishi yo'lidagi to'siq oliy darajadagi lavozimlarga tayinlanishlarning ko'pchiligi oliy rahbariyatga bog'liqligidir, ya'ni lavozimga tayinlash vaqtida erkaklarga ustunlik beriladi.

11 Norris P., Lovenduski, J. *Gender and Party Politics*. – London: Sage, 1993; Norris P. *Passages to power. Legislative recruitment in advanced democracies* / Ed. by Norris P. – Cambridge University Press, 1997. – P. 1-14.  
12 Moser R. *The Effects of Electoral Systems on Women's Representation in Post-Communist States* // *Electoral Studies*. – 2001. – № 3. – Vol. 20. – P. 353-369

12 Moser R. *The Effects of Electoral Systems on Women's Representation in Post-Communist States* // *Electoral Studies*. – 2001. – № 3. – Vol. 20. – P. 353-369.

O‘zbekiston xotin-qizlari mamlakatimiz aholisining 51 foizidan ziyodini tashkil etgani holda ularning yuqori parlament faoliyatida 25% senatorlar, 32% deputat ayollar va 25% mahalliy Kengashlarda deputat, 16 nafari Ichki ishlar vazirligi sohasida, 76 nafar ayol viloyat hokimiyatida vaholanki boshqa sohalarda 1500 dan ortiq ayollar rahbarlik lavozimlarida ishtirok etib kelmoqda. Bu esa hali umumiy foizda talabga javob berishini ayta olmaymiz. Shu bois ham ijtimoiy-siyosiy hayotda ayollarning keng ishtirok etishlarini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol kuch sifatida kirib borishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va olingan natijalarni amaliyotda qo‘llash yo‘llarini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda kun tartibiga qo‘yayotgan mazkur bir qancha davlat siyosati darajasidagi talab xotin-qizlarga ham bevosita taalluqlidir. «Bugun ma’rifiy dunyoda, – deb ta’kidlaydi Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, – xotin-qizlar manfaati degan alohida masala bor va uni o‘rganish, yechimini topishga juda katta ahamiyat berilishi bejiz emas. Agar ayollarga yetarli e’tibor berilmasa, bunday jamiyatning kelajagi bo‘lmasligi haqida, o‘ylaymanki, uzoq gapirib o‘tirishning hojati yo‘q»<sup>13</sup>

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan bir qancha Qarorlar, farmonlar, farmoyishlar «ayollar» masalasini yangicha, milliy demokratik taraqqiyot nuqtai nazaridan hal etishga undaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuvning asoslarini davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlari tashkil etadi:

Birinchisi. «...Jamiyatning demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan nechog‘li ilgari ketgani, shu jamiyatning ayollarga bo‘lgan munosabati uning madaniy-ma’naviy saviyasini belgilaydi».

Ikkinchisi. «...Muhtarama onalarimiz, opa-singillarimiz, ayollarimiz, qizlarimizning jamiyatdagi maqomini va mavqeyini ko‘tarish, hurmatini joyiga qo‘yish, manfaatini himoyalash, ularning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlatimiz, jamiyatimizning ustuvor yo‘nalishi va bosh maqsadiga aylanishi lozim».

Uchinchisi. «...Onalarimiz, opa-singillarimiz, umr yo‘ldoshlarimiz, qizlarimizning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini yanada oshirish, izzat-ikromini joyiga qo‘yish, ularning og‘irini yengil qilish – davlatimizning, hukumatimizning, joylardagi hokimliklarning, keng jamoatchilikning asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozim»

Ushbu fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlar patriarxat, matriarxat, diniy yoki kommunistik yondashuvlar emas, balki «ayol – ulug‘ zot» qoidasi asosida quriladi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarning «subyekt–obyekt» emas, «subyekt–subyekt» shaklida tashkil etilishini anglatadi. Tarixiy taraqqiyotdan ma’lumki, ijtimoiy munosabatlarda hamisha «subyekt–obyekt» qoidasiga ustuvorlik berib kelindi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Выступление посвященное 24 летию принятия Конституции Республики Узбекистан: “Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа”. С решимостью продолжая наш путь национального развития поднимем на новый этап.-Ташкент:”Узбекистан” НМИУ, 2017, (с.111.)

13 Mirziyoyev Sh. M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // Xalq so‘zi. — T., 2017 yil. 16 iyun

2. Указ Президента Республики Узбекистан ПФ-4947 “О стратегии действий по дальнейшему развитию республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года. (приложение 1. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 — 2021 годах).
3. Проблемы повышения политической активности женщин в гендерном разрезе. Hozirgi zamon siyosiy jarayonlarida inson omili: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – Тошкент, ТДШИ, 2008. – Б.160-16
4. Xalqaro munosabatlar tizimidagi fanlarda feministik nazariyalarning o‘rni. Либерал феминизм. Ижтимоий фанларнинг долзарб муаммолари. Илмий-услугий конференция материаллари тўплами. - Тошкент, ТДШИ, 2010. – Б.94-96.
5. Современные гендерные исследования: Центральноазиатский аспект. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – jamiyatning barqaror rivojlanish kafolati: siyosiy, huquqiy va tashkiliy jihatlari. Ilmiyamaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Тошкент, ТДШИ, 2010. – Б.217-219.
6. Женщины в Республике Узбекистан. Malaka oshirish tizimida tarixiy xotira va pedagogik psixologik asoslar. 2-qism. (O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligi va konstitusiyaning 18 yilligiga bag‘ishlanadi). Тошкент, ОПИ, 2010. – Б. 22-24.
7. Xalkaro munosabatlar tizimida gender tenglik omili. Yosh olimlar anjumani ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent, ТДШИ, 2012. – Б. 111-113
8. Xorijiy davlatlarning parlamentlarida gender tenglikni amalga oshirish. XXI asrda jahon siyosatida arxitektonik o‘zgarishlar: Realpolitik konsepsiyasi va O‘zbekiston amaliyoti. Ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. Toshkent, ТДШИ, 2014. – С.311-317.
9. Ниязова Н.М. Исторический генезис и современное развитие гендерного равенства в международных отношениях. Монография. – “Sharq” нашриёти; ТошДШИ, 2018. 186

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ETNOMADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Mustafayeva Durdona Asilovna

TIQXMMI MTU dotsenti, pedagogika fanlari doktori

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘qituvchilarning o‘z kasbiga xos olib borayotgan faoliyati va shaxsiy namunasi, shuningdek talabalar o‘rtasida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning muhim jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish bevosita talabalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy istaklari va intilishlariga, talabalarning etnik qiziqishlari va moyilligini hisobga olish zarurligiga asoslanishi, shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning muvaffaqiyatli faoliyatini ta‘minlash, talabalarni muvaffaqiyatga erishish uchun mas‘ul bo‘lishga o‘rgatish zarurligi haqida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** etnik tiklanish, kompetensiya, kasbiy va pedagogik kompetensiya, etnomadaniy modernizatsiya, etnik qiziqishlar, istak va intilish, etnomadaniy bilim, bag‘rikenglik, muloqot qilish, kasbiy kompetensiya.

**Аннотация.** Данная статья посвящена деятельности преподавателей и их личному примеру, а также важным аспектам формирования этнокультурной компетентности у учащихся, при которых формирование этнокультурной компетентности напрямую зависит от индивидуальных особенностей, интересов, личных желаний и стремлений. студентов, необходимость учитывать этнические интересы и склонности студентов, а также обеспечить успешную карьеру будущих учителей, помочь студентам добиться успеха информация о необходимости учить быть ответственным.

**Ключевые слова:** этническое возрождение, компетентность, профессионально-педагогическая компетентность, этнокультурная модернизация, этнические интересы, желания и стремления, этнокультурные знания, толерантность, коммуникация, профессиональная компетентность.

**Abstract.** This article is devoted to the activities and personal example of teachers specific to their profession, as well as important aspects of the formation of ethnocultural competence among students, in which the formation of ethnocultural competence is directly based on the individual characteristics, interests, personal desires and aspirations of students, the need to take into account the ethnic interests and inclinations of students, as well as the

**Keywords:** ethnic revival, competence, professional and pedagogical competence, ethnomadanic modernization, ethnic interests, desire and aspiration, ethnomadanic knowledge, tolerance, communication, professional competence.

### KIRISH

Bugungi kundata‘lim sifatini jahon standartlariga moslashtirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Shu sababli, ta‘lim muassasalari uchun yuqori intellektual salohiyatga ega o‘qituvchilarni tayyorlash va etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta‘lim tizimi jahon standarti darajasida yangi mazmun va yo‘nalishda takomillashtirilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning malakasi va pedagogik mahoratini shakllantirishning mazmuni va texnologiyalari mamlakatimizning yetuk olimlari tomonidan sinchkovlik bilan tahlil qilindi.

So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish ishlari keskin

oshib bormoqda. Mana shunday masalalarga oid ishlar borasida S. Turg'unov, B. Doniyorov, N. Turdiyev, Yu. Asadov, Sh. Shodmonova, A. Xoliqov, M.T.Mirsoliyeva, N. Nuriddinova, M.Umaraliyeva, etnomadaniyat va uning mohiyati, A. Ashirova [1-130 b.], N. Jo'rayeva [2-64 b.] ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar kelajakda o'z kasbiy faoliyatini o'rganayotgan o'qituvchilarning kasbiy va etnomadaniy kompetensiyasini shakllantirishning quyidagi jihatlarini qamrab oladi:

- o'qituvchining pedagogik izlanishlari va uni tashkil etish;
- kasbiy pedagogik mahorat turlari, didaktik tadqiqotlar metodikasi;
- tizimli diagnostikani amalga oshirish;
- ta'lim muassasalarida ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va uning mazmuni;
- o'qish davomida talabalarning pedagogik qobiliyatlarini namoyon etishga to'g'ri yondashuvni aniqlash;
- o'qituvchining didaktik jarayonning yaratuvchisi va moderatori sifatidagi faoliyati;

- qo'shma ijodkorlik;
- innovatsion pedagogik faoliyatning nazariy asoslari.

O'qituvchilarga qo'yiladigan ijtimoiy talablarga to'liq javob beradigan ta'lim muhitini yaratish zarurligi, kelajakdagi bo'lajak o'qituvchilarning etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish uchun uzluksiz mustaqil ta'lim olishlari, shuningdek kelajakda o'qitish jarayonida uzluksiz kasbiy ta'lim olishlariga imkoniyat eshigini ochishdan iboratdir.

Ushbu talablarning asosiy xususiyatlari:

- ta'limning turli shakllari va vositalaridan foydalanish;
- o'quv faoliyatiga tayyorgarlik;
- ilmiy dasturlarni tahlil qilish, umumiy kasbiy tayyorgarlik faoliyatini tashkil etish;
- ilmiy dasturlarni takomillashtirish va ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilgan ta'lim tamoyiliga asoslanish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalarining shakli va mazmunini ishlab chiqish;
- raqobatbardosh mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori darajadagi mutaxassislarni tayyorlash;
- vaqt talablari darajasida tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish;
- boshlang'ich ta'lim uchun mos bo'lgan zamonaviy axborot tarmog'iga asoslangan yagona tizimni yaratish;
- etnik-madaniy kompetensiya bilan bog'liq to'plangan tajriba va natijalarni saralash;
- talabalar tomonidan olingan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini tahlil qilishdan iborat.

Etnomadaniy kompetensiya har bir insonning fazilatlaridan biri bo'lib, bu ayniqsa yosh avlodni tarbiyalayotgan o'qituvchilar uchun muhimdir. Chunki tez o'zgaruvchan ko'p millatli mamlakatimizda va butun dunyoda muhojirlarning etnik tiklanishi va kengayishi tendensiyasi barcha turdagi, shu jumladan oliy ta'limning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi malakali kadrlar tayyorlash bilan birga etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishdir. Oliy ta'lim jarayoni talabalar o'rtasida etnik madaniyatni shakllantirish mexanizmi sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, millatlararo munosabatlarni rivojlantirish vositasi sifatida ham qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonda rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmonida «jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, milliy madaniyat markazlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini izchil amalga oshirishni ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi millatlararo munosabatlar sohasida, turli millat yoshlari uchun qo‘shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish ularning ustuvor yo‘nalishlari fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik va bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo hamkorlik madaniyatini oshirish, xorijiy davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirish maqsadida do‘stlik jamiyatlarini rivojlantirishdir» deb alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuning uchun yuqoridagi masalalarni mamlakatimiz ta‘lim tizimining maqsadi, mazmuni va mohiyatiga kiritish zarur. Ilmiy manbalar va adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, etnomadaniyat va etnokompetensiya tushunchasining mohiyati yetarlicha o‘rganilmagan. Biroq, «kompetensiya» tushunchasi ko‘pincha ta‘lim amaliyotida qo‘llaniladi.

Bu ta‘lim mazmunini isloh qilish zarurati bilan uzviy bog‘liqdir. Inglizcha «kompetensiya» atamasi so‘zma-so‘z «qobiliyat» degan ma‘noni anglatadi. Tarkibi esa «faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, ko‘nikma va iste‘dodni namoyish etish qobiliyatidan iborat»dir.

Rus olimlari A.K.Markova [3-192 b.], N.V.Rudneva [4-20 b.] fikrlariga ko‘ra - kasbiy kompetensiya ta‘limga qaratilgan ilmiy kategoriya sifatida belgilandi va maxsus fan sifatida qo‘llanila boshlandi. «Kompetensiya» tushunchasi psixologik tadqiqotlar natijasida ta‘lim sohasiga kirdi. Shuning uchun kompetensiya deganda mutaxassisning nostandart vaziyatlarda, kutilmagan vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi, muloqot qilishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarning yangi yo‘lidan borishi, noaniq vazifalarni bajarishi, nizolarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishi, izchil rivojlanayotgan va murakkab jarayonlarda harakat rejasi tushuniladi.

Shuningdek, «kompetensiya» tushunchasi nazariy bilimlardan faoliyatda samarali foydalanish, yuqori kasbiy mahorat, ko‘nikma va iste‘dodning namoyon bo‘lishi sifatida talqin yetiladi.

Kompetensiya-bu shaxsning tanlagan kasbi bo‘yicha olgan bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va malakalarini qo‘llash qobiliyati, kasbiy mustaqil ravishda hal qilish qobiliyati sifatida belgilangan [5-248c].

Olimning fikricha, kompetensiyani kasbiy burch yoki mutaxassisning huquqlari deb atash mumkin. Pedagogika sohasida chuqur va har tomonlama bilimga ega bo‘lgan inson chuqur va ishonchli hisoblangan insoniy fazilatdir. Kompetensiya va kompetensiya tushunchalari bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalariga qaraganda kengroq ma‘noga ega. Chunki bu insonning yo‘nalishi (motivatsiya, qadriyatlar yo‘nalishi), uning stereotiplarni yengish, muammolarni his qilish, kuzatuvchan bo‘lish, fikrlash qobiliyati; xarakter, mustaqillik, maqsadlilik, kuchli irodali fazilatlarni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda «kompetensiya» tushunchasi va pedagogik faoliyatni rivojlantirish muammolari, uning vakolatlari mazmunini aniqlashtirish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar o‘tkazildi. Bu ularning tasnifi muammosini keltirib chiqaradi.

Zero, yuqorida aytib o‘tilgan vakolat sohalari umuminsoniy kompetensiyaning tarkibiy qismidir. O‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish talabalarning o‘rganish zarurati va istagini rivojlantirish uchun etnomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. L.V.Zanina, N.P. Menshikovaning so‘zlariga

ko‘ra,» kasbiy pedagogik kompetensiya-bu pedagogik faoliyat, pedagogik xulq-atvor va muayyan qadriyatlar, ideallar va pedagogik ong egasi sifatida o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni belgilaydigan bilim va ko‘nikmalar tizimiga ega bo‘lish « [6-288 b.;101].

Etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda media-muhit va innovatsion jarayonni yaratish o‘quv jarayonining asosiy talabidir.

M.A.Choshanov «kompetensiya» tushunchasini quyidagicha izohlaydi: «kompetensiya»-bu nafaqat bilimga ega bo‘lish, balki uni muntazam ravishda yangilash va muayyan sharoitlarda qo‘llash istagi, ya’ni tezkor bilim, noto‘g‘ri hukmlarni rad etish bilan birga eng maqbul va samarali yechimlarni tanlash qobiliyati. Moslashuvchanlik va ma’noni tanqidiy tushunish «[7-162 b.]. Darhaqiqat, o‘quv jarayonida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish orqali talabalar o‘rtasida milliy g‘urur va o‘z qadr-qimmatini shakllantirishga erishish mumkin.

Kasbiy kompetensiya-bu mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash va ularni yuqori darajada amaliy qo‘llash. Kompetensiya va kompetensiya tushunchalari bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalariga qaraganda kengroq ma’noga ega. Ular insonning yo‘naltirish motivatsiyasi, baholash yo‘nalishlari, stereotiplarni yengish qobiliyati, muammolarni idrok etish, kuzatish va fikrlash qobiliyatlarini qamrab oladi. L. V. Zanina, N. P. Menshikova «kompetensiya–bu muloqotni belgilaydigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish va o‘qituvchining shaxsiyatini ma’lum qadriyatlar, qarashlar va pedagogik ong egasi sifatida shakllantirish» degan fikrni ilgari suradi [9-101b.].

Talabalar o‘rtasida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish uchun e’tiborni milliy g‘urur va madaniyatni anglashga qaratish lozim. Natijada ularning millatga bo‘lgan sadoqati va muhabbati mustahkamlanadi. M. A. Choshanovning so‘zlariga ko‘ra, “kompetensiya nafaqat bilim olish, balki ularning doimiy yangilanishi, ularni pedagogik vaziyatlarda ishlatish istagi, eng maqbul, samarali yechimlarni tanlash, fikrning moslashuvchanligi va tanqidiyligidir” degan fikrni bildiradi [10-162 b.]. Ko‘p millatli jamiyatda talabalar ko‘pincha boshqa madaniy vaziyatga duch kelishadi, shuning uchun ular etnik o‘ziga xosligini saqlab qolish va atrof-muhitga moslashishi zarur.

Tadqiqotimizda biz talabalar o‘rtasida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda etnomadaniyat va millatlararo muloqotning ustuvorligini ko‘rib chiqdik. Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, kompetensiyani ma’lum bir sohaga oid bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar sifatida aniqlash mumkinligi, kompetensiya esa olingan bilimlarni faoliyatda qo‘llashdir degan xulosaga kelish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, etnomadaniy kompetensiya, boshqa kompetensiya turlari singari, umumiy madaniy kompetensiyaning tarkibiy qismidir.

Etnomadaniy kompetensiya - bu «umumiy madaniy kompetensiya» sifatida etnomadaniyat va millatlararo o‘zaro ta’sirga xos bo‘lgan boshlang‘ich savodxonlikda namoyon bo‘ladigan murakkab tushuncha. Ushbu konsepsiya integral jarayon bo‘lib, uni ta’lim psixologlarining fuqarolar va o‘qituvchilar sifatida kasbiy va shaxsiy fazilatlarini to‘plam deb atash ham mumkin.

Etnomadaniy kompetensiyaga etnomadaniy bilim, bag‘rikenglik, ya’ni turli millat vakillari bilan muloqot qilish, boshqa millat vakillarining urf-odatlarini va an’alariga qiziqish, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda ko‘p millatli jamiyatimiz siyosatini hisobga olish qobiliyati. va xalqaro munosabatlardagi turli vaziyatlarga yechim topish tushuniladi. Bo‘ljak o‘qituvchilar o‘rtasida



etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning tub mohiyati insoniy fazilatlar va shaxsiy fazilatlar, yuqori salohiyat, madaniyatga xos bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdan iborat.

Etnomadaniy kompetensiya - bu bo'lajak o'qituvchilarning yosh avlodga xalq madaniyati va tarixi bilan bog'liq tajribani o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Etnomadaniy kompetensiya pedagogik va psixologik ijtimoiy hodisa hisoblanadi, u xalq madaniyati va qadriyatlarini o'zlashtirish, nazariy va amaliy tayyorgarlik, etnopedagogika tamoyillarini bilish, milliy psixologik xususiyatlarni tushungan holda ta'lim tizimini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Etnik bilimlar xalqlar harakatida o'zaro hurmat va muvaffaqiyatga erishishning asosiy vositasidir. Bu, shuningdek, talabalarning o'z milliy madaniyati va qadriyatlarini chet el madaniyati bilan taqqoslash, umumiy madaniy jarayonlarda etnomadaniyatning ahamiyatini tushunish, etnomadaniy ongini shakllantirish, etnosentrizm va shovinizm g'oyalariga qarshi immunitet, o'zini hurmat qilish va vatanparvarlik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oliy ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish, samaradorlikni ta'minlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash, kasbiy kompetensiyani shakllantirish bilan bog'liq ko'plab masalalar o'rganilgan. Xususan, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari, tashkiliy-uslubiy jihatlari mahalliy olimlar N. S. Turdiyev va Yu.M. Asadov kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini quyidagicha tavsiflaydi:

- bilimlarni amaliy qo'llash;
- insonning tarbiyasi, xususiyatlari, fazilatlarini;
- amaliy faoliyatga tayyorgarlik chorasi; muammolarni hal qilish, amalda kerakli natijalarga erishish qobiliyati;
- insonning kasbiy faoliyatini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlitligi;
- faollashtirilgan (amalda qo'llaniladigan) trening, bilim, tajriba to'plami; «insonning maqsadli hissiy irodasi.» [ 12-160. b].

Bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati ko'rsatkichlari B.B.Mamurov tomonidan tizimlashtirilgan. [13-71 b.]. Ta'lim talabalarning harakatlari bilan amalga oshiriladi, ularning istaklari va tabiiy qiziqishlariga bog'liq. Talabalarni birgalikdagi faoliyatga tayyorlash, ularning ehtiyojlari, moyilligi, qiziqishi va motivatsiyasi, muloqot usullari, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakllari N. Z. Azimov tomonidan ilmiy asoslangan [14-15; 127 b.].

Talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda milliy qadriyatlar va etnomadaniyat muhim hisoblanadi. Shuningdek, talabalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirish, bilim, ko'nikma va tajribani shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Sh.A.Sodikovning tadqiqotlari talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni, omillari va mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan [15- b. 138].

Maqolada talabalar o'rtasida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish xususiyatlari ko'rib chiqilgan, o'quv jarayonida bu nafaqat bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish obyektini, balki ularning shaxs sifatida rivojlanishi hamdir.

Etnomadaniyat asoslari, etnomadaniy jarayonlar, etnoetikaning mazmuni va

mohiyati N. O. Jo‘rayeva tomonidan tahlil qilingan [16-64 betlar]. Etnomadaniy kompetensiya o‘quv faoliyati jarayonida talabaning shaxsiy fazilatlarini yanada rivojlantiradi. Uning ta’siri ostida yangi faoliyat turlari paydo bo‘lmoqda. Tadqiqotimizning asosiy yo‘nalishi kasb-hunar ta’limi kursining «Pedagogika va psixologiya» o‘quv moduli mazmunida etnik bilimlarning aks etishini o‘rganish va olingan natijalarni tahlil qilish edi.

Yuqoridagilarga asoslanib, etnomadaniy kompetensiya individual xususiyatlarga, etnik madaniy bilimlarni ifodalashga, xulq-atvor normalariga, shuningdek millatlararo munosabatlarni samarali tashkil etishda har bir millatning o‘ziga xosligini hisobga olishga asoslanadi. Etnomadaniy kompetensiya muhim sifatdir. har bir fuqaro, ayniqsa kasb-hunar ta’limi o‘qituvchilari o‘qitilishi kerak, chunki ular turli toifadagi odamlar bilan bevosita psixologik-pedagogik maslahatlar, tuzatish va profilaktika ishlarini olib boradilar.

Biroq, yosh avlod o‘rtasida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, chunki u ko‘p millatli jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Milliy mentalitetni rivojlantirish turli xalqlarning qadriyatlari va madaniy an‘analari namoyon bo‘ladigan jamiyat ehtiyojlaridan biridir.

Ushbu mulohazalarga asoslanib, biz tadqiqotimizning dolzarbligini asoslaydigan holatlarni tavsiflashni maqbul deb hisobladik. Ular quyidagicha aytilgan:

- talabalar ijtimoiy jamiyatda millat vakillari sifatida ishlaydilar, ularning etnik madaniy kompetensiyasini shakllantirish orqali shaxslararo munosabatlarni yaxshilaydilar;

- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olish;

- millatlararo totuvlikni mustahkamlashga talabalarning hissasini oshirish;

- talabalar o‘rtasida milliy madaniyatni shakllantirish;

- ta’lim jarayoniga etnopedagogik yondashuvni joriy etish;

- muhojir talabalarning munosabatlari, xatti-harakatlari va ular ilgari yashagan ijtimoiy muhitdagi salbiy odatlarni yo‘q qilish.

Ularning yangi muhitga moslashishi, madaniyatni rivojlantirishda o‘qituvchilarning ta’sirini kuchaytirishdan iborat. Ushbu yondashuv juda muhim, chunki u har bir talabaning etnik bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan. O‘z-o‘zini hurmat qilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish talabalarning kasbiy ehtiyojlari va intilishlarini rivojlantirish uchun etnomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Yuqoridagi qoidalarga asoslanib, biz muallifning «etnomadaniy kompetensiya» tushunchasining ta’rifini taqdim etamiz: etnomadaniy kompetensiya talabalarga psixologik va pedagogik vaziyatlarda milliy xususiyatlar bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalardan foydalanishga, usullar, texnologiyalar va vositalardan mohirona foydalanishga imkon beradi. Talabalarning etnik-madaniy kompetensiyasini shakllantirishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash;
- milliy ijodkorlikka ega bo‘lish;
- millatlararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lish;

- o‘qitishning eng qulay va samarali usullari va vositalarini tanlay olish;

- ta’lim faoliyatini milliy manfaatlarga muvofiq, ijodiy yondashgan holda tashkil yetishga tayyorgarlik;

- tashabbuskorlik, mustaqillik va mas'uliyat, har qanday muammoli vaziyatga tayyorlik va uni hal qilish qobiliyati.

**Xulosa.** Talabalar o'rtasida etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda o'qituvchilarning shaxsiy namunasi, mamlakat siyosati va kasbga sadoqati ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ular yuqori kasbiy mahorati va malakasi bilan talabalarga o'rnak bo'lishga intilishlari kerak. Ushbu qoidalarga asoslanib, etnomadaniy kompetensiyani shakllantirish talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsiy intilishlari va istaklariga bevosita bog'liq degan xulosaga kelish mumkin. Talabalarning etnik qiziqishlari va moyilligini hisobga olish, shuningdek, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish kerak. Ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik oliy ta'limdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi. Talabalarga muvaffaqiyat uchun javobgarlik ham o'rgatiladi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Аширова А. Этнология.Т.: 2014.-130 с.
2. Джораева Н. Этнокультура и общность национальной идеи. Бухара.:2018.-64 с.
3. Маркова А.К. [Маркова А. К. Психология труда учителя: Кн. для учителя. М.: Просвещение, 1993.192 с..
4. Н.В. Руднева «Формирование ключевых компетенций в процессе подготовки специалистов на факультете искусств». Автореф. Махачкала 2006-20 гг.
5. Mirziyoyev Sh.M. yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risidagi Farmon. Т.: 28 yanvar 2022 у., № ПФ-60.
6. Ожегов С.И. Словарь русского языка.М.: 1999-248 с.
7. Занина Л.В. Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства. - Ростов-на-Дону: «Феникс», 2003.-288с.;101.
8. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка М.: 2010-578 с.
9. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства.-Ростов-на-Дону: «Феникс», 2003.-288 с. 101.
10. Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения. -М.: 1996, -162 с.
11. Поштарева Т.В. Теория и практика формирования этнокультурной компетентности в сфере образования в полиэтнической образовательной среде: Монография. Ставрополь.-2006-180 с.
12. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М. Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Образовательные технологии, направленные на формирование компетенций учащихся в системе общего среднего образования. НИИ педагогических наук Узбекистана имени Т. Н. Кори Ниёзи, Т.: 2015.-Б
13. Администратор Б.Б. Система развития умений проектирования образовательного процесса у будущих учителей на основе акмеологического подхода: пед. наука. док. ... автореф. -Ташкент, 2018. -71 стр. См.: 66; 71-с.

## TA'LIM KLASTERI ASOSIDAGI MASHG'ULOTLARDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Beknazarova Zamira Farmanovna**

“TIQXMMI” MTU, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya.** Davlat ta'lim standartlarini zamonaviy talablarni inobatga olgan holda takomillashtirishda xorij tajribalarini o'rganish, Respublikamiz ta'lim tizimida klasterli va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etilishidagi olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari hamda samarali baholash metodikalarining ayrim jihatlari xususida to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ, kompetensiya, klaster, anketa.

**Аннотация.** В соответствии с государственными образовательными стандартами, современными методиками обучения, разработанными олган холдой, за рубежом был разработан Республиканский образовательный кластер, и на основе компетенций образовательного кластера был создан эталонный кластер.

**Ключевые слова:** коммуникатив, компетентность, кластер, анкета..

**Abstract.** In accordance with state educational standards, modern teaching methods developed by Olgan Holda, a Republican educational cluster was developed abroad, and a reference cluster was created based on the competencies of the educational cluster.

**Keywords:** communicative, competence, cluster, questionnaire.

Respublika ta'lim tizimida o'quvchilarga bilim berish va uni baholash jihatlari, ta'lim klasteri sharoitida fanlar aloqadorligini ta'minlash hamda amaldagi Davlat ta'lim standartlari asosida o'quvchilarning fanlar bo'yicha egallashlari kerak bo'lgan bilim va tayyorgarlik darajalarini belgilash, o'quv reja, dasturlar va darsliklarni ishlab chiqishda o'quv fanlari xususan, fizika fanini o'qitishdagi fanlar integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'limning o'quvchilar olgan bilimlarini hayotiy faoliyatida qo'llashlariga yo'naltirilgan bo'lishini taqozo etadi.

DTS ni takomillashtirish o'quv jarayonida fanga oid va tayanch kompetensiyalarni tanlash, ularni shakllantirish va belgilangan kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini aniqlashda xorij tajribalaridan samarali foydalanish orqali amalga oshirishni ko'zda tutadi. Sababi, mehnat bozoridagi talabning tez o'zgarishi, ish beruvchilarning faqatgina uning bilimi, ko'nikmasi va malakasigagina emas, balki ularning shaxsiy sifatlariga ham e'tibor qarata boshlaganligi bilan belgilanishi ta'lim tizimidagi yondashuvlarni ham o'zgartirishni taqozo etayotganligini hayotning o'zi ko'rsatib bermoqda. Xususan, J.Raven, I.A.Zimnaya, A.I.Subetto, A.V.Xutorskiy va boshqalar [2] tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida shaxs kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish tushunchalari, ta'limda tayanch kompetensiyalar tarkibini ifodalash va uni shakllantirish jarayoni muammosi xorijiy nazariya va amaliyotida S.Sho, E.F.Zeyer, V.I.Baydenko va boshqalar tomonidan kasbiy ta'limga tatbiqlari tahlil qilindi. Kompetensiyaning naqadar muhimligini, muttasil ravishda takomillashtirilib boruvchi zamonaviy talablar inobatga olinishi, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlari o'sishi, bilim olishga bo'lgan qiziqishning ortishi hamda bitiruvchilarning majburiy ta'limdan keyingi bosqichlarga tez moslashuvchanlik xususiyatlarining samarali namoyon bo'lishida ko'rinadi.

O'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan 5 ta: kommunikativ; axborot bilan ishlash; shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish; ijtimoiy faol fuqarolik; umummadaniy; matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini dars jarayonida rivojlantirish uchun ularni faoliyat shaklida berish uslubi tanlandi.

Fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarning shakllanganligini testlar vositasida tekshirish, tayanch kompetensiyalar shakllanganligini tashxislash maqsadida esa, fanlar tarkibiga singdirilgan, aqliy rivojlanganlikni ko'rsatadigan topshiriqlar berish mumkin [3]. Tadqiqot jarayonida fizikadan tuzilgan testlar ko'proq fanga oid umumiy kompetensiyalarni amaliyotda qo'llay olish layoqatini aniqlashga qaratildi. Xususan, meditsina kollejiga kirgan o'quvchilarning fizika fanini o'rganishga bo'lgan tayyorgarlik darajasini o'rganishda ularning tanlagan kasbi ham hisobga olindi. Masalan, quyidagi kabi testlar:

1. Sizlarga ma'lumki insondagi kasalliklarni aniqlash uchun meditsinada kompyuter tomografiyasi ishlatiladi. Bu asbobni devorlari metall to'r bilan qoplangan xonaga o'rnatiladi. Sababi nimada?

Bunday topshiriqlar o'quvchilar hukmiga havola qilinganida o'quvchilardan "Tashqaridan shovqinlar eshitilmasligi uchun", "Devorlari va tomograf o'rnatilgan plita tashqi ta'sir natijasida silkinmasligi uchun" yoki "Tashqi magnit maydonidan saqlanish uchun" kabi javoblarni olish mumkin. Aslida esa, tashqi elektr maydonidan himoyalani uchun devorlari metall to'r bilan qoplangan xonaga o'rnatilishi, buni Faradey qafasi misolida tushuntirilishi o'quvchilarda amaliy kompetensiyalarning shakllanishiga turtki bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari ham har bir qurilmaning ishlash prinsiplaridagi fizik qonuniyatlar, jarayonlarning mohiyatini anglash ko'nikmasiga ega bo'la boradi. Shuningdek, quyidagi kabi savollar yordamida fizikaning turli kasblarning o'zaro fizika fani bilan integratsiyasini anglashlariga yordam beradi.

1. Radiusi 1 mm bo'lgan meditsina shpritsiga 9,86 N kuch bilan ta'sir etilayotgan bo'lsa, shprits ninasiga berilayotgan bosimni toping?

2. Yurak urishi sanalganda minutiga 75 ta bo'ldi. Uning davrini toping.

3. Quloqqa ovozni kuchaytirib beradigan qurilma 1,5 V kuchlanishda ishlaydi. Agar uning iste'mol qiladigan tok kuchi 0,001 A bo'lsa sarflaydigan quvvati necha vattga teng?

Misol tariqasida tibbiyot kolleji o'quvchilarining kasbiy faoliyatida fizikaning amaliy ahamiyatini o'rgatish, fizikani kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatish, ta'lim klasteri ya'ni, ta'limning barcha bosqichida (o'qituvchi-o'quvchi-talabalar) ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning manfaatli hamkorligini ta'minlash maqsadida, tajriba-sinov, tadqiqotlar o'tkazildi. Natijalariga ko'ra, tibbiyot kollejining o'quvchilarning fizikadan dastlabki, o'quv yilining boshidagi o'rtacha o'zlashtirish darajasi 54 % ni tashkil qildi. Bu ko'rsatgich, ularning fizika o'quv fanini keyingi bo'limlarini o'zlashtirishga tayyor degan xulosaga asos bo'ladi. Tibbiyot kolleji o'quvchilari uchun fizikadan kasbiy xarakterdagi topshiriqlarga jumladan, "meditsina shpritsi ignasi uchidan otilib chiqayotgan suyuqlik tezligini aniqlash" ga doir savolga nazorat guruhida 82,3 % , sinov sinfida 87,9 % talabalar to'g'ri javob berganlar. Lekin "Elektroforez qanday fizik hodisaga asoslangan?" nomli javobi yoziladigan savolga nazorat sinfida 53,3% va sinov sinfida 41,4 % talabalar to'g'ri javob berishgan. Bu esa, maktab kursida fizika fanining amaliy ahamiyati, uning qo'llanilishiga kam e'tibor berilganligini ko'rsatadi.

Fanga oid kompetensiyalarni baholash me'zonlari kabi, o'quvchilarda tayanch

kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini aniqlaydigan umum e'tirof etgan usullar mavjud emas. Ularni testlar yoki nazoratning yozma(og'zaki ) usullari bilan ham aniqlash qiyin. Shunga ko'ra an'anaviy baholash usullarini qo'llab bo'lmaydi. O'quvchilar kompetensiyalarini aniqlashning samarali usuli bu anketalar o'tkazishdir. Bunda o'quvchilarda shakllanishi kerak bo'lgan tayanch kompetensiyalarga tegishli bo'lgan savollar anketaga kiritiladi. Kompetensiya shakllanganligini bitta savol bilan emas, balki uni qamrab olish uchun bir nechta savol beriladi. Masalan, biz taklif qilgan (42 ta) anketa savollarida tayanch kompetensiyalar tarkibiga ko'ra qo'yidagicha tanlandi: 1.Kommunikativ kompetensiyaga doir – 6 ta; 2.Axborot bilan ishlash kompetensiyasiga – 5 ta; 3.Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasiga oid – 10 ta; 4.Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga – 6 ta; 5.Umummadaniy kompetensiyalarga doir -9 ta; 6.Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasiga doir -6 ta.

O'quvchilarga beriladigan anketa savollari bilan birgalikda ularga to'ldirish yuzasidan yo'riqnoma ham berildi. Masalan, agar qatordagi yozilgan gapga to'liq qo'shilsa (+3) ni, agar butunlay qarshi bo'lsa (-3) ni, to'la qo'shilmasa shunga moslarini belgilash, javob bera olmasa (0) ni aylantirib chizib qo'yish tavsiya etiladi. Agar so'rovnomada gap tugallanmagan bo'lsa, uni davom ettirib, o'z fikrini bildirishi kerak.

1-jadval

	Savollar	Belgilanadigan raqamlar
9.	Menining fuqaro sifatidagi majburiyatlarim _____	-3-2-1 0+1+2+3
15.	Agar meni noma'qul harakat qilganlikda noto'g'ri ayblashsa, men _____ qilaman	-3-2-1 0+1+2+3
18.	Agar menga maktabda biror-bir tadbirni tashkil etish topshirilsa, men _____	-3-2-1 0 +1+2+3
35.	Men o'z shaxsiy fikrimni aytishga qiynalaman.	-3-2-1 0 +1+2+3

Anketa savollariga beriladigan javoblarni tanlashga 7 ta imkoniyat berilgan. Diapazon katta bo'lganligi sababli, o'quvchi o'z qarashlarini va amaliy faoliyatlarini savolga nisbatan balini bema'lol qo'yishi mumkin. Anketadagi "Do'stlarim mendagi \_\_\_\_\_ xislatlarni qadrlashadi" degan (39) savolga "Men qayoqdan bilay" yoki "bilmayman" degan javobni yozishsa 1 ball, javoblar chalkashroq, ma'nosi kelishmaydigan bo'lsa 2 ball, o'z xarakteridagi chizgilarni to'g'ri keltirgan, o'zini tutishiga oid so'zlar bilan keng holda yozilsa 7 ballgacha qo'yiladi.

O'tkazilgan anketa savollari natijalariga ko'ra barcha 7 ta ko'rsatgich o'quvchilar tomonidan belgilangan. Bu o'quvchilarning masalaga ijobiy yondashganliklarini bildiradi. Shu kabi o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar shakllanganligini aniqlash uchun fanlar tarkibiga singdirilgan aqliy rivojlanganlikni ko'rsatadigan topshiriqlardan ham foydalanish mumkin. Bunda topshiriqlar batareyasi oltita to'plamdan iborat qilib tuzildi va har bir topshiriq uchun aniq vaqt belgilanadi.

#### № 1 topshiriqlari tavsifi

Taklif etilgan topshiriqlar savol xarakteriga ega. Ularning har birida bittadan so'z yetishmaydi. Siz taklif etilgan beshta berilgan gapni to'ldiradigan faqat bitta

soʻzning tagiga chizib qoʻyishingiz kerak.

Misol: Quyidagilardan qaysi biri mexanik hodisalarga kiradi?

a) suv qaynamoqda; b) muz erimoqda; v) chaqmoq chaqmoqda; c) shar dumalamoqda; d) radiodan ovoz chiqmoqda.

№ 2 topshiriqlari tavsifi

Blankaning chap tomoniga yozilgan soʻzga taklif etilgan toʻrtta soʻzdan maʼno jihatidan mos kelganini yaʼni, soʻzning sinonimini toping va bu soʻzning tagiga chizing.

Masalan: prognoz - a) ob -havo; b) xabar; v) oldindan aytish; g) sabab.

Bunda toʻgʻri javob “oldindan aytish” boʻladi. Ajratilgan vaqt 3 minut.

Shu kabi birinchi va ikkinchi soʻzlar orasida oʻzaro aloqani topadigan, berilgan beshta soʻzdan toʻrttasining bitta alomatiga koʻra birlashtirish, berilgan ikkita soʻzdan ular orasida umumiylikni aniqlash va qandaydir qoidaga boʻysungan holda yozilgan raqamlar qatoridagi qonuniyat (davriylik) ni topish (masalan, 2,4,6, 8, 10,... Bu qatorda navbatda keluvchi son oldingisidan 2 taga katta. Shunga koʻra navbatdagi son 12 boʻladi) kabi topshiriqlar toʻplamini berish orqali ham oʻquvchilarning oʻquv faniga oid umumiy kompetensiyalarning shakllanganligini aniqlashda foydalanish mumkin. Oʻquvchilarning ruhiy holatini, ularning motivatsiyalarini, maktabda va maktabdan tashqari holatlarda yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni, oʻqituvchi, maktab rahbariyati va ota-onalarning farzandlari uchun yaratgan shart-sharoitlarini anketalar oʻtkazish orqali aniqlash yuqori samara berishini koʻrsatdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017. 6 – son, 70-modda.
2. Usarov J.E., Turdiyev N. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat taʼlim standartlari va uni joriy etishga tayyormisiz // Umumtaʼlim fanlari metodikasi. – Toshkent, 2017. - № 1. - B. 5-8;
3. Usarov J.E. Tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida taʼlim mazmunini takomillashtirish va oʻquvchilar kompetentligini rivojlantirish. Ped. fan. dok. (DSc) ... diss. – T., 2019. – 267 b.

## MA'NAVIY MEROS – MILLIY TA'LIM VA TARBIYA UZVIYLIGINING ASOSI

**Xakimova Maxruya Abdulhayevna** - TIQXMMI – MTU “Gumanitar fanlar” kafedrası Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Mamadaminotva Baxtigul Abdupattayevna** - Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy tarbiya va ta'lim uzviyligi haqida so'z boradi. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun xalqimiz tomonidan asrlar davomida asrab kelinayotgan ma'naviy meros va milliy qadriyatlar o'rni beqiyosligi ta'kidlanadi. Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatning mazmunida ham ta'lim-tarbiyaga berilayotgan e'tibor alohida ekanligi aytilgan. Shu bilan birga TIQXMMI-MTUda ta'lim va tarbiya jarayonlari yoritib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** milliy tarbiya, milliy qadriyatlar, ma'naviy meros, ta'lim, yoshlar ong-u, Yangi O'zbekiston, globallashuv, talaba yoshlar, kitobxonlik, OAV, internet makoni, TIQXMMI-MTU.*

***Аннотация.** В данной статье говорится о национальном образовании и единстве образования. В целях реализации этого процесса подчеркивается важность духовного наследия и национальных ценностей, сохраняемых нашим народом на протяжении веков. Было сказано, что внимание, уделяемое образованию, имеет особое значение в содержании политики, проводимой нашим государством. При этом были освещены процессы образования и обучения в TIQXMMI-MTU.*

***Ключевые слова:** национальное образование, национальные ценности, духовное наследие, образование, молодежное сознание, Новый Узбекистан, глобализация, молодежь, чтение, средства массовой информации, интернет-пространство, TIQXMMI-MTU.*

***Abstract.** This article talks about national education and the unity of education. In order to implement this process, the importance of spiritual heritage and national values preserved by our people for centuries is emphasized. It was said that the attention paid to education is of particular importance in the content of the policy pursued by our state. At the same time, the processes of education and training in TIQXMMI-MTU were highlighted.*

***Keywords:** national education, national values, spiritual heritage, education, youth consciousness, New Uzbekistan, globalization, youth, reading, mass media, Internet space, TIQXMMI-MTU.*

Har bir millatning o'zi ulug'laydigan, hurmat qiladigan va kelajakka avaylab yetkazishga harakat qiladigan ma'naviy merosi bor. Bu meros shu millatni kim ekanligini ko'rsatib turadigan javohiridir. Shu o'rinda milliy ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi aytib o'tilar ekan, Uchinchi Renessansni ta'minlaydigan fenomen sifatida bugunning yoshlari ko'z oldimizda gavdalanadi. Milliy tarbiya bu millatchilik emas balki inson o'zini kimligini anglashidir.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim va tarbiya sohasidagi o'zgarishlar yoshlarimizning ong-u tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirish, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini, o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylanmoqda. Bugunning yoshlari bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan mamlakatimizni demokratlashtirish va



liberallashtirish, uni yangilash hamda ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g‘oya asosidagi keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. [1]

Inson bor ekan unda albatta insoniylik tuyg‘ulari bor. Bu tuyg‘ular uning qalbida uni ma’lum bir millatga va mamlakatga tegishli ekanligini ifodalaydi. Shu ma’noda milliy belgilarni inson tanasida ona suti bilan kirib, jon bilan chiqadigan belgilar deyish mumkin. Bu masalada milliylik albatta ustuvorlik qiladi. Unda umuminsoniy xususiyatlar muhim rol o‘ynasa-da uning ona tili, Vatani, ona xalqi asosdir. Milliy qadriyatlar inson ijtimoiy va shaxsiy hayotida katta ahamiyatga egaligini ta’kidlagan holda milliy o‘zlikni anglash uning harakat jarayonini aks ettirishini anglamoq joiz.

Milliy tarbiya, keng ma’noda aytganda, nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tizim, uning yetakchi g‘oyalari, adabiyot, san’at, kino, radio, televideniye, ommaviy axborot vositalari faoliyatini o‘z ichiga oladi.

Rivojlanish jarayonlari haqida gap ketar ekan “Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgari gidek, ha bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi”<sup>14</sup>. Chinki XXI asr “Axborot asri” nomi bilan tarixga kirib keldi. XXI asr globallashtirish va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo‘q.

Bunday sharoitda inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiya va qo‘yilmalarning o‘rishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilim va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yadigan davlatgina o‘zini namoyon eta olishi mumkin.

Bugungi kunga kelib Respublikamizda yoshlarga bo‘lgan munosabatning o‘ziga xos yo‘nalishlari vujudga keldi, davr mohiyatidan kelib chiqqan holda ularning ilmiy nazariy poydevori demokratik jamiyat talablari asosida yaratilishi, muammolar yechimini topish usullari davlat siyosatining mazmunini belgilab bermoqda. Bu esa o‘z o‘rnida yoshlardan yanada ko‘proq bilim, tafakkur, shijoatni talab etmoqda.

Bu jarayonlarni Universitetimiz yoshlari faoliyatida ham ko‘rishimiz mumkin. Oliygo‘himizda amalga oshirilayotgan ishlar 2023-yil, 11-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 15-apreldagi “Mahalla, oila va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, madaniyat, ma’naviyat va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyati to‘g‘risida”gi Nizom, 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-4768-son Prezident Qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi (1991) Qonun, 2017 yil 2 fevralda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 18 iyuldagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2021 yil 3 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son

Qarorlari, “Mahallarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 92-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 muhim tashabbusida belgilangan vazifalar, Respublika Ma‘naviyat va Ma‘rifat Kengashi Nizomi hamda tegishli vazirliklar hamda yuqori turuvchi tashkilotlarning buyruq va ko‘rsatmalari asosida tashkil etib borilmoqda.

2023-2024 o‘quv yili davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusni o‘zida qamrab olgan “Yoshlar haftaligi» loyihalarining muntazam tashkil etib borilishi, fakultetlar o‘rtasida tashkil etilgan sport musobaqalari, iqtidorli talabalar bilan tashkil etilgan fan olimpiadalarini doimiy tarzda o‘tkazib borilishi, “Axborot va murabbiylik” darslarida berib borilgan ma‘lumotlar talaba yoshlarni zamon bilan hamnafas qadam tashlayotganligini ko‘rsatib turibdi.

Talaba yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish yuzasidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi asosida talaba yoshlar o‘rtasida sport, badiiy, ijodiy, kitobxonlikka oid tadbirlar tashkil etib borildi.

Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Oliy ta‘lim muassasalarida “Besh muhim tashabbus olimpiadasi”ni tashkil etish topshirig‘iga asosan Universitetda sportning futbol, voleybol, stritbol, shaxmat turlari bo‘yicha, shuningdek intellektual musobaqalar doirasida ko‘plab musobaqalar va ko‘rik-tanlovlar tashkil etildi.

Universitetimizning Toshkent shahrida joylashgan teatrlari bilan hamkorlik doirasida talabalarimizning O‘zbek Milliy akademik teatri, Abror Hidoyatov nomidagi drama teatri, Rus akademik teatri, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, Operetta teatri, Satira teatri kabi bir qator teatrlarga tashriflari uyushtirildi.

Talaba yoshlarning ma‘naviy qiyofasini yuksaltirishda muzeylarning ham ahamiyati katta. O‘quv yili davomida Temuriylar tarixi davlat muzeyi, San‘at muzeyi, Qurolli Kuchlar harbiy muzeyi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi, Amaliy san‘at muzeyi, Birinchi Prezident Islom Karimov muzeyi, shuningdek, poytaxtimizda joylashgan turli uy-muzeylarga talabalarimizning tashrifi ularning millatimiz tarixi va moddiy madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Yoshlarni keng internet makonida to‘g‘ri yo‘nalishini tanlay bilishlari bugungi kun uchun juda muhim. Ijtimoiy tarmoqlarda berib borilayotgan ma‘lumotlar bilan to‘yingan fikrlar yig‘indisini muhokama qilishda munosib bilimlar taqozo etiladi. Bu borada “Internet tarmog‘idan o‘rinli foydalanish choralari”, “Talabalar ma‘naviy qiyofasini to‘g‘ri shakllantirishda ta‘lim muassasasining roli”, “Ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish”, “Internetdagi ovchilar” kabi mavzularda targ‘ibot-tashviqot tadbirlari tashkil etib borildi.

Universitetimizda talaba-yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib etish, kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish yuzasidan ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Guruh murabbiylari va professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga eng ko‘p o‘qilayotgan kitoblar haqidagi ma‘lumotlar muntazam berib borildi.

Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni mazmun-mohiyatini yoritish, turli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot Strategiyasi”ni talabalar ongiga singdirish, ularda Uchinchi Renessans shakllanishining g‘oyaviy asoslarini tushuntirib berish kabi mavzularda universitet professorlari Q.Nazarov, Z.Ismoilovlar ishtirokida seminar-treninglar tashkil etildi.

Mazkur yo‘nalish bo‘yicha Universitet professor-o‘qituvchilari va talaba

yoshlar o'rtasida "Korrupsiya – milliy xavfsizlikka tahdid", "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi", "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati universitetlarining roli", Gumanitar fanlar kafedresi ishtirokida "Demokratiya – jamiyat ko'zgusi" kabi mavzularda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, siyosiy partiyalar deputatlari, soha mutaxassislari bilan hamkorlikda turkum uchrashuvlar va tadbirlar tashkil etildi.

Milliy qadriyatlarimiz va an'analarimiz timsollarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish, ularda milliy urf-odatlarimizga hurmat hamda vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash maqsadida "Xon atlas" festivali tashkil etildi.

Xalqimizning o'ziga xos xususiyati bo'lgan sahovatpeshalik an'analari asosida Universitetda tahsil olayotgan 20 nafar chin yetim talabalarni shartnoma pullarini homiylar hisobidan to'lab berilishi yuzasidan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha ishlar yurtimizda olib borilayotgan ta'lim tarbiya sohasidagi ishlardagi uzviylik mexanizmlari sifatida baholanishi mumkin deb hisoblayman. Insonni manfaatlar boshqaradi. Lekin o'sha manfaat moddiy to'kinlikdami yoki ma'naviy yetuklikdami? Albatta ma'naviy yetuklik ko'proq foyda keltiradi. Ta'lim olishda barcha uchun tekin va teng imkoniyatlar yaratilgan mamlakatimizda, shunday sharoitlarga noshukrlik qilib, dangasa farzandini yolg'onlariga ishonib o'z o'qituvchisini behurmat qilayotgan ota-onalar ham topiladi. Lekin ko'pchilik ota onalar o'zlarining farzandlari imkoniyatlarini rivojlantirishga harakat qilmoqdalar.

Shu o'rinda bir fikrni keltirib o'tmoqchiman. Xalil ibn Ahmad (r.a.) shunday deganlar: "Odamlar to'rt xil bo'ladi: 1. Biladigan va bilishini ham biladigan kishi. U olimdir, unga ergashinglar. 2. Biladi, lekin bilishini bilmaydigan kishi. U uyqudadir, uni uyg'otib qo'yinglar. 3. Bilmaydigan va bilmasligini biladigan kishi. U yo'l qidiruvchidir, uni yo'lga solinglar. 4. Bilmaydigan va bilmasligini ham bilmaydigan kishi. U johildir, undan qochinglar". Ushbu fikrlar jamiyatga to'g'ri tatbiq etilsa yaxshi natijalarga erishamiz.

Buyuk faylasuf Suqrotning "Insoniylik – bu faqat ayrim odamlar erishadigan buyuk martabadir" – deb aytgan so'zlari jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. [Internet manba]. [URL](#)
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent 2022.
4. Koshifiy H. V. Axloqi Muhsiniy. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 2010.
5. [Rasmiy xabarlar](#).
6. Hakimova M.A. Yoshlar ma'naviy olamini yuksaltirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni // ORIENSS. 2023. №1-2. [URL](#)
7. ХАКИМОВА, М. А. (2019). Развитие культуры в современном мире. Academy, (2 (41)), 54-55.

## BO‘LAJAK PROFESSIONAL TA’LIM O‘QITUVCHISINING TASHKILY-BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Madaminova Sabina Alisher Qizi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti  
– milliy tadqiqot universiteti “Professional ta’lim” kafedrası tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** *Jahon ta’lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarda nazariy bilimlardan pedagogik amaliyotda muvaffaqiyatli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, pedagogik faoliyatda o‘z tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta’lim muhitini joriy qilishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada ana shu muhim jihatlari haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *innovatsiya, kompetent, interaktiv, motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv, indikator.*

**Аннотация.** *Широкое использование достижений науки и инноваций в мировой системе образования, последовательное и устойчивое развитие всех сфер жизни общества и государства становится важным фактором построения достойного будущего страны.*

*Это, в свою очередь, важно в формировании у будущих учителей компетенций для успешного использования теоретических знаний в педагогической практике, внедрении образовательной среды, создающей условия для реализации их инициатив в педагогической деятельности. В статье приведены обзорные материалы об организационно-мотивационной деятельности.*

**Ключевые слова:** *инновационный, компетентный, интерактивный, мотивационный, когнитивный, операционный, рефлексивный, индикаторный.*

**Abstract.** *The widespread use of the achievements of science and innovation in the world education system, the consistent and sustainable development of all spheres of society and the state is becoming an important factor in building a decent future for the country. In countries such as Russia, England, South Korea, Japan, the training of highly qualified, competitive personnel is considered a key development area that ensures the widespread introduction of innovations in education, including modern interactive and creative teaching methods.*

*This, in turn, is important in the formation of future teachers' competencies for the successful use of theoretical knowledge in pedagogical practice, the introduction of an educational environment that creates conditions for the implementation of their initiatives in pedagogical activity.*

**Keywords:** *innovative, competent, interactive, motivational, cognitive, operational, reflective, indicative.*

Xalqaro miqyosda bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Shu bilan birga kasb-hunar kollejlari uchun ham zamon talabiga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda. 6 muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunar ta'limida kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, D.O.Himmataliyev, O.A.Qo'ysinov, N.N.Karimova, Yo.R.Najmiddinova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Olib borilgan izlanishlar va tahlillar asosida shuni aytish mumkinki kasb-hunar kollejlari raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash, kasb-hunar kolleji o'quvchisining egallashi kerak bo'lgan kompetentliklari mazmunini belgilash, kompetentliklarni shakllantirish-ning pedagogik va didaktik shart-sharoitlarini aniqlash muammo-lariga kam e'tibor qaratilgan, bu esa mazkur muammoni tadqiq etish zaruratini taqozo etadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot talablardan kelib chiqqan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini kompetentli yondashuv asosida takomillashtirish, innovatsion ta'lim metodlari va zamonaviy mashg'ulot shakllarini tadbiq etish orqali pedagogik jarayon tuzilmasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchisining boshqaruv kompetentligi va kasbiy kompetentligi haqida fikr mulohaza yuritamiz

Pedagogik kompetentlilik tuzilmasi va mazmuni tavsifnomalarining faoliyatli aspekti nafaqat bilimlar, malaka, ko'nikmalarni, balki pedagogik jarayonni o'tkazish usullarini ham o'zi ichiga oladi. Ayni vaqtda kommunikativ aspekt o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning pedagogik shakllarini amalga oshirish bilimlari, malaka, ko'nikma va usullari bilan boydir. Pedagogik kompetentlilikning birinchisi kabi ikkinchi komponenti ham o'zaro aloqador.

Artikbayeva Z.A. «Malaka oshirish tizimida maktab matematika o'qituvchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish» nomli dissertatsiya ishida «Matematika o'qituvchilarining reproduktiv ko'nikmalari sifatida amaliy masalalarini yechish, metodik muammolarni ijodiy anglashning tadqiqiy malakalarga o'tish ketma-ketligi ko'rinishi berilgan bo'lib, u quyidagilardan iborat:

- zarur bilimlarni egallash;
- ko'nikmalarni reproduktiv darajada shakllantirish;
- faoliyatni namoyish qilish - yaxlit va elementlari bo'yicha;
- sodda variantlarda (topshiriqni sun'iy soddalashtirish, uni bo'laklarga ajratish)
- ko'nikmalarni mustahkamlashni tashkillashtirish;
- uzluksiz teskari aloqadan foydalanib mustaqil amaliyotni tashkil qilish;
- izlanuvchanlik, produktiv (mahsuldor, ijodiy) bosqichga o'tish;

turli xil muammoli vaziyatlarni tashkillashtirish - nostandart masalalarni yechish, voqelikni munosib modellashtirish;

- o'qituvchilarning muayyan muammolar bo'yicha individual izlanuvchan faoliyatini tashkil qilish, izlanish natijalarini referat, ma'ruza, metodik maqola, kurs ishi ko'rinishida taqdim etish».

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda o'zaro ijodiy hamkorlikka asoslangan munosabatlar jarayonlarini tashkil etishda qo'llaniladigan yangicha yondashuvlar ularni kasbiy faoliyatga va uzluksiz malaka oshirishga psixologik moslashuvini tezlashtirish va refleksiyaning rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Faqatgina refleksiv ta'lim jarayonidagina shaxsiy tushunchalarni rivojlantirish, o'z faoliyatini o'zi tomonidan tahlil qilish asosida o'qituvchilar o'zlarining pedagogik faoliyatlarining qay darajada ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetishlari mumkin.

Amerikada menejerlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish modeli o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. O'zgarishlarni boshqarishda: kelajakni ko'ra bilish, tashqi muhitni to'g'ri anglash, innovatsiya va ijodiy yondashuv, loyihaviy-tadqiqotchilik yondashuv, strategik tafakkur, uzluksiz ta'lim, motivatsiya.

2. Personalni boshqarishda: nizolarni boshqarish, madaniy omillarni tushuna bilish, jamoani shakllantirish, shaffoflik.

3. Resurslarni boshqarishda: moliyaviy resurslarni boshqarish, inson resurslarini boshqarish, texnologiyalarni boshqarish.

4. Natijalarga erishishda: mas'uliyatlilik, muammoni hal qila bilish, tashabbuskorlik, ma'muriy ko'nikmalar, iste'molchi ehtiyojlariga yo'naltirilganlik.

5. Kommunikatsiyani tashkil qilishda: og'zaki kommunikatsiya, yozma kommunikatsiya, muzokaralar olib borish, hamkorlik tuzish.

Ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish asosida xulosa qilishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining kasbiy kompetentligi modelini ishlab chiqish va uni rivojlantirishda yuqorida tavsiflangan mexanizmlardan foydalanish rahbar kadrlar kasbiy kompetentlikning rivojlantirishga xizmat qiladigan tashkiliy-pedagogik sharoitlarning yaratilishiga sharoit yaratib beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, professional ta'lim tizimida kompetentli yondashuv samaradorligi va uning konseptual asoslari hozirgi kunda shakllanib bormoqda. Professional ta'lim tizimi rahbar xodimlarining kommunikativ kompetentligining samaradorligi boshqa shaxslar bilan og'zaki, yozma va kompyuter vositachiligida professional faoliyat doirasida o'zaro axborot va tajriba almashishni samarali amalga oshirishga intilishi, qobiliyati va tayyorligi sifatida belgilanadi. Rahbar xodimlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ularning motivatsiyasi, qobiliyati va professional ta'lim tizimining natijalari va samaradorligiga qiziqqan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'zaro axborot va tajriba almashishni samarali amalga oshirishga tayyorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy va ajralmas psixologik-pedagogik jarayon sifatida belgilandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi innovatsion

rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.

4. Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005, - 157 b.

5. Artikbayeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika tinglovchilarining kasbiy-metodik ko'nikmalarini takomillashtirish. p.f.n. disser.avtoref. T.: - 2004. 26 b.

6. R.Choriyev, Kh.Tuychiev Mechanisms of professional competence development for future teachers. Solid State Technology Volume: 63 Issue: 2 Publication Year:2020, P 268-278

## KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QITISH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Mamataliyeva Moxinur Ixom qizi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti-milliy tadqiqot universiteti "Professional ta'lim" kafedra tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim tizimida zamonaviy islohotlarni amalga oshirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayonida kreativ yondashuvlar va innovatsion pedagogik faoliyatning o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Yoshlar ijtimoiy ma'noda ham kuchli, ham zaif jihatlarni o'zida mujassamlashtirgani uchun ularga, har tomonlama ijtimoiy faollik, yuqori darajada ta'sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo'lgan ehtiyoj, bo'lajak mutaxassislarni zamon talablarini hisobga olgan innovatsion faoliyatga yo'naltirgan holda raqobatdosh qilib tayyorlashni ta'sir etadigan asosiy omillar va ularning mazmun mohiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, kreativ yondashuv, pedagogik faoliyat, uzluksiz ta'lim, ijodiy jarayon.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается реализация современных реформ в системе образования, применение инновационных технологий, креативные подходы в образовательном процессе и роль инновационной педагогической деятельности. Поскольку молодежь в социальном смысле воплощает в себе как сильные, так и слабые стороны, на них оказывают влияние всесторонняя социальная активность, высокий уровень аффективности и стремления к инновациям, потребность в идеалах, основные факторы, влияющие на конкурентоспособную подготовку будущих специалистов с ориентацией на инновационную деятельность, учитывающую требования времени, и их содержание.

**Ключевые слова:** инновация, творческий подход, педагогическая деятельность, непрерывное образование, творческий процесс.

**Abstract.** This article examines the implementation of modern reforms in the education system, the use of innovative technologies, creative approaches in the educational process and the role of innovative teaching activities. Since young people socially embody both strengths and weaknesses, they are influenced by comprehensive social activity, a high level of affectivity and desire for innovation, the need for ideals, the main factors influencing the competitive training of future specialists with a focus on innovative activities that take into account the demands of the time, and their content.

**Keywords:** innovation, creative approach, pedagogical activity, continuing education, creative process.

Hozirgi kunda jamiyatdagi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot tobora ko'proq innovatsiyalarga asoslangan bilimga tayanib, ushbu jarayonni amalga oshirish oliy ta'lim muassasalari oldiga muhim vazifalarni yuklamoqda. Bugungi innovatsiya sohasidagi ilm-fan taraqqiyotining har qanday yutug'i insoniyat mushkulini oson qilishga, uning muammolarini qisman bo'lsa-da hal etishga xizmat qilishi kerak.

Dunyo bo'yicha oliy ta'limda zamonaviy islohotlarni amalga oshirish, ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, iqtisodiyotning yuqori cho'qqilarga



ko'tarilishi kadrlarning kasbiy mahorati va kompetensiyaviy malakasi darajasiga bog'liq. Ma'lumki, ta'limning barcha sohasida kadrlar salohiyatini yuksaltirish, shuningdek, ta'lim-tarbiyada mavjud bo'lgan bo'shliqlarni bartaraf etishdan iborat. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashda o'z bilimini uzluksiz to'ldirib borish va undan kasbiy mahorat hamda ijtimoiy faoliyatda ijodiy foydalana olish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta'lim tizimida va butun hayot davomida har bir shaxsning ijodiy hamda tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya va masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Bugungi kunda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, kreativ usullarni qo'llash orqali ta'lim berish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni xalqaro talablar asosida yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratildi[4, 498].

Mamlakatimiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasini xalqaro maydonda e'tirof etish, zamonaviy ta'limning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limni zamonaviylashuvi o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli ortib borishi bilan belgilanib, u bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish xususiyatini o'zgartiradi, o'zlashtirilayotgan fanlar mazmunini rivojlantirish, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash jarayonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi [2,804].

Mustaqillik yoshlar turmush tarzida hamda ularning psixologiyasida ham chinakam global o'zgarishlar qildi, yoshlarni yangicha fikrlashga o'rgatdi. Ma'naviy kamol topgan insonlarga barkamol jamiyat qurishlari mumkin, shuning uchun hozirgi kunda yoshlarga jamiyatning tarkibiy qismi va o'ziga xos guruhi sifatida qarab, ularning har tomonlama rivojlanishi va shakllanish holatini shu jamiyat doirasida, uning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil qilish darkor.

Yoshlar ijtimoiy ma'noda ham kuchli, ham zaif jihatlarini o'zida mujassamlashtirgani uchun ularga, bir tomondan, ijtimoiy faollik, yuqori darajada ta'sirchanlik va yangiliklarga intiluvchanlik, ideallarga bo'lgan ehtiyoj, olamni, borliqni ijodiy qayta qurishga tashnalik, qiziqqonlik xos bo'lsa, ikkinchi tomondan sabrsizlik, bemulohaza tanqid qiluvchanlik, barcha narsani inkor etish jihatlarini ko'zga tashlanadi.

Innovatsiya - bu yangi deb qabul qilingan va amalga oshiriladigan g'oya, amaliyot yoki obyekt bo'lib, u «yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulotni yoki jarayonni, yangi marketing usulini yoki tashkiliy usulni amalga oshirish deb ta'riflanishi mumkin.

"Innovatsiya" tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslar o'rganishlarida paydo bo'ldi va bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu ma'nosi hozirgacha etnografiyada saqlanib qolgan. XX asr boshlarida yangi bilim sohasi-yangiliklarni kiritish, qo'llash yuzaga keldi.

Shu davrga kelib ilmiy adabiyotlarda quyidagi innovatsion jarayonni

bosqichlarga ajratish sxemasi mavjud:

1. Yangi g'oya paydo bo'lishi yoki yangilik konsepsiyasi yuzaga kelish bosqichi; uni shartli ravishda fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

2. Kashf etish vaqti, ya'ni amalga oshgan obyekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishidagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikka amaliy ko'payish topilib uni qo'shimcha ishlab mukammallashtirish amalga oshiriladi; bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. Shundan so'ng yangilikning mustaqil mavjudligi boshlanib, yangilik kiritish jarayoni keyingi bosqichga o'tadi, bu bosqich faqatgina yangilikni qabul qilish shartidagina amalga oshadi. Yangilikdan foydalanish davrida keyingi bosqichlar ko'rinadi.

4. Yangilikning tarqalishi uning yangi sohalarga diffuziyalanib (qo'shib) keng tatbiq etilishidan iborat.

5. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda xususan yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki uning yanada samarasi bilan almashishi bilan yakunlanadi.

6. Yangilik qo'llanilishi doirasi qisqarib uning yangi mahsuldori bilan almashadi [4,499].

Innovatsion pedagogika – hozirgi davrda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan, biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining e'tiboriga tushib, jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi, olimlar, shu boisdan ham mavjud an'anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar. Hozirgi kunlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti, uning asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishni talab etmoqda. Innovatsion pedagogika-hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikriga asosan odatiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi pedagogik fandagi vaziyat umumiy holda shundan iborat bo'lib, bu vaziyatda innovatsiya juda muhim hisoblanadi.

Bu borada, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda raqobatbardoshlikni ta'minlash, rivojlangan ta'lim tizimini uyg'unlashish, ta'limda hamkorlikni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion rivojlangan qilib shakllantirish masalalari dolzarb vazifalar bo'lib hisoblanadi [1,67].

Ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, zamonaviy va sifatli ta'limga bo'lgan motivatsiyani faollashtirish, oliy ta'limda innovatsion faoliyatning o'rni va rolini kuchaytirish, ta'lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyaning rivojlanishi keng jamoatchi-pedagoglar harakatining tez rivojlanishiga bo'lgan talab va uni pedagoglar amalga oshira bilmasliklari o'rtasidagi yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar bilan bog'liq. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, "Yangilik", "Yangi innovatsiya", "Innovatsion jarayon" tushunchalarini anglash talabi keskinlashdi [3,164].

Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonning bir-birini vaqt bosqichida ketma-

ket almashtirib, muntazam tizim uning real rivojlanib borishining soddalashtirilgan sxemasini ifodalaydi. Biror aniq innovatsion jarayon bu bosqichlarni o'z ichiga olib, ular ketma-ketligi va bog'liqligiga so'zsiz rioya qilishi shart emas. Yangilik kiritishni yangilikni yaratish va tarqatish kompleks va maqsadga muvofiq jarayoni sifatida qarab, uning maqsadi inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirish bo'lib, bu samaradorligi, muntazam va hayotiylikini ta'minlovchi uslub va tizimlarni ma'lum sifatli o'zgarishiga olib keladi.

Ta'limda ayniqsa oliy ta'limda kreativ yondashuvlar asosida o'qitish sifatini oshirish jarayonida quyidagilar muhim sanaladi:

- oliy ta'limda kadrlar salohiyatiga e'tiborni kuchaytirish, professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning kasbiy nufuzini va mavqeyini oshirish;

- ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviyligini ta'minlash, iqtisodiyotning jahon miqyosidagi innovatsion yutuqlarini hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini tubdan yangilash;

- umumbashariy mafkuraviy tamoyillar va xalqimizning boy intellektual merosi, qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy yo'nalishlarini rivojlantirish;

- yoshlarni ma'naviy-axloqiy, kreativ, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda, shuningdek sifatli ta'lim olishda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahalla rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish [1,36;7,102].

O'zini anglagan, millat ma'naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini taniydi. Shunday ekan, yoshlarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko'nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqea – hodisalari va muammolariga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan bebaho ma'naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab – avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma'naviy, aqliy bilimlardan foydalanib, voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kun talabidir.

Jamiyatimiz kelajagi ko'p jihatdan ta'lim sohasidagi innovatsion o'zgarishlar, uni jamiyat talablariga javob beradigan darajaga yuksaltirishga yo'naltirilgan ishlarga bog'liq bo'ladi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarni zamon talablarini hisobga olgan innovatsion faoliyatga yo'naltirgan holda raqobatdosh qilib tayyorlashni talab etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To'raqulov X.A., Jabborov N.S. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 152 b.
2. Маджидова М. Х., Самиева Ш. Х. Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания //Молодые ученые-развитию Национальной технологической инициативы (Поиск). – 2020. – №. 1. – С. 803-805.
3. Самиева Ш., Нарзуллоева Ф. Oliy talimda strategik fikrlash va kreativ boshqarish asosida talimni tashkil etishning muhim yonalishlari: //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.

4. Mirshayev, U., Sh, S., Cherniavskiy, V., Asadova, S., & Aslanova, N. (2019). The important tendencies in the development of creative and creative potentials in youth. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3-3), 497-500.
5. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования. /Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. – Высшее образование в России. – 2005. - №4.-с.23-30.
6. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.пособие. – Киров: АНОО “Межрегиональный ЦИТО”, 2013. – 212 с.
7. Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim ж. – Т.: 2006. 6-сон. – 102-б.

# IJODIY ISHLAR



**Ahmatova Gulshoda G‘ulomjon qizi**  
**«TIQXMMI» Milliy tadqiqot universiteti**  
**«Yer resurslari va kadastr» fakulteti 3-bosqich talabasi**

### KORRUPSIYAGA QO‘L URGAN SHAXSLAR

Ular uchun qanday ta‘rif joiz bo‘lar?  
 Pora bergan, yoki olgan  
 Yo poraxo‘rlar...  
 Vijdonisiz keyin qanday  
 yashay olar?  
 Korrupsiyaga qo‘l urgan shaxslar

Ta‘magirlik, firibgarlik yo‘lin  
 tutishgan  
 Or-nomusi, vijdonini pulga sotishgan  
 Boylik desa kelajakka bolta urishgan  
 Korrupsiyaga qo‘l urgan shaxslar

Millat sha‘nin o‘ylamaydi aslo ular  
 Vatan uchun qilgan ishi kulfatdirlar  
 Javobini bermoq bir kun og‘ir bo‘lar  
 Korrupsiyaga qo‘l urgan shaxslar

Davlat mulkin talan-taroj qilishadi  
 O‘zgalarni qoralaydi, o‘zni oqlashadi  
 Jamiyatni yana qancha qiynashadi  
 Korrupsiyaga qo‘l urgan shaxslar

Bir kunda kesarlar qancha bog‘larni  
 Pul bilan yoparlar barcha dog‘larni  
 Yolg‘onga yuyarlar ro‘yi-rostlarni  
 Korrupsiya qo‘l urgan shaxslar

Ilm yo‘lin tutib o‘qib, izlanaylik  
 Mansab topib boylik deya  
 yashamaylik  
 Jamiyat uchun adolatga yo‘l ochaylik  
 Keling do‘stlar birgalikda  
 kurashaylik....  
 Korrupsiyaga chek quyaylik,  
 tugataylik.

### ONAJON

Sizdan uzoqlashsam yurak urmaydi  
 Sizensiz tomirimda qonim yurmaydi  
 Bog‘imda sizensiz gullar unmaydi  
 Qalb gavharim borim onajon

Ko‘nglim kutarmoqchi bo‘lar  
 do‘stlarim  
 Meni yupatolmas yupanch so‘zlari  
 Sizensiz xira tortar hatto ko‘zlarim  
 Jannat bo‘yli bog‘im onajon



**Shohida Sattorova Muzaffarovna**  
**Buxoro viloyati Gijduvon tumani**  
**QXM 413 guruh talabasi**

**TAJRIBA**

Bilimdan o‘zga najot yo‘q ekan  
 Haqiqatdan o‘zga qurol yo‘q ekan  
 Bekorchi bo‘lsang gar zarar ko‘p  
 ekan  
 Bilimsiz bo‘lsang gar foyda yo‘q  
 ekan  
 Buni tajribamda ko‘rdim men hayot

Niyating pok bo‘lsin va harakating  
 Barchasiga ulgurasan etar toqating  
 So‘zing to‘g‘ri bo‘lsin halol ovqating  
 Shukring bo‘lsin va ibodating  
 Doimo rejada bo‘lsin soating  
 Tiling shirin bo‘lsin va sadoqating  
 Buni tajribamda ko‘rdim men hayot

Hayotda yiqilsang asta tur ekan  
 Yana qadam qo‘ygin olg‘a yur ekan  
 Birovni yordamiga aslo ishonma  
 O‘z kuchingga ishon maqsad qo‘y  
 ekan  
 Buni tajribamda ko‘rdim men hayot

Allohimga bo‘lsin doim toating  
 Duo olish bo‘lsin doim odating  
 Sabr ayla faqat hosil niyating  
 Doimo ravodir barcha xojating  
 Bariga amal qil ey birodarim  
 Bir kelsa ketma-ket kelar omading  
 Buni tajribamda ko‘rdim men hayot

**Bazarbayeva Uljan Sholibayevna**  
**Toshkent davlat agrar universiteti**  
**“Huquq va turizm” fakulteti, Yurisprudensiya yo‘nalishi**  
**1-kurs 24-172- guruh talabasi**

**ASKAR**

Ona yurt bag‘riga singgan o‘g‘lonlar,  
 Jannat bog‘lariga ketdingiz mangu.  
 Osmonda porlagan cheksiz yulduzlar,  
 Posbon qalbida so‘nmas bir tuyg‘u.

Har qarich yerini deb mardona erdi,  
 Shon-shuhrat, boylik aslo kerakmas.  
 Qizil qon ko‘ksiga Malham so‘ramas,  
 Undan faqat bizga ozod el qoldi.

Urush, noming o‘chsin olamdan abad,  
 Insoniy zotini tuproqqa ko‘mding.  
 Go‘daklar ko‘zida alamli bir dard,  
 Odamlar qalbiga ig‘voni solding.

Qanchadan-qancha, o‘g‘lonlar ketdi,  
 Ko‘ksida yuragi bo‘kirib yig‘lar.  
 Zabardast yigitlar, ko‘rmay yor-yorlar,  
 Kelinchak yuzini motamga yopdi.

Har qaysi mungli ko‘z yig‘laydi, g‘amli,  
 Ming bir ayanch bilan ingraydi inson.  
 Bo‘g‘izga tiqilgay har bir Shirin jon,  
 Har kimsa ko‘zida dard bor ma’noli.

Ona ko‘zlarida qalqib achchiq yosh,  
 Yo‘llarini poylab, bedor tunlari.  
 Ona faryodiga berolmay bardosh,  
 Qulab tushar dushman, qoya toshlari.

O‘zbekning bir yarim o‘g‘loni shahid,  
 Ona, yor visolin sog‘inib qo‘msar.  
 So‘nggi nafasgacha mardona ketdi,  
 Ruhlari mangulik sathiga cho‘mdi.

Mardona kurashning jasur o‘g‘loni.  
 Avlodlar so‘rasa, “bizga ne qoldi”?  
 Yurakda shijoat osmonga yetdi,  
 Baxshida etdilar, mangu Turonni.

**Ismoilova Umida Vohidjonovna**  
**TIQXMMI» milliy tadqiqot universiteti**  
**«Iqtisodiyot» fakulteti 3-bosqich talabasi**  
**Abdulla Oripov stipendiyasi sohibasi**

**SEVAMAN VATAN**

Dilda muhabbatim qilaymi xitob,  
 Izohlarim bo‘lur bir doston, kitob.  
 Tunlari qalbimni yoritgan oftob,  
 Qanday bo‘lsang shunday sevaman,  
 Vatan!

Mayli, yurak to‘rim baxsh etay senga,  
 Totli tuyg‘ularim naqsh etay senga,  
 So‘nmas yulduzlarni kashf etay senga,  
 Qanday bo‘lsang shunday sevaman,  
 Vatan!

Ajdodlarim so‘zin yoqlayman bu kun,  
 Onamning oq sutin oqlayman bu kun,  
 Sen uchun g‘ururim saqlayman bu  
 kun,  
 Qanday bo‘lsa shunday sevaman,  
 Vatan!



**SHE’RIYAT PESHVOSI**

Dillarni doimo charog‘on etgan,  
 Millatim deb doston, g‘azallar  
 bitgan,  
 Dovrug‘i butun yurt, olamga yetgan,  
 She‘riyat peshvosi - Navoiy bobom.

G‘azallari ziyo bag‘ishlagandir,  
 Jannat pok ruhini og‘ushlagandir,  
 Bani bashar uni olqishlagandir,  
 She‘riyat peshvosi - Navoiy bobom.

“Xamsa” si hurlig-u mehnat timsoli,  
 Insonni siylaydi ezgu xayoli,  
 Mehrining bo‘lmagay asli zavoli,  
 She‘riyat peshvosi - Navoiy bobom.

Siz mangu xotira, o‘chmas nur, izsiz,  
 Turkiyda, forsiyda quyoshday  
 so‘zsiz,  
 G‘azal mulkinging ham sultonisiz siz,  
 She‘riyat peshvosi - Navoiy bobom.



**Avliyakulova Sanobar Nodirovna**  
**«TIQXMMI» milliy tadqiqot universiteti**  
**«Energetika» fakulteti 2- bosqich magistranti**  
**Abdulla Oripov stipendiyasi sohibasi**



**O‘ZBEK SULTONI**

Adolatni mahkam tutib,  
 Barchaga o‘rnak bo‘lolgan.  
 Jasurlikdan jahon qo‘rqib,  
 Sohibqiron bobom chiqqan.

Siyosatda ziyrak bo‘lmish,  
 Tulporini mahkam tutmish,  
 Shamshirini olgan kuyin,  
 Olamni lol aylatganmish.

Mo‘g‘illarning ixtilosin,  
 Yerlarla yakson aylagan.  
 “Kuch bu-adolatda” deya,  
 Yig‘inda hukm odil bo‘lgan

Bog‘-u rog‘lar bino etib,  
 Bizga tinchlik yo‘lin ochgan  
 Quyosh kabi porlab chiqib,  
 Chin o‘zbek sulton tug‘ilgan.

**HIJRON BOBIDA SARSONAMAN**

Hijron bobida sarsonaman,  
 Seni kutibon mastonaman.  
 Kun kabi kelgin parvonaman,  
 Seni-da istab hamxonaman.

Quyoshing bo‘lay isituvchi,  
 Mehrim taftida yondirguvchi,  
 Xohlaysanmi o‘gridek kirib,  
 Xayoling pinhona olguvchi.

Kunlaring quvonchga burkayman,  
 Dastimdan ucharsan osmonlar.  
 Ha, mo‘jizali tanhoyingman,  
 Ko‘rmassan men kabi sodiqlar.

Yuragim urmoqda shiddatli,  
 Muhabbat bobida sarmastli,  
 She‘rlarim atalgan sen sari,  
 Seni suyishdan ketmam nari.

**Otamirzayeva Sadoqat Ilxomjon qizi**  
**Oriental Universiteti Iqtisodiyot va**  
**axborot texnologiyalari fakulteti**  
**3-bosqich talabasi**

**ONA**

Uzoq manzillarni ko‘zlabman ona  
 Sizni o‘lmaysiz deb o‘ylabman ona  
 Sanoqsiz, poyonsiz orzularingizga  
 Duogo‘yim bo‘ling demabman ona

Tergab, jilmaysangiz siltabman ona  
 Beparvo bo‘libman so‘zlaringizga  
 Ba‘zan mushkullarni ichida qoldim  
 Qaray olsam qani ko‘zlaringizga

Ajinlar munkillar yuzlaringizda  
 Soch-u qoshlaringiz to‘kilib ketdi  
 Supada o‘tirib yo‘l qarayverib  
 Alif bellaringiz bukilib ketdi

O‘zim bilan orzu ikkisi bo‘lib  
 Kunlarni yo‘qotdim uzoq yillarga  
 Chorlasang vaqtida bora olmadim  
 Bolaligim o‘tgan pastak uylarga

Beshtosh o‘ynar edik mahalladoshlar  
 Supalarda kashta tikkim kelyapti  
 Onajon, onajon, meni kechiring  
 Bag‘ringizda har on bo‘lgim kelyapti

**O‘ZBEKISTONIM**

Xalqim, yagonamsan, qadami zalvor  
 Biz yoshlar poyingda sergak  
 mardona  
 Birlashdik, vatanmiz, yagona  
 xalqmiz  
 Bizga manmanlig-u, kibr begona

Xalqim, ishbilarmon tadbirkorimsan  
 Ish o‘rni tayinli madadkorimsan  
 Qo‘shni qardoshlarga qo‘lini tutgan  
 Dovrug‘i dostonsan, xaloskorimsan

O‘zanini topib oqar daryolar  
 Quyoshga tik qarab botinolmadim  
 Xalqim tarifingga asar bitgani  
 Loaqal bitta so‘z topa olmadim

Ko‘zingga qarasam ko‘nglim  
 quv naydi  
 Tolpopuk o‘raymi qirq kokilingga  
 Xinodan naqshlar chizgim kelyapti  
 Duoga qo‘l ochgan barmoqlaringga

Beqasam choponlar, atlas belbog‘li  
 Kurashda yelkasi tegmagan xalqsan  
 Hayot egarini zabardast tutgan  
 Qadami zalvorli va saxiy mardsan

Oh mening jonajon O‘zbekistonim  
 Ko‘zimga suraman xokipoyingni  
 Boshimga chambarak qilib olaman  
 Otam ketmonida qolgan loyongni

Oh mening jonajon O‘zbekistonim  
 Men bir kichik ko‘ngil qizing  
 bo‘laman  
 Bergan imkoningni chindan oqlashga  
 O‘qib, izlanishga va‘da beraman

**Shavkatova Asila Farxod qizi**  
**«TIQXMMI» milliy tadqiqot universiteti**  
**«Ekologiya va huquq fakulteti»**  
**Filologiya yoʻnalishi 1-bosqich talabasi**



**FARISHTAM ONAM**

Dunyodagi farishtam, borligʻim mening,  
 Sizsiz oʻtmas mening hech qaysi kunim.  
 Sizga atalgandir bu sheʻrim mening,  
 Siz mening hayotim, yagonamdirez.

Bizni oʻstirdingiz oq yuvib, tarab,  
 Boringiz berdingiz biz farzandlarga.  
 Ishonch berib menga, qoʻllab-quvvatlab,  
 Yonimda turdingiz mehribon onam.

Allohim, doimo sizni asrasin,  
 Dunyoda sizdek inson yoʻqdir onajon.  
 Duolaringiz goʻyo omad kabidir,  
 Siz uchun harakat qilyapman onajon.

**Mirzaliyev Alisher**  
**Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti**  
**Yer resurslarini boshqarish va ekologiya fakultiteti**  
**daryo va suv omborlari gidrologiya 2 - bosqich talabasi**

**RANJIMA KOʻNGLIM**

Tong otdi ammo kun ham botadi,  
 Biz uchun muqaddas umr oʻtadi.  
 Seni kimdan olib kimga sotadi,  
 Sendan nima ketdi ranjima koʻnglim.

Doʻstman deb dushmandek gʻamga  
 bosadi,  
 Omading kelganda yoʻling toʻsadi.  
 Kim ham soʻzlaringga quloq osadi,  
 Sendan nima ketdi ranjima koʻnglim.

Har kim xatosini bilsa qaniydi,  
 Nodon ham oʻzini dono sanaydi.  
 Ohlaringni faqat yostiq tinglaydi,  
 Sendan nima ketdi ranjima koʻnglim.

Qorongʻu koʻngildan ziyo izlama,  
 Tiling tiy birovga igʻvo soʻzlama.  
 Shukur qil boriga kuyub boʻzlama,  
 Sendan nima ketdi ranjima koʻnglim.

Oʻrtanib kuymagin el tengi boʻlgin,  
 Gumondan yomondan orqada qolgin.  
 Oq-qora koʻngilga yorugʻ nur solgin,  
 Sendan nima ketdi ranjima koʻnglim.

**Xo‘jamiyarova Iroda**  
**Erkin ijodkor**

**SAMARQAND**

Olis o‘lka ne‘matlari totli emas,  
Asal qo‘shib yedirsa ham novvot, qand  
Shirmoy noni dimog‘imdan  
ketmaydi hech  
Qadamimga nur sachratgan Samarqand

Ko‘rkamlikning naqshidasi bu o‘lka  
Ko‘ksim kerib ko‘taraman samo  
kabi qad  
Qayga borsam qadrim ulug‘lab kutgan,  
Qadamimga nur sachratgan Samarqand

Yuksaklikga erishgan bu buyuk xalq,  
Ilim marifati to‘plangan qat-qat,  
Dunyoga tanitgayman men ham albat  
Qadamimga nur sachratgan  
Samarqand

Azal-azalda barpo etilgan sarxat,  
Dovudlari makon qurgan maroqand  
Imom Buxoriyim oyoq yozgan  
dargohim  
Qadamimga nur sachratgan  
Samarqand.



## TANGRIM AYIRMASIN SENING ISHQINGDAN

Sevaman, sevaman yana ming bora,  
Senga baxshidadir mening yuragim.  
Ishqingda kul bo‘lay, mayli  
sevarman,  
Tangrim ayirmasin sening  
ishqingdan.

Vasling istab meni ko‘nglimga  
zordur,  
Visoling izlab tunlarim bedordur.  
Oshiqlik dardidan qalbim gulzordur,  
Tangrim ayirmasin sening  
vaslingdan.

Dilim shirin - shakar so‘zingni  
poylar,  
Ko‘zim jozibali nigohing izlar.  
Bo‘ronli yuragim qalbingga yuzlar,  
Tangrim ayirmasin muhabbatingdan.

**Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna**

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Buxoro akademik litseyi “Tillarni o‘rganish” kafedrasi boshlig‘i  
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent**

## VATANIM

Sendan yiroqlashsam qalbim o‘rtanar,  
Bag‘ringda yayrayman onajon–Vatan.  
Har bir giyohingda mehr tafti bor,  
Unutmam, toki bor bu jism-u tan.

Onam allasining sehri sen bilan,  
Otam shijoati g‘ururi sen-la,  
Momolarim aytar qo‘shiq va o‘lan,  
Fido bo‘lsin jonim-diyorim–Vatan.

Muhabbat, avvalo, sendan boshlanar,  
Go‘daklik hislari bag‘ringda unar,  
Seni sog‘inib ko‘zim yoshlanar,  
Ko‘zim qarog‘ida bebaho –Vatan!

## SEVGI

Bag‘rim qaro etgan, ey nozanin gul,  
Bog‘imda ochilgan yuzlari gulgun.  
Sendan ketib, jonim, kimni sevayin,  
Oydin kechalarim aylading mahzun.

Tunlari bog‘imda sayr etganda oy,  
Go‘zallik yanada ochardi chiroy.  
Men seni kutaman tonggacha bedor,  
Ey nozik niholim, yuzi to‘lin oy.

Men qayta yaralgan go‘zal  
maskansan,  
Maysalar uchiga qo‘n shabnamsan.  
Sensan menga orom, sen menga  
hijron,  
Sen qalbim tubida cho‘kkan  
armonsan.



**KITOB**

Hayot sirlarini men obdon bildim,  
Andisha, vijdonni axtarib ko'rdim,  
Haqiqatni izlab tentirab yurdim,  
Hayot saboqlari sendadir – Kitob.

“Yulduzli tunlar”da quyoshni ko'rdim,  
“O'tgan kunlar”imda xalqimni bildim,  
“Ufq”ni bir varaqlab ko'p o'yga  
toldim,  
Hayot saboqlari sendadir –Kitob.

Do'stim kimligini tanitib qo'yding,  
Onamning qadrini eslatib turding,  
Mehr rishtasini sen bog'lab qo'yding,  
Hayot saboqlari sendadir – Kitob.

**QADR YIG'LAYDI**

Vijdon qah-qah urib otganda xandon,  
Oqibat sabrli yo'llarda sarson,  
Insof-u diyonat tikilar hayron,  
Qadr o'z qadriga bo'zlab yig'laydi...

Umr –bu o'lchovli dovonlar uzun,  
Sendagi sabr ham qaribdi bugun,  
Andisha singilni bag'riga bosib,  
Qadr o'z qadriga ho'ngrab yig'laydi...

Tog'lar haybatida kibr hukmron,  
Yuzsizlar g'orlarda tutmishlar makon,  
Insofga termulib, vijdon ham hayron,  
Qadr o'z qadriga bo'zlab yig'laydi...

Sabrimni sinagan yillarni eslab,  
Qalbimni sindirgan kunlarni eslab,  
Hayot sahnidagi g'aroyiblardan  
Qadr o'z qadriga ho'ngrab yig'laydi...

**FARZANDLARIM...**

Hayotim mazmunisiz, ey farzandlarim,  
Qosh-u ko'z bo'yingizdan o'zim  
aylanay,

Olloh bergan menga ne'matlarimsiz,  
Ko'ksimdagi quvonchim o'zim  
o'rgulay.

Hayotim sarvari, o'g'lim Humoyun,  
El suyunsa suyun, kuyunsa kuyun,  
Qalbimning gavhari, ko'hinurimsan,  
Dilimning shodligi sen bilan qizim.

O'g'lim, senga aytar so'zlarim bisyor,  
Opangni asragin men rihlat qilsam,  
Ko'zidagi yoshni sekin artib qo'y,  
Uni ezib qo'ymasin tashvishli bir o'y...

Qizim, hayotingda men bo'lmasam  
ham,  
Onajonimsiz deya doim eslab yur,  
Hayot yo'llarida qoqilib qolsang,  
Qabrimga chiroyli gullar eltib qo'y...

Kurashdim, yashadim sabrim sinaldi,  
Boshginam nelarni ko'rmay qolmadi,  
Bir kuni yuragim charchab urmasa,  
Ukangni boshini sekin silab qo'y...

Meni unutmang sira ey farzandlarim,  
To'g'risi, charchadim kurashdan  
toldim,  
Lek hayotda haqligim isbot qilolmay,  
Faqat Ollohimga havola qildim...

Yaqining tushunmay, ayblasa yomon,  
Men faqat mehrga zor bo'lib qoldim,  
Kechalar tushimda buvim ruhi-la,  
Dardlashib-dardlashib so'ng uxlab  
qoldim...

Bir kun urmay qolsa horg'in yuragim,  
O'g'limning boshini egmagin,  
HAYOT!  
Kurashdan charchasam tura olmasam,  
Qizimni baxtli qil, yig'latma  
HAYHOT!

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**“IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI” ILMIY-  
TADQIQOT INSTITUTI**

**“TARANNUM”**  
ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy,  
publitsistik jurnal

**2025/1 (№1)**

**Tahririyat manzili:**

Qori Niyoziy ko‘chasi, 39, Toshkent shahar, 100000  
Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times”garniturası.

**“Science and innovation” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.**

Manzil: 100121, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,  
Shota Rustaveli 150, “Vega” biznes markazi, 6-etaj, 2-xona.  
+998993319654, +998901259654